4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning hayolot olamini boyitish.
7. Elementlar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalar bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Internet saytlaridan www eduportal.uz

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARNI YECHISH ORQALI O'QUVCHILARNING QOBILYATLARINI YUZAGA CHIQARISH

**Abilova Shaxnoza Manazorovna**
Angren shahar 30-umumiy o'rta ta'lim maktabining
2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon raqami: +99899 818 63 25

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali boshlang'ch sinflarda matematika o'qitish predmeti va masalalar yechish usullar orqali bolalarni fikrlash qobilyatlarini o'stirish metodlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qitish vositalarini, darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. O'quvchilarga ularning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon berish, mustaqilligini va ijodiy potinsialini rivojlantirish boshlang'ich maktabning asosiy vazifasidir. Bu masalalarni muvofaqiyatli hal qilish uchun ko'p tomondan o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning shakllantirilganligiga bog'liq.

O'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini rivojlantirishda tafakkur asosiy rol o'ynaydi. Tafakkur bilan bir vaqtda va uning bilan bog'liq ravishda barcha bilim olish jarayonlari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda "fikran, sodda ishlarni rejalashtirish", o'zining harakatlarini baholash xususiyatlari rivojlana boradi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Matematika tafakkurni rivojlantirish uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Tafakkurni rivojlantirishning konkret usullari mavjud emas. Biz o'quvchilar tafakkurini umuman o'stiramiz, matematika o'rgatish va h.k lar orqali.

Dastlabki matematik bilimlarni o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlariga mos ravishda birbiri bilan bog'liq holda o'zlashtiradilar. Bunda ular tafakkurning ular bilimlarga mos darajasidagi amallari: analiz, sentiz, taqqoslash, abstraktlashtirish, konkretlashtirish, induksiya va deduksiyadan foydalanishadi, mulohazalar yuritishadi. Matematik bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Tafakkur amallarini bilib olish esa o'z navbatida yangi bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Real dunyo predmetlari va hodisalarni o'rganish uchun biz ularni xayolan (fikran) kichik qismlarga ajratamiz, ya'ni analiz qilamiz; qismlar yoki predmetlar va hodisalar orasidagi bog'lanishni o'rganamiz, ya'ni sentiz qilamiz. Tafakkurning bu amallari o'zaro bog'liqdir. Analiz va sintez amallari arifmetikani o'rganishda ham, mashqlar bajarilganda ham, masalalar yechilganda ham ishlatiladi. Birinchi sinfdayoq o'quvchi to'plam elementlarini real ko'rinishda qismlarga ajratadi, o'rganadi va ularni birlashtiradi. Keyinchalik esa u xayolda, fikran analiz va sintez amallarini bajara boshlaydi.

Matematikaning har qanday bo'limini o'rgatishda ham analiz va sintez amallaridan keng foydalaniladi. Bu amallar matnli masalalarni yechishda ham ishlatiladi.

O'qituvchi rahbarligida o'quvchi masalaning mazmunini analiz qiladi, uni sonli ma'lumotlarga ajratadi, berilgan qism va topilishi kerak bo'lgan noma'lumlarni aniqlaydi.Murakkabroq arifmetik masalalarni yechishda murakkab hamda nozik analiz va sintez usullari ishlatiladi.

Boshlang'ich matematikani o'rgatishda taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Bunda berilgan arifmetik masalalardagi ob'ektlar va ularning qismlari o'zaro taqqoslanadi, o'xshash va o'xshash bo'lmagan xususiyatlar aniqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov . Toshkent 2011
2. "Matematika analiz" 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent "O'qitvchi-1994"

# DAUN SINDROMLI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARI

**Ahmedjanova Ma'mura Turg'unovna**
Toshkent shahar Olmazor tumani
522-KTIMTT logoped-o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Maqolada Aqli zaif bolalar markaziy asab sistemasining kasalliklari xususan Daun sindromi kasalligi hamda bu kasallik bilan kasallangan bolalarning boshqa bolalardan farqlari haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlari:** aqli zaif, xromosoma, oligofreniya, Daun sindromi, intellek.

Bolaning intellektual, ya'ni aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Aqli zaif bolalar markaziy asab sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi bilan boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farq qiladilar. Aqliy nuqson bola markaziy asab sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish vaqtida va tug'ilgandan to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Rezus faktorning to'g'ri kelmasligi, xromosoma kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug'ma aqli zaiflikka olib kelishi mumkin. Masalan, aqli zaiflikning **Daun kasalligi** deb ataladigan bir turli xromosomalar nisbatining buzilishi 46ta yoki 23juft xromosoma o'rniga bitta ortiqcha xromosomaning vujudga kelishi natijasida paydo bo'ladi.

Aqli zaiflikning og'ir shaklidagi bolalar orasida Daun sindromi bilan kasallangan deb tashxis qo'yilgan bolalar soni jihatidan sezilarli darajada ko'p. Bunday tashxis bilan tug'iladigan chaqaloqlar 1:600-900 nisbatda uchraydi. Bularning yarmi yurak kasalliklari bilan dunyoga keladi.

***Daun sindromi kasalligi****ning* tashqi alomatlari shu qadar o'ziga xoski, kasallik tashxisi odatda tug'ruqxonada bolaning tashqi ko'rinishi bilan belgilanadi. Avvalo, bosh suyagining kichraytirilgan, kattaligiga yassilangan va qiyshaygan ensa, uchi ko'z qopqog'i bilan tor ko'z yoriqlari, chiqib turgan zigomatik kamarlari bo'lgan tekis yuz, assimetrik, past yotgan kichkina quloqchalari, baland tanglayiga e'tibor qaratiladi. Ushbu tashqi belgilar ko'krak qafasi, oyoq-qo'llari, oyoq barmoqlarining tuzilishidagi anomaliyalar, yurakning tug'ma nuqsonlari va boshqa anomaliyalar bilan birlashtirilgan. Bu bolalarning ko'pchiligi eshitish va ko'rish a'zolaridagi nuqsonlardan aziyat chekadi. Daun bolalarda quloq karligi (60-80% hollarda uchraydi), aqli zaiflikning boshqa shakllaridagi bolalarga qaraganda sezilarli darajada yuqori.

Daun sindromi bilan kasallangan bolalarning taxminan 50%i uzoqni yaxshi ko'ra olmaydi, 20%i esa uzoqni yaxshi ko'radi. Ularda epikart, astegmatizm, g'ilaylik va boshqalar uchraydi. Bolalarning bu jihatlarini ta'lim jarayonini tashkil etishda va ta'lim metodlarini tanlaganda hisobga olish kerak.

Daun sindromli bolalarda motorika ko'proq darajada buzilgan bo'ladi. Ular uchun harakatlarning, yurishining beo'xshovligi, bo'g'imlarning yuqori egiluvchanligi xosdir. Asosiy statik funksiyalari rivojlanishida kechikish aniqlangan (boshni tutib turish, o'tirish, tik turish, koordinatsiya), shuningdek harakat qanchalik qiyinlashsa, uni egallash va bajarish muddatlari ortga suriladi. Bu bolalarda muvozanat ko'nikmalari nuqsonlari yaqqol ifodalangan. Daun sindromli bolalar boshqa aqli zaif bolalar kabi predmet shaklini ko'rish orqali farqlay olishadi, biroq obektni tanish natijalari, bu bolalarda yomonroq. Bu holat Daun sindromli bolalarda barmoqlar harakatlarining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Shuni yodda tutish kerakki, ushbu bolalardagi aqliy rivojlanish buzilishi ko'rish va eshitish qobiliyatining buzilishi tufayli yanada kuchayishi mumkin. Bundan tashqari, ko'p hollarda Daun sindromi kasalligi bo'lgan bolalarda semirish, qalqonsimon bez va jinsiy bezlarning etarli darajada ishlamasligi bilan bog'liq turli xil endokrin kasalliklar mavjud. Ushbu yetishmovchilikni erta aniqlash intellektual nogironlikning og'irligini kamaytirish uchun to'g'ri davolash uchun juda muhimdir. Daun kasalligida aqlning rivojlanmaganligi oligofreniyaning chuqur darajadan o'rtacha darajasiga qadar o'zgarib turadi, og'ir shakllari aniq ustunlik qiladi.

Daun kasalligining intellektual va emotsional buzilishi odatda nutqning buzilishi bilan bog'liq. Avvalo, uning kech rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Nutqning buzilishi, ayniqsa, eshitish nuqsonlari mavjud bo'lganda aniqlanadi. Hozirgi vaqtda Daun kasalligiga chalingan bolalarda nutqni buzilishi va ayniqsa nutqni idrok etish jarayonlari masalalari nafaqat ularning intellektual

nuqsoni bilan, balki quloq va yarim sharning ustunligi jihatidan ham koʻrib chiqilmoqda. Dichotic tinglash yordamida quloq ustunligini maxsus tadqiqotlar ushbu bolalarning koʻpchiligida chap quloq ustunligini aniqladi. Shu bilan birga, chap quloqning ustunligi va sindromning oʻzi oʻrtasida emas, balki aqliy zaiflik haqiqati bilan aniq bogʻliqlik aniqlandi. Quloq va yarim sharning ustunligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni hisobga olgan holda, Daun sindromi kasalligi boʻlgan bolalar nutq ma'lumotlarini lingvistik qayta ishlash uchun unchalik samarasiz boʻlgan oʻng yarim shardan foydalanishlari tavsiya etiladi.

Soʻnggi yillarda ona va bola oʻrtasida yetarli darajada oʻzaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus tuzatish dasturlari hamda ularning aqliy rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi dasturlar yordamida Daun sindromli bolalarni erta reabilitatsiya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Maxsus adabiyotlarda Daun sindromli bolalarni rivojlantirish imkoniyatlari xususida yagona qarash mavjud emas. Ba'zi mualliflar, xususan psixiatrlar bu bolalarning juda sekin va qiyin rivojlanishini va 12–14yoshda rivojlanishining batamom toʻxtashini ta'kidlashsa, Defektologlar esa maxsus ta'lim ta'sirida bu bolalarning sekin boʻlsada rivojlanishlarini ta'kidlashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida koʻrsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, Daun sindromli bolalar bilan toʻgʻri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga oʻrgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya olib chiqqan bolalar maktablarda oʻqishni davom ettirmoqdalar. Tarbiyachi va oʻqituvchilarning muhim vazifasi –bunday bolalarni boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlab berishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Aytmetova. S SH. Oligofrenopedagogika. – T.: 1994
2. Raxmanova. V S. Defektologiya asoslari. – T.: 2012
3. Дефектологический словарь. – М.: «Педагогика», 2000

# USTOZLARNING USTOZI

**Aminova Yulduz Atanazarovna**
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 24 – sonli
umumiy o‘rta ta’lim maktabining O‘zbek tili va
adabiyoti fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 90 110 92 66

**Annotatsiya:** Quyidagi ushbu ilmiy maqolada - Abdulla Avloniy, eng ulug‘ inson, ota-ona, Mirzo Ulug‘bekning ustozi haqida qisqacha ma’lumot berishga harakat qilngan.

**Kalit so‘zlar:** Ustoz, kitob, o‘qish, muallim, Mirzo Ulug‘bek, Ota-ona, hurmat,

Siz birinchi „Alifbo“ darsligini kim yozganini bilasizmi? Bu – ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniydir. U kishi 1879-yilda Toshkentda tug‘ilgan. Abdulla Avloniy haqida gapiradigan bo‘lsak – o‘zi maktab ochib, ko‘p darsliklar yozgan. Bolalar uning „Birinchi muallim“ kitobidan ilk bor harf tanishgan. „Ikkinchi muallim“dan esa she’r va hikoyalar o‘qishni o‘rganishgan. Uning 1909 – 1917- yillarda bosilgan to‘plamlari o‘qish kitobi vazifasini bajargan. Shuning uchun Abdulla Avloniyni barcha ustozlarning ustozi deb hisoblaydilar. Biz ham birinchi bor qo‘limizga qalam tutqazib, o‘qish va yozishni o‘rgatgan ustozimizni hamisha hurmat bilan yodda tutamiz.

*Birinchi muallimim*
*Oftobimsiz, oyimsiz,*
*So‘zlari muloyimsiz,*
*Omon bo‘ling, doim siz,*
*Birinchi muallimim.*
*Darsda shovqin solmaymiz,*
*Yomon baho olmaymiz,*
*Biz sizni ardoqlaymiz,*
*Birinchi muallimim*
*Biz bo‘lsak ahil, inoq,*
*A’lochi, kamtar, quvnoq*
*Sochingizga tushmas oq,*
*Birinchi muallimim.*
*Etolmasak sizni shod,*
*Ko‘ngil uyingiz obod*
*Qarzdormiz umrbod,*
*Birinchi muallimim.*

*(Olqor Damin)*

Shu o‘rinda men eng ulug‘ ustozim haqida bir-oz to‘xtalmoqchiman, meni tez-tez o‘quvchilar bilan uchrashuvlarga taklif qilishadi. Shunda ko‘pincha o‘quvchilar „Sizning birinchi ustozingiz kim?“ – deb savol berishadi. Men ularga shunday javob beraman – Mening qo‘limga ilk marta qalam-daftar tutqazgan, menga o‘qish-yozishni o‘rgatgan o‘qituvchilarimdir deb – javob beraman. Ammo, kitobni eng ulug‘ ustozim degim keladi. Bolaligimda kitobni qo‘limdan hech qo‘ymas, unga boqib to‘ymas edim. Kitob so‘zining asl ma’nosini otalardan so‘rab, aniq bilib oldim. Kitob so‘zi kel, top, bilim ol ma’nolarini bildirar ekan. Kitob eng ulug‘ ustoz va qadrdon do‘stdir.

Ota-ona ham ilk ustoz hisoblanadi – Inson uchun birinchi ustoz ota-ona hisoblanadi. Ota-onani hurmat qilish, ularni e’zozlab, xizmatlarini qilish har bir farzandning vazifasi deb o‘ylayman. Ota-onangizni ranjitadigan so‘zlar aytishdan doimo saqlaning. Ularni izzat-hurmat qilishga, duolarini olishga harakat qiling. Ularga yomon muomala qilishdan, achchiqlanib qarashdan o‘zingizni saqlang. Har bir o‘g‘il-qiz buva-buvisi, otaonasining nasihatlariga doimo amal qilishi kerak.

Mirzo Ulug‘bekning ustozi haqida eshitganmisiz? yo‘q deysizmi? Unday bo‘lsa tinglang, rivoyat qilishlaricha, Mirzo Ulug‘bek bolalik paytida Amir Temur Rumdan chaqirib keltirgan bir donishmanddan saboq olgan. Donishmandning bir odati bo‘lib, saboq berish vaqtida boshini engashtirib, yerga qarab o‘tirar ekan. Agar shogirdi biror jumlani yanglish o‘qisa, unga qarab

qo'yar ekan. Bir kuni Mirzo Ulug'bek kitob o'qiyotgan edi. U: „Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va'da qilasiz?" degan jumlani o'qigach, ustozi unga bir qarab qo'yibdi. Mirzo Ulug'bek: „Ehti mol, yanglish o'qigan bo'lsam kerak", deb jumlani diqqat bilan qaytadan o'qibdi. Ammo ustozi bu gal ham boshini ko'tarib, unga qarab qo'yibdi. Mirzo Ulug'bek saboqdan keyin bobosi yoniga kelib: – Bobojon, ustozimga biror narsa va'da qilgan bo'lsangiz, darhol va'dangizga vafo qiling, – deb bo'lgan voqeani aytib beribdi. Amir Temur nabirasining hikoyasini eshitib: – Ustozing mendan Rumda qolib ketgan kutubxonasini olib kelishga odam yuborishimni iltimos qilgan edi. Men va'da qilgan edim, ammo yodimdan ko'tarilib ketibdi, – debdi. So'ng shu zahotiyoq rumlik donishmandga bergan va'dasini bajo keltirish uchun farmon beribdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, aziz xalqimizning bir naqlida "Sen odamlarga bir yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, bug'doy ek, o'n yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, daraxt ek, yuz yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, ta'lim-tarbiya ber" deyilgan. Shuning uchun ham ustoz deganda ko'nglimizda chuqur hurmat va ehtirom, cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga hech qanday boylik bilan o'lchab, ado etib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muxitdinova X. S. va boshqalar. O'zbek tili [Matn]: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7- sinfi uchun darslik. – T.: „O'qituvchi" NMIU, 2017.–144 b.
2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy-1878-1934
3. https://www.urgfiltma.uz/ru/news-and-events/399-ustoz-%E2%80%93-otangday-ulug%E2%80%98.html
4. https://fayllar.org/d-a-nuriddinova-v5.html?page=2

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Aqmanova Maqsuda Karimboyevna**
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'lumotlarini oshirish, darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko'maklashishi hamda sinf tashqari mashg'ulotlarning afzalliklarida xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlari:** sinfdan tashqarimashg'ulotlar, o'quvchilar jamoalari, o'z–o'zini boshqarish, g'amxo'r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashishi uchun, boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o'zlashtirishda orqada qoladigan o'quvchilar bilan ishlash, bunga qo'shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o'rganishga qiziquvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar. Ma'lumki birinchi tur mashg'ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg'ulotlarni 3-4 o'quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o'quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o'quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazilish shakliga ko'ra darslardan farq qiladi va ko'pincha qiziqarlilik xarakteriga ega boladi. Og'zaki hisob ko'pincha sinfdagi hamma o'quvchilarning «yana, yana» degan istaklari bilan o'tkaziladi. O'quvchilarning talabiga kora, darsda boshlangan ishlarning davomini darsdan tashqari vaqtga ko'chirish mumkin. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni oldin ularning talabiga ko'ra, so'ngra yechiladigan misol, masalalar, o'yin va qiziqishning ortishiga qarab oyida ikki marta sistemali o'tkazib turish mumkin.

Mashg'ulotlarni o'tkazishga ketadigan vaqt ularga qo'yilgan maqsadga qarab aniqlanadi. Agar o'quvchilar bilan uchrashish darsdan keyin o'tkazilsa va o'z oldiga biror o'yin bilan tanishish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, bu holda bunday mashg'ulotga dastlabki paytlarda 10-15 minut vaqt yetarli bo'ladi. O'quvchilar o'yin bilan tanishgandan keyin, odatda ular ko'pincha o'zlari ota-onalari, aka-ukalari va boshqalar bilan ham shunday o'yinni bajaradilar, ya'ni ularni ham jalb qiladilar.

Mashg'ulotlar murakkablashib ketsa, uni o'tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o'quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko'rsatilgan masalalarning ko'rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo'lishi ham mumkin. Ziyraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o'rganishga muvaffaqiyatli

yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;
- matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

**Sinfdan tashqari ishlarning shakllari**:

-Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o'stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo'shimcha ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta'limiy ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlari yetishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar, tarixiy ma'lumotlar berish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va konikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimliligining murakkabligidadir.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko'mak beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar boshlang'ich sinf ona tili va matematika darslarida va o'qish darslarida, sinfdan tashqari o'qish tartibida tashkillanadi. Bu jarayon o'qituvchii ixtiyorida bo'lib mavzu tanlash erkin hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni turli konkurs tadbir va to'garaklarga jalb etish tabiat qo'yniga sayohatlarni tashkillash kabilardan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o'qish to'garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg'ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.
4. J.O.Tolibova. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. - T.: 2005.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH VA ULARDA DTS TALABLARI

**Ataboyeva Qubora Ilhomovna**
Urganch shahar 14-son umum ta'lim maktabining
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi:
Electron pochta: atabayevaqubora @mail.ru.
Tel:+998 914224515

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarini tashkil etish va uslubiy yordam berish haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** dasturlar, ifodali o'qish, ta'lim to'g'risidagi qonun.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar kiritilgan.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilat. Shu tugayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'zichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.

2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'ginlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan yashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r - ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin.

O'rtacha tezlikda o'qishga o'quvchi harf tovushlarni o'rganayotgan vaqtdan boshlab asos yaratiladi. Biroq dastlabki o'rinda to'g'ri va ongli o'qish jarayonidagi o'rtacha tezlik darajasiga erishiladi. Ravon o'qishda matndagi tinish belgilariga amal qilinishi lozim. Ifodali o'qishga o'rgatishning eng muhim usullaridan biri o'qituvchining namunali ifodali o'qishidir. Buning uchun o'qituvchi o'qitishning pauza, urg'u, ohangi, sur'at kabi texnik-nazariy vositalari haqida yetarli bilim mahoratga ega bo'lishi, og'zaki nutq madaniyatini puxta egallashi lozim. O'qish vaqtida badiiy asar namunasida ifoda etilgan his tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yecha olishga erishish. O'qishdagi normal tezlik o'qilganning

ma'nosini to'liq anglab olishga yordam beradi. Normal tezlikda o'qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi. Aksincha, ortiq darajada o'qish orqali mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. O'qish tezligini rivojlantiruvchi asosiy shartlardan biri to'g'ri o'qishdir. O'qish tezligini oshirish uchun bola ravon o'qiydigan bo'lishi kerak. 1-sinfda o'quvchilar o'qish tezligi davlat talablariga nisbatan 25-30 so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2-sinfda esa 40-50 so'z, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zdan iborat bo'lishi kerak. O'qish tezligi o'qilayotganning ma'nosini tushunish va qabul qilishga bog'liq. Juda sekin o'qish ham ongli bo'lishga halaqit beradi. O'qituvchining o'qish tezligi yuzasidan ko'rsatilgan namunasi uning normal holatda so'zlashish tempiga teng kelishi kerak. O'quvchilarni ham shunday o'qishga o'rgatish lozim. Ovoz chiqarib o'qishda o'qilganning mazmuni yuzasidan savollarga javob bera olishi kerak. Bunda ba'zi o'quvchilarning tekst mazmuniga qaramay tez o'qishlariga chek qo'yiladi. Sinfda o'tilgan asar yoki asardan parchani mustaqil tarzda ifodali o'qish, o'sha asar yoki parcha qanday mavzuga bag'ishlanganini aniqlash, unda ishtirok etuvchi qahramonlarga munosabat bildirish o'quvchilar uchun oz fikrini bayon qilishga yordam beradi. O'quvchilar qahramonlarning fe'l atvori, xatti harakatlariga qarab ovoz ohangini o'zgartirish, matndagi urg'u tushadigan so'zlarni aniqlash, pauza qilinadigan o'rinlarni ajratib olishlari muhim bo'ladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, 'Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta'lim berishning yangi usullarni izlab topish va uni tadbiq qilish borasida ko'p aytilgan. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda ham dars o'tish jarayonini takomillashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich ta'lim jurnallari.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim talablari va o'quv dasturi.
3. 2-3-sinf uchun dasturlar.
4. A.Shojalolov, G. Toshmatova, S. Matjonov. O'qish kitobi. 4-sinf, "O'qituvchi".

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISH METODLARI

**Atadjanova Nigora Egamberganovna,**
**Adambayeva Havojon Ro‘zmetboyevna**
Urganch shahar 14-son umum ta’lim maktabining
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari:
Electron pochta:atadjanovanigora@mail.ru.
Tel:+998 914247195

**Annotatsiya:** Bugungi kunda o‘quvchilarda hisob-kitob ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang‘ich ta’limdagi matematika fani o‘qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir. Shu bois, ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishda metodlardan foydalanishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, tartib-intizom, fanlar integratsiyasi, umumiy kompetensiya.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang‘ich kursning asosiy o‘zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi.

Boshlang‘ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo‘lib hisoblanadi. V–XI sinflarda o‘qitiladigan matematikaning eng asosiy va o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o‘qitiladi. Demak, boshlang‘ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi. Boshlang‘ich matematikaning tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementlarining propedivtik kurslari asosiy bo‘lim shaklida o‘qitilmasdan arifmetik material bilan qo‘shib o‘qitiladi.
2. Boshlang‘ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin I-o‘nlikni raqamlash o‘qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o‘qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko‘p xonali sonlar ichida. Bularni o‘qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo‘shib o‘qitiladi.

Masalan, arifmetik amallarni o‘qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog‘lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog‘lanish beriladi. Masalan, qo‘shish asosida ko‘paytirish keltirib chiqarilgan. Boshlang‘ich matematika kursi o‘z tuzilishi bo‘yicha o‘z ichiga olgan, arifmetik, algebraik va geometrik materialdan iborat qismlarni . Boshlang‘ich matematika kursida arifmetik materialning konsentrik joylashuvi saqlanadi. Ammo, amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan: o‘nlik, yuzlik, minglik, ko‘p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday katta guruhlashganki, unda o‘zaro bog‘langan tushunchalar, amallar, masalalarni qarash vaqt jihatdan yaqinlashtirilgan. Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o‘rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentalari orasidagi bog‘lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig‘indidan qo‘shiluvchilardan biri ayrilsa, ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘ladi.) Komponentlaridan birining o‘zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o‘zgarishi kuzatiladi. 1-sinfdan boshlab sonli tengliklar va tengsizliklar (4=4, 6=1+5, 2<3, 6+1>5, 83< 8-2 va hokazo) qaraladi.

Ularni o‘rganish arifmetik materialni o‘rganish bilan bog‘lanadi va uni chuqurroq ochib berishga yordam beradi. 2-sinfdan boshlab (x+6)-3=2 va h.k ko‘rinishdagi tenglamalar qaraladi. Tenglamalarni yechish, oldin tanlash metodi bilan, so‘ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog‘lanishlarni bilganlik asosida bajariladi.

Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog‘lanishlarni ko‘rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi. (Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchakning teng kvadratlarga bo‘lingan ko‘rsatmali obrazidan ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasini bog‘lanishi ochib foydalaniladi...).

1-sinfdan boshlab to‘g‘ri va egri chiziqlar, kesmalar, ko‘pburchaklar va ularning elementlari,

to‘g‘ri burchak va hokozo kiritilgan.

O‘quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishni, ularni nomlari, katakli qog‘ozga sodda yasashlarni o‘rganib olishlari kerak. Bundan tashqari, ular kesma va siniq chiziq uzunligini, ko‘pburchak perimetrini, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat va umuman har qanday figuraning yuzini (paletka yordamida) topish malakasini egallab olishlari kerak.

*O‘qitish metodi tushunchasi.*

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning maqsadlari quyidagilar:

umumta’lim maqsadi, tarbiyaviy maqsadi, amaliy maqsadi. Bu maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

1. Ta’lim maqsadi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi.

a) o‘quvchilarga matematik bilimlar tizimidan, bilim, malaka ko‘nikma berish;

b) haqiqiy olamni matematik metodlar bilan o‘rganish;

Bilishga intilish, mustaqil ishdan qanoat hosil qilish tuyg‘ularini tarbiyalashi kerak. Matematika fanini o‘qitishning o‘zi o‘quvchilarda diqqat va fikrni to‘play bilishni tarbiyalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. www.ziyonet.uz
2. Matematika. 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.
3. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. kutubxona.adu.uz

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ADABIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

**Atamuratova Muborak Rajapboyevna**
Xorazm viloyati Urganch tumani
23-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya**. Maqolada adabiy ta'lim metodlarining izohi hamda ushbu metodlardan boshlang'ich ta'limda foydalanishning samaralari va istiqbollari yoritilgan.
**Kalit so'zlar**: pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, o'qitish metodlari.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Shuning uchun ta'lim tizimini samarali tashkil etishda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovasion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Buning uchun darslarimizni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda yangi uslub bilan tashkil etishimiz zarur. Yangilangan ta'limda o'quvchini har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Pedagogik tehnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchilarda hurfikrlik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.Har kuni yurtimizga yangilik, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf darsliklari uchun video ilovalar, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dars ishlanmalar yaratilgan. Masalan, 1-sinf "O'qish" darsligining multimediali ilovasiga 42ta animatsiya, 16ta videolavha, ta qo'shiq, 20 ta lug'at ishi, 43ta o'yin, 15ta test topshiriqlari kiritilgan. Multimediali ilovasining 1-sahifasida o'quvchilar qo'lidagi guldastada 21ta darsning soni (taqvim, mavzu, reja asosida) ko'rsatilgan. O'qituvchi dars raqami ustidagi tugmachani bosganda, ekranda, *"O'qing va kuzating", "Lug'at", "Test", "O'yin", "Mashq", "Video", "Dam olish daqiqasi"* kabi belgilar aks etadi. Mana shunday multemidiali ilovalardan foydalanib darsni olib borish bilan bir xil qolipda dars o'tishning o'ziga xos farqlari, afzalliklari va qulayliklari mavjud.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi, olayotgan bilimlarini mustahkam egllashga va ularni amalda o'zlari erkin va mustaqil foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi. Darsliklarda berilgan videolavhalar o'quvchiga tushunarli, sodda va ravon qilib ishlangan. Bu esa mavzuni tez va oson tushunib olishlariga qiyinchilik tug'dirmaydi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "Dam olish daqiqalari" ham musiqali, turli xil harakatli raqslar asosida berilgan bo'ladi. Masalan, "Nafas olish mashqi", "Tropik yomg'ir" o'yini, "Qarsak" o'yini kabilarni keltirish mumkin. Bulardan tashqari o'qish darslarini bevosita ingliz tili bilan bog'lab "Dam olish daqiqasi" ni tashkil etish mumkin. Bundan tashqari, "O'qish" darsarida foydalaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin: **"Suhbat", "Evristik", "Aqliy hujum", "Baliq skleti", "Nilufar gul"** va boshqalar.

Masalan, Mirkarim Osimning 4-sinf "O'qish" darsligida kiritilgan ***"Kitobga ixlos"*** hikoyasini evristik metoddan foydalangan holda o'rganishni quyidagicha tashkil etish mumkin. Muallif hikoyada hayotdagi qiyinchilik, urush davri inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazuvchi bir vosita ekanini, shunday qiyin paytlarda ham ilm kishilari kitobdek xazina uchun jonlarini ham qurbon qilishga tayyor ekanliklarini buyuk qomusiy olim bobomiz Ibn Sino misolida namoyish eta bilgan. Hikoya matnini to'liq o'qib chiqish uchun darsning 23-25 daqiqasi sarflanadi. So'ngra asar qahramonlari o'quvchilar bilan to'liq tahlil qilinadi. O'quvchilar badiiy asar qahramonlarini tashqaridan kuzatishga emas, ichkaridan tuyishga odatlantirilsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy ta'limda induktiv, detektiv metodlarining ham o'ziga xos o'rni bor. So'ngi yillarda deduktiv ta'limga e'tibor kuchaydi. Lekin tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib ta'limda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan o'quv materialining mantig'ini ajratishda, ya'ni xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishida ahamiyat kasb etadi. Y.Babanskiy induktiv metodni qo'llaganda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko'rsatadi: birinchi variantda o'qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil etadi, o'quvchilarni asta – sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o'zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. O'quvchilar xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra o'quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi variantda o'qituvchi o'quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga yetaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muommoli masala qo'yadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak adabiy ta'lim metodlaridan boshlang'ich ta'limda foydalanish, o'quvchilar dunyo qarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, o'quvchi nutqini rivojlantirish, o'z fikrini erkin ayta olish, umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tolibova J. Pedagogik texnologiyalar. – T.: 2005
2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2018
3. Yo'ldoshev Q, Madayev O, Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 1994

# YOSHLARNING ESTETIK DIDINI YUKSALTIRISHDA NAQQOSHLIK SAN'ATING O'RNI

**Bekjanova Aziza Aytmuratovna-**
Nukus shahar XTB ga qarashli "Progress"
Ta'lim va Rivojlantirivchi Markazi yonidagi
46-sonli ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada bezak san'atining rivoji juda qadim zamonlardan boshlanib, xalq ijodining muhim sohasiga aylanganligi, u tasviriy san'at, badiiy hunarmandlik sohalari, shuningdek xalq ustalari, rassomlar, haykaltaroshlar, dizayn ustalari faoliyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib borganligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Naqsh, bezak san'ati, me'morlik, nafosat, tasviriy san'at, badiiy hunarmandlik, naqqosh

Xalqimiz tarixini, qadriyatlarini, ilm-fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqshnigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Bezak san'ati — san'at turi; inson atrofidagi moddiy muhitni shakllantiradi, badiiy bezash uchun xizmat qiladi, unga estetik va g'oyaviy badiiy mazmun baxsh etadi. Bezak san'ati insonning xizmatidagi buyumlarga bezak bo'lib, shu bilan bir qatorda insonga estetik, g'oyaviy va badiiy ta'sir ko'rsatadi, inson moddiy muhitining ko'rki, nafosati sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy sohalari: me'morlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan monumental bezak san'ati, jamoatchilik va ayrim shaxslar ehtiyoji uchun badiiy buyumlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan amaliy san'at, bayram, tomosha manzaralarini, sayrgohlarni, ekspozitsiyalarni, ko'pchilik e'tiboriga havola qilinadigan stend, vitrinalarni bezash bilan bog'liq bo'lgan bezash san'ati, badiiy loyihalashdan iborat bo'lgan dizayn.

Bezak san'ati ning rivoji juda qadim zamonlardan boshlanib, xalq ijodining muhim sohasiga aylangan. U tasviriy san'at, badiiy hunarmandlik sohalari, shuningdek xalq ustalari, rassomlar, haykaltaroshlar, dizayn ustalari faoliyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Inson juda qadim zamonlardan boshlab o'z moddiy muhitini bezatish ishtiyoqida nafosatga institutilgan. Odamlar bo'yniga munchoq, barmog'iga uzuk, qo'liga bilaguzuk taqib o'zini bezatgan va kiyim-kechak, turar joylarini ko'rkamlashtirishga institutilgan. Bezak san'ati namunalari, ayniqsa, monumental bezak san'ati asarlari ko'pchilikning e'tiborida bo'ladi, u jamiyatniig didi shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Jamoat, ma'muriy bi-nolar, saroylar, tomosha zallari, restoran, choyxonalarda naqqoshlik, o'ymakorlikdan tashqari tasviriy san'at ko'rinishlari (devoriy rasm, mozaika, haykaltaroshlik asari, vitraj va boshqalar) bezak vazifasini o'tash bilan bir qatorda ma'lum ijtimoiy g'oyalarni ham targ'ib qiladi, ifodalaydi.

4-sinf o'quvchilari uchun dars jarayonida quyidagicha nazariy va amaliy tushunchalar beriladi. Naqsh – amaliy bezak san'atining eng ommalashgan turlaridan biridir. Xalq amaliy bezak san'ati deganda, ajdodlarimiz asrlar davomida yaratib kelgan hamda ustalarimiz tomonidan bugun ham davom ettirilayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari va amaliy san'at asarlarini tushunamiz. Turli xil naqshlar amaliy san'atning asosini tashkil qilib, ular uch turga: islimiy, girih va murakkab naqshlarga bo'linadi. Islimiy naqsh. Egri chiziqli o'simliksimon shaklli elementlardan tashkil topgan naqsh islimiy naqshlar – oygul, barg, novda, bofta, gajak, marg'ula kabi naqsh elementlaridan badiiylashtirilib (stilistik yo'l bilan) yaratiladi. Bunda elementlari o'simliklar, ularning gullari, barglari, novdalari, qushlar, hayvonlarning tasvirlarini stiliza tsiya qilish orqali naqsh elementlari hosil qilinadi.

Girih naqsh. To'g'ri chiziqli geometrik shakllar – uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, oltiburchak, sakkizburchak kabishakllardan tashkil topgan naqsh. Bu naqshlar ganchkorlikda, yog'och o'ymakorligida ko'p ishlatiladi. Murakkab naqsh. Islimiy va girih naqshlaridan aralash tarzda tuzilgan naqsh murakkab naqsh deyiladi. To'g'ri to'rtburchak naqsh yog'och o'yma kor

ligida ishlangan darvoza, eshik, ustun, ganchkor devoriy panno, gilam, so'zana, palak, quticha va sandiqlarni badiiy bezashda qo'llaniladi. Bu buyum lardagi naqshlar to'rtburchak asosida yaratilgan bo'lsa-da, naqsh elementlarining tuzilishi va joyla shishi, ishlanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bugungi darsimizda to'g'ri to'rtburchak shaklida naqsh chizamiz.

To'g'ri to'rtburchakning markazidan 7 sm o'lchamdagi aylana chizib olinadi. Hosil bo'lgan chiziqlarga mo'ljal olib bosqichma-bosqich barg, paxta, novda elementlaridan naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Naqsh elementlarini to'rtburchakning chorak qismida hosil qilib olgach, kalka qog'oz yordamida to'rtburchakning boshqa qismlariga ko'chirib tushi rilsa, naqsh kompozitsiyasining bo'laklari simmetrik tarzda bir xil chiqadi.

Naqsh kompozitsiyasi qalamda hosil qilib olingach, uni bo'yashga o'tishingiz mumkin. Bu jarayonda issiq va sovuq ranglar kontrastidan to'g'ri foydalanishga harakat qiling. Odatda, mayda elementlar, masalan, kompozitsiya markazidagi paxta va barg elementlari issiq ranglarga bo'yaladi. Namunadagi naqsh kompozitsiyasi simmetriyaga asoslangan, ya'ni kompozitsiyaning to'rtdan bir qismi simmetrik tarzda takrorlanadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga naqsh chizishni boshlashdan avval namunadagi naqshlarni diqqat bilan kuzatish tavsiya qilinadi. Keyin bosqichma-bosqich naqshning boshqa elementlariga rang berib chiqiladi. Oxirgi bosqichda gul va barglar targ'il berib yakunlanadi.

Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'ati turlari ayniqsa, naqsh turlari, ranglari o'ziga xos tomonlari, ishlash texnologiyasi hamda buyumlarga mos naqsh kompozitsiyalar tuzish va uni bezash usullari etarli darajada chuqur o'rgatib borilishi kerak. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan amaliy san'atini ko'z qorachigidek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish eng muhim vazifalaridan biridir.

**Adabiyotlar**

1. Bulatov S.S, Shabaratob P.P , Rasulov M.A. Naqqoshlik. Toshkent. 2010

2. A. Sulaymonov, I. Rahmonov, Z. Sulaymonova. Tasviriy san'at: umumiy o'rta ta'lim maktablari ning 4-sinfi uchun darslik. – T.: «Sharq», 2017

# BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHNING INTERAKTIV USULLARI

**Faxriyeva Dilnoza Davronovna**
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
32-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshalng'ich sinf o'quvchilarini o'qishga jalb etish bo'yicha fikrlar bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy uslub, tarixiy uslub, tahlil, ro'yxat.

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar bilan o'qitish metodikasi juda ko'p va bir-biridan qiziqarli. Har bir metod bo'yicha asosiy bilimlar bilan har bir o'quvchiga va ularning o'ziga xos ehtiyojlariga erishish uchun o'qitish uslubni o'zgartirib, tajriba qilish mumkin.

Qaysi usullar yordamida ularning zaxira nusxalarini yaratish kerakligini o'rganish uchun quyidagi ro'yxat va tahlilni ko'rib chiqishingiz mumkin:

1. O'qituvchi markazida

Ko'pincha o'qitishning an'anaviy uslublaridan biri, o'qituvchiga yo'naltirilgan metodika deb o'ylashadi, e'tibor o'qituvchiga qaratilgan. O'qituvchilar sinf uchun mas'uldir va barcha sinfdagi vaziyatni boshqaradi. Guruh ishi olib borilishi mumkin bo'lsa-da, ko'pchilik dars vaqtini o'qituvchi tushunchalarni tushuntirish va individual ishlarni topshirish bilan o'tkazadi. O'qituvchilarga yo'naltirilgan yondashuv strategik jihatdan bunga yordam bermaydi. Buning o'rniga, o'quvchilarning xatti-harakatlarini nazorat qilish ustuvor ahamiyatga ega. Bitta afzallik shundaki, xatti-harakatlarning muammolarini odatda ushbu muhitda boshqarish oson. Yana bir afzallik shundaki, o'quvchining mavzuni o'tkazib yuborishi kamdan-kam uchraydi, chunki o'qituvchi sinfda sodir bo'ladigan barcha narsalarni boshqaradi.

2. O'quvchilarga yo'naltirilgan / konstruktivistik yondashuv

Ushbu ro'yxatdagi ko'plab o'qitish usullari va strategiyalari o'quvchilarga yo'naltirilgan yoki konstruktivistik hisoblanadi. Oddiy so'z bilan aytganda, bu e'tiborni faqat o'qituvchiga emas, balki o'quvchilarga qaratadi. Ushbu yondashuvda bolalar kichik guruhlarda, kirish markazlarida o'tirishi va ehtimol sinf atrofida erkin harakatlanishi mumkin.

Геометрик материални ўргатиш вазифаларини ҳисобга олган ҳолда ўқитишнинг ҳар хил воситаларидан кенг фойдаланиш керак. Булар геометрик фигураларнинг рангли картондан ёки қалин қоғоздан тайёрланган демонстратсион, бутун синф учун мўлжалланган моделлари, фигуралар тасвирланган плакатлар, доскадаги чизмалар, диапозитивлар, кодонозитивлар, диафилмлардан иборат. Бундан ташкари индивидуал кўрсатма-қўлланмалар ҳам керак бўлади. Булар қоғоз полоскалар кўринишидаги тарқатма материаллар, фигуралар моделлари, қоғоз ва картондан қирқилган ҳар хил узунликдаги чўплар ва бошқа нарсалар бўлиши мумкин. Айрим темаларни ўрганишда ўқувчилар билан биргаликда қўлда кўрсатма-қўлланмалар тайёрлаш фойдали, булар тўғри бурчак модели, кўпбурчаклар моделлари (шу жумладан тўғри тўртбурчаклар ва квадратлар хам) ва бошк.а парсалардай иборат. Доскада чизмаларни бажариш учун чизмачилик ўлчаш асбоблари набори чизғич, чизмачилик циркули албатта синфда мавжуд бўлиши керак. Шундай асбоблар ҳар бир ўқувчида ҳам бўлиши керак.

Нуқта, тўғри чизиқ ва эгри чизиқ тўғри чизиқ кесмаси. Биринчи синфдан бошлаб Ўқувчиларда нуқта, тўғри чизиқ ва эгри чизиқ тўғри чизиқ кесмаси ҳақидаги тасаввурларни таркиб топтириш керак. Шуни эслатиб ўтамизки, «нуқта», «тўғри чизиқ» тушунчалари ҳозирги кунда ўқитилаётган мактаб геометрия курсининг асосий (таърифланмайдиган) тушунчаларидир.

Қалам учининг қоғоздаги изи, бунинг доскадаги изи нуқта ҳақида тасаввур беради.

Биринчи синф ўқувчиларида тўғри чизиқ ҳақиида тасаввурларни таркиб топтириш уларнинг ҳар хил амалий ишларни бажаришларида содир бўлади. Чизғич ёрдамида ҳам, бошқа усуллар билан ҳам тўғри чизиқ ясаш мумкин. Масалан, қоғоз варағини буклаш йўли билан тўғри чизиқ ҳосил қилиш мумкин, буклаш чизиғИ тўғри чизиқ бўлади. Бунда болалар диққатини шу фактга қаратиш муҳимки, қоғоз варағини ҳар хил йўналишда букилганда ҳам натижа бари бир бир хил бўлиб, тўғри чизиқ ҳосил бўлади. Доскада тўғри чизиқ вазиятини ўзгартириш, яъни уни горизонтал, вертикал ва қия ҳолда чизиш муҳимдир.

Болаларни тўғри чизиқ билан таништириш билан бир вақтда уларни эгри чизиқ билан ҳам

(таққослаган холда) таништириш керак. Масалан, агар таранг тортилган ип доскада тўғри чизиқ изини қолдирган бўлса, энди шу ипни бўшатиб салқи ҳолга келтирилса, у қолдирган из эгри чизиқ ҳақида тасаввур беради. Ўқувчилар атроф мухитдан эгри ва тўғри чизиқларни излаш бўйича ҳам машқ қилдирилади (синф доскасининг чеккалари, абажурнинг четлари ва хоказо).

Хулоса килиб айтиш жоизки,бошланғич математика дастурида геометрик материал катта ўринни олади. Геометрик материални ўрганишнинг асосий мақсади геометрик фигуралар (нуқта, тўғри ва эгри чизиқ, тўғри чизиқ кесмаси, синиқ чизиқ, кўпбурчак, айлана ва доира) ҳақида уларнинг элементлари ҳақида, фигуралар ва уларнинг элементдари орасидаги муносабатлари ҳақида, уларнинг баъзи хоссалари ҳақидаги тасаввурларнинг тўла тизимини таркиб топтиришдан иборат.

**Фойдаланилган адабиетлар**

1. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари. Бошланғич таълим "Таълим тараққиёти" журнали, Тошкент "Шарқ", 1999, 7 - сони

2. Л.Ш.Левенберг ва бошқлар. "Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси" Тошкент "Ўқитувчи"

3. Н.У.Бикбаева ва бошқалар. "Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси" Тошкент "Ўқитувчи" 1996 йил.

# ОБУЧЕНИЕ ЗДОРОВОМУ ОБРАЗУ ЖИЗНИ ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ

**Саидова Сайёра Усмонходжаевна**
Дефектолог Многопрофильного специализированного
дошкольно-образовательного учреждения
522 Алмазарсково оню

**Аннотация:** В статье подробно описана коррекционная работа, проводимая в общеобразовательных школах по обучению детей с ограниченными возможностями, то есть детей с аутизмом, здоровому образу жизни.

**Ключевые слова:** практическая деятельность, здоровый образ жизни, аутизм, медицинские знания, практические навыки.

Во всех развитых странах здоровье считается самым важным человеческим достоянием. Здоровый человек имеет большую власть в любом обществе, играет творческую роль, является источником интеллектуальных и физических способностей. Здоровье является важной частью образа жизни человека и важным фактором в его профессиональном и творческом росте.

В то время, когда молодые люди находят своё место в жизни и самостоятельно развиваются, важно прививать им здоровый образ жизни.Поэтому концепция улучшения здоровья подрастающего поколения должна быть направлена на кардинальное изменение отношения молодежи к своему здоровью, формирование потребности в физических нагрузках и организацию здорового отдыха. По этому поводу в нашей Республикеосуществляются большие работы. В частности, помимо определения принципов здорового образа жизни среди молодежи, непосредственно задействована система специального образования для детей с особыми потребностями. Среди детей, нуждающихся в особом уходе, есть дети с аутизмом. **Аутизм** (с греческого «***autos***» - ***сам*** ) - противоречивый термин, который был введен 40 лет назад, но некоторые утверждали, что человеку (обычно ребенку) можно поставить диагноз «***аутизм***»..Главный симптом этого заболевания - затрудненное общение ребенка; воздержание от взаимодействия с другими людьми, как если бы он жил в своем собственном мире. Хотя у некоторых есть аутичные ограничения, они демонстрируют замечательную способность сосредотачиваться на конкретном предмете (например, рисовании), в то время как другие впадают в «нормальное» состояние.Однако в мире до сих пор нет лекарства от данной болезни. Аутизм - это заболевание нервной системы. Данный порок может повлиять на детей по-разному.Некоторые ученые считают аутизм одним из симптомов психического заболевания, при котором ребенок становится равнодушным к своему окружению. В результате они не общаются с другими.Ребенок живет сам по себе, со своим волнением, горем и тревогой.У некоторых детей существуют эмоциональные проблемы. Они могут быть подавленными или тревожными; или их поведение неестественно, о чем свидетельствует их неуместный плач или смех. Основные симптомы аутизма проявляются в возрасте от 1 до 3 лет. Родителям следует обратить внимание на следующие признаки: *недоразвитая речь трёхлетнего ребенка; ему больше нравится быть одному, чем с кем-либо; нежелание общаться с окружающими, отсутствие интереса, ребёнок не смотрит вам в глаза; действия ребёнка, жесты ничего не значат, проявляют нервозность; ребёнок говорит тоном, без выражения, как бы выражая заученный текст,необычные реакции восприятия (звук, запах, вкус, ощупывание), например, сильный страх звука , некая скрытая депрессия и т. д.*

Врезультате ознакомления с проводимой в некоторых вспомогательных школах коррекционнойработойпообучениюздоровомуобразужизнидетейсособымипотребностями можносделать следующие выводы: одних только занятий по здоровью недостаточно, чтобы помочь детям с особыми потребностями развития навыков здорового образажизни. Хотя возможности учеников вспомогательной школы ограничены, обеспечение их физического здоровья - одна из важнейших задач, стоящих перед школой. Аутизм – это состояние, проявляющееся в большинстве случаев в психологическом заболевании как ***шизофрения***. Ребёнок не воспринимает время, меняет текущие события прошедшими или будущими временами, путает реальные события с фантастическими абстрактными. В состоянии

аутизма активность ребёнка замедляется или он занимается ненужными, неопределенными действиями.В настоящее время детский Аутизм изучается как самостоятельное заболевание появляющееся от недостатков развития головного мозга. Однако причины дефектов развития мозга до сих пор не выяснены. Некоторые исследователи считают, что детский аутизм является наследственным заболеванием, в то время как другие говорят, что аутизм вызван умственной отсталостью. В случае детей с аутизмом важно, чтобы педагоги, логопеды, психологи правильно организовали повестку дня ребенка.Желательно координировать деятельность ребенка, приближать его к детям в группе, проводить последовательную психотерапевтическую разъяснительную работу. Педагогам и логопедам необходимо проводить с родителями разъяснительные работы.Не уделять слишком много внимания ребенку. Убедитесь, что ребенок в семьечувствует себя как все. Поощрять ребенка делать то, что он может, хвалить его за проделанную работу и поддерживать ребенка. П е р с о н а л дошкольного учреждения должен создавать для ребенка комфортную среду и помогать ему социально адаптироваться, сохраняя при этом хорошее отношение к нему.

В заключение следует отметить, что обучение детей, нуждающихся в особом уходе, в том числе детей с аутизмом, правильным физическим упражнениям, имеет большое физиологическое значение и является эффективным средством предотвращения болезней. Регулярные физические нагрузки положительно влияют на двигательные и функциональные возможности ребенка, нуждающегося в особом уходе, так как являются основой для укрепления качеств хорошего настроения, высокой активности, нравственного равновесия.

**Литература.**

1. Хрипкова А.Г., Колесов Д.В. Гигиена ва саломатлик. – Т.: 1986.
2. Пўлатова П.М. Махсус мактабларда экологик таълим ва тарбия бўйича ҳаракат дастури – Т., 2004.
3. В. С. Рахманова. Дефектология асослари» – Т.: 2012.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEAMTIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

**Sharopova Gulnoza Yusupovna**
Qiziltepa tumanidagi 12-maktabning
boshlangich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf ta’limiga bo‘lgan e’tiborning oshishi yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sishida muhum ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda ularning nutqiy faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik bilim va malakasini yetarli o‘zlashtirishida nutqning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Nutq**,**masala, misol, topshiriq. og‘zaki nutq malakasi, amaliy tajriba, kommunikativ kompetensiyada, kommunikativlik, pisixofiziologik xususiyat.

Kichik yoshdagi o‘quvchining so‘z boyligi juda kichik. Shu bilan birga unda bog‘lanishli nutq ham hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchining diqqati kengaygan sari, nutqi ham rivojlanib boradi. Boladagi nutqiy ko‘nikmani rivojlantirish uchun turli mazmundagi topshiriqlar majmuini ishlab chiqish, unga ko‘proq og‘zaki va yozma nutqdan foydalanish usullarini o‘rgatish zarur. Yuqoridagi amaliy mashqlardan o‘quvchi qancha ko‘p foydalansa, uning nutqi shuncha tez rivojlanadi. Bu masalani hal qilishda o‘qituvchi nutqi yetakchi o‘rinda turadi. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari birinchi navbatda sinf o‘qituvchisiga, to‘g‘rirog‘i, uning nutqiga taqlid qilishadi, u kabi so‘zlashga harakat qiladi.

Afsuski, bugungi kunda oramizda og‘zaki nutq malakasi yaxshi rivojlanmagan, so‘z boyligi kam, nutqi ravon bo‘lmagan o‘qituvchilar ham uchrab turadi. O‘quvchini ravon so‘zlashga o‘rgatishdan oldin, o‘qituvchi o‘z nutqi ustida ham alohida ishlashi lozim.

O‘quvchining nutqqa bo‘lgan ehtiyoji faqat ona tili, o‘qish darslarida emas, balki matematika darsida ham seziladi. Matematika darsida beriladigan har bir tushuncha matematik tilda berilishi va o‘qitilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori bo‘yicha ishlab chiqilgan Xalq ta’limi vazirligining 2017-yil 3-iyunda 190-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan o‘quv dasturiga kiritilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarda ham matematik nutq alohida qayd etilgan.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyada** – matematikaga oid atamalarning ma’nosini tushunib, to‘g‘ri o‘qiy olish; so‘z va gaplarni bog‘lagan holda o‘z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish; matematik matn ma’nosini qayta so‘zlab bera olish; matematik qoidalarni yoddan ayta olish; matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish, tegishli munosabat bildira olish; matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasida kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish; **milliy va umuminsoniy kompetensiya** – zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimizning matematikaga qo‘shgan hissasini tasvirlab berish kabi tayanch kompetensiyalar boshlang‘ich matematika fani negizida berilgan.

Bundan tashqari, matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi ham dastur mazmuniga kiritilgan.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

- o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy

qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;
- inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.
- Amaliy-tajriba va sinov mashqlarida matematika darslarda kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechilishi lozim.

Yuqorida belgilangan maqsad va vazifalrni amalga oshirish uchun ham matematik nutqqa bo'lgan ehtiyoj alohida ahamiyatga ega. Dastur mazmunidan kelib chiqib yuqoridagi talablarni amalga oshirish uchun avvalo fan o'qutuvchisi har bir dars mashg'ulotida matematik nutqni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab borishi kerak bo'ladi. Dars davomida nutqni o'stiruvchi mashqlardan, didaktik o'yinlardan va interfaol usullardan samarali faydalanishi ham yaxshi natija beradi.

6-7 yoshdagi bola juda o'yinqaroq bo'ladi. Shuning uchun uyda yoki bog'chada ular bilan o'yin o'ynashga, mashg'ulotni o'yin tarzida o'tkazishga to'g'ri keladi. Chunki o'yin ularning ko'rish, eshitish va idrok qilish uquvini o'stiradi, predmetlarning shakli, katta-kichikligi, rangini ajrata bilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'yinlar nafaqat predmetning shakli yoki rangini ajratishga, balki yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning nutqi, tafakkurining rivojlanishiga ham yordam beradi. 1-2-sinf matematika darslarida "Ifoda tuz va ayt", "Qiymatini top", "Ifodani matematik tilga aylantir", "Matematik tilda so'zla" kabi didaktik o'yinlar aynan nutqni o'stirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda matematika darslarini didaktik tamoyillari asosida o'tish o'quvchining matematik bilim va malakasini yetarli o'zlashtirishiga, unda matematika darslarida matematik tushunchalarni shakllanishida katta yordam beradi. Shuningdek, daslarni o'tilishida o'qituvchi tomonidan didaktik tamoyillarga amal qilinishi, darsga o'quvchini qiziqtirishi, faolligi oshirishi, o'tilayotgan dars o'quvchiga chuqurroq bilim olishga yordam berishi inobatga olinishi kerak. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisidan pedagogik mahorat, o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Albatta bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sinfidagi har bir o'quvchini pisixofiziologik xususiyatini, bilish faoliyatini hisobga olgan holda ta'limiy didaktik pirinsiplarni qo'llab borishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.E.Jumaev va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv – uslubiy majmua (II qism).,Toshkent-2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
3. Xalq ta'limi Vazirligining 2017-yil 3-iyunda 190-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan boshlang'ich ta'lim fanlari o'quv dasturi.

# O'QUVCHILARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA O'QISH KITOBLARINING AHAMIYATI

**Sharipova Madina G'aybullayevna**
Navoiy shahar AFCHO'IM 16-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotasiya:** Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib borishi bilan bir qatorda talab ham shunga qarab bormoqda.Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish kitoblaridagi Vatanga muhabbat mavzusining rang-barang janrda ifodalanishi ochib beriladi.
**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, Vatan tushunchasi, Vatanparvarlik.

Ta'lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda – o'sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma'naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot, boshlang'ich sinflarda o'qish kitoblariga teng keladigan soha yo'q, deb ayta olamiz. Negaki, ulardagi namunalar alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. Jumladan, boshlang'ich sinf o'qish kitoblari o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanishida, ulug' insoniy qadriyatlarni bolalik xotiralaridayoq muhrlanishiga beqiyos xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchining kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi ruhiy, ta'limiy-tarbiyaviy asos yaratiladi. Jumladan, o'zbek adabiyotining mumtoz va zamonaviy namunalaridan parcha berilayotgani yosh avlod badiiy olamini boyitishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, vatanparvarlik mavzusiga oid adabiy-badiiy namunalarni boshlang'ich sinflardayoq o'rgana boshlagan, ularni mutolaa qilish ko'nikmasi shakllangan o'quvchilarning kelajakda ma'naviy boy, har tomonlama yetuk tafakkurli insonlar bo'lishiga shubha yo'q. Xususan, boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida Vatan va vatanparvarlik mavzusi alohida ko'zga tashlanadi. Aslida ham Vatan tushunchasi va uni madh etish bir asr ilgariyoq jadid adabiyoti, matbuoti, hatto, boshlang'ich sinf darsliklarida, ma'rifatparvarlar faoliyatida ommalashgani ma'lum. Ya'ni, yosh avlod ong-u shuurida Vatanga muhabbat tuyg'usini shaklantirish bosh maqsadga aylangan edi.

Boshlang'ich sinflarda, xususan, o'qish kitoblaridagi Vatanga muhabbat ham shu ma'noda, sinfdan sinfga o'tilgani sayin teranlasha boradi. Ularning janriy ifodasi, mavzulari kengayib, mazmuni chuqurlashadi. Shu sababli 2-sinf "O'qish kitobi"dagi "Ona yurtim–oltin beshigim"; 3-sinfdagi "Ona bitta, Vatan yagona", "O'tmishni o'rganish–burchimiz", "Vatan posbonlari", "Ulug'lardan o'rganmoq–oqillik"; 4-sinfdagi "O'zbekiston–Vatanim manim", "Vatanimiz o'tmishidan", "Ajdodlarimiz–faxrimiz" kabi bo'limlari hamda ulardagi adabiy-badiiy namunalar, ilmiy-ommabop matnlar e'tirofga loyiq. Ta'kidlash joiz, darsliklarning turli yillardagi nashrlarida mualliflar va matnlar o'zgarib boradi, ammo, mavzu, bo'limlar aynan o'z mohiyatini saqlab qoladi. Binobarin, Vatanga muhabbat har bir sinfda, har bir nashrda o'ziga xos mazmun-mohiyat bilan talqin etiladi. Jumladan, 3-sinf o'qish kitobidagi "Ona bitta, Vatan yagona" bo'limining avvalgi (2008) nashrida dastlab davlat ramzlari berilgan, o'quvchilar bayroq va gerb haqidagi bilimga ega bo'lgach, Abdulla Avloniyning "Vatanni suymak" matni bilan tanishgan bo'lsalar, o'qish kitobining amaldagi (2012) nashrida esa bu mundarija qisman o'zgargan. Davlat ramzlari haqidagi ma'lumot o'rniga, E.Malikovning "Vatanimiz gerbi–tug'ro haqida ertak" asarining o'zi qoldirilgan. E.Malikov gerb – tug'roda aks etgan rasmlar, ramzlarni badiiy-tasviriy ifodalar orqali ertak shaklida bayon qilgan. A.Abdurazzoqning "Vatanni suymak" she'ri esa avvalgi nasrdagi A.Avloniy matni o'rnini to'ldirgan. Vatan tushunchasi yanada teranroq talqin etilgan ayrim matn va maqolalar, she'rlar esa darslikning yangi nashrida ham saqlangan. Zero, "Bayramingiz qutlug' bo'lsin"(D.Kamoljonova), "Vatan mo'tabardir" (Xurshid Davron), "Ona-Vatan"(Muhabbat Hamidova) kabi matnlar bir tushunchaning rang-barang usuldagi jilolaridir. Aytaylik, "Vatan mo'tabardir" matni tarixiy rivoyat bilan yanada ta'sirchan ifoda etilgan. Matn tushunarli, aniq detallarni o'quvchi ko'z oldiga keltirish bilan boshlanadi. Ya'ni havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik muqaddas va azizligi 1-2-sinflarda to'la anglatiladi. Yozuvchi X.Davron Vatanning ham ana shunday mo'tabarligini eslatib, u ona-tuproqdan boshlanishini ta'kidlaydi. Vatanga muhabbat uning har bir qarich yeriga mehr qo'yish bilan boshlanajagini uqdirmoqchi bo'lgan adib, quyidagi rivoyatni keltiradi: "Qadimda dushmanlar turk davlatining xoqoni O'g'uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qilishadi.

Bobomiz shunda: "Vatan yolg'iz bizning mulkimiz emas. Mozorga yotgan otalarimiz va endi tug'ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir.

Vatandan ozgina bo'lsa ham, bir qarich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo'qdir",– deb javob beradilar."[1]

Shu tariqa, o'quvchilar Vatanni sevishni dono bobolardan o'rganish, Vatan haqiqatan, ona kabi muqaddas, yagona va bebaho ekanligini anglab yetadilar. Matn ostida berilgan savollar, "Ona yerning tuprog'i ona sutidek aziz" maqoli mazkur mavzuni mustahkamlashda zarur vosita bo'la oladi. Natijada, o'quvchilar boshlang'ich sinflardayoq ona-Vatanni ardoqlash, uni madh etishdan tolmaydigan bo'lib ulg'ayadilar. Ularning tiniq ong-u shuuriga avvalo, o'zlari tug'ilib voyaga yetgan go'shaga nisbatan cheksiz muhabbat ruhi singdirilsa, kelajakda Yurtning chinakam fidoyisi bo'lib kamol topishi tayin. Bunday mavzularni o'tishda esa o'quvchilarga xalqimiz, yurtimiz tarixidan ixcham hikoyalar so'zlab berish, tarixiy shaxslar haqidagi bilimlarini yanada boyitish foydadan xoli bo'lmaydi. Masalan, quyidagi ma'lumotlar ilmiy asosga ega: "O'zbek degan so'z eng boshida – ilk bor paydo bo'lganida ot turkumidagi emas, sifat turkumiga oid, xuddi turk so'zining ma'nodoshi bo'lib, o'ziga ishonuvchi, mustaqil fikrlovchi va ish tutuvchi, botir, mard, yovqur, chekinmas singari fazilatlarni anglatgan. Shunday fazilatlarga ega er kishilar o'zbek deb olqishlangan. Olis ajdodlarimiz yaxshi niyat bilan o'g'illariga O'zbek deb ot qo'ya boshlaganlaridan beri bu so'z sifat turkumidan ot turkumiga ko'chib o'tgan va asosan, kishi ismini yoki taxallusini anglatuvchi so'z tarzida qo'llanila boshlagan.

Tarixiy shaxs O'zbekxon nomi ham aslida taxallus, uning asl ismi Sulton Muhammadxondir. Xalqimizning asosiy qatlami esa Alp Er To'nga, O'g'uzxon zamonlarida, undan ham ko'p asrlar avval – qadim-qadim davrlardan buyon Turonzaminda tubjoy xalq bo'lib yashab kelmoqda. XV-XVI asrlardan e'tiboran xalqimiz o'zini o'zbek deb, Turon, Turkiston deb yuritilib kelingan vatanimizning nomi esa O'zbekiston deb nomlana boshladi.

Darhaqiqat, 3-sinf o'quvchilarining o'z xalqi tarixi, ajdodlari o'tmishidan voqif bo'la borishi zarur ahamiyatga ega. Va aytish joizki, o'qituvchi innovatsion faoliyatida turli metodik usullar bilan birga, mavzuga doir qo'shimcha ilmiy-nazariy manbalar, ma'lumotlardan samarali foydalana olish ham muhim rol o'ynaydi.

M.Hamidovaning "Ona-Vatan" maqolasi ham shu mavzuga bag'ishlangan bo'lsa-da, u publitsistik uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda dalillarning aniqligi, ijtimoiy fikrning yetakchiligi, muallifning real ijtimoiy voqelik haqida hikoya qilishi janr xususiyatini belgilaydi. Maqolada O'zbekistonning bugungi kamoli, boyliklari, fabrikalari, xalq xizmati uchun bunyod etilgan qulayliklar tilga olingan. Ayniqsa, Asaka shahridagi ulkan avtomobil zavodining ishga tushib, u yerdan "Matiz", "Neksiya", "Lasetti" kabi yengil avtomobillar chiqishi; Samarqanddagi SamAvto zavodida esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilishi ta'kidlangan. "*Vatanimiz bizni,–* uqdiradi muallif*,– onamiz kabi o'zining issiq bag'rida mehr bilan erkalaydi, sevib ardoqlaydi, voyaga yetkazadi, kamol toptiradi. Shu sababli ham biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, ardoqlaymiz. Uning nomini ona-Vatan deb ataymiz*."

Ta'kidlangan jumlalardan ayonlashadiki, inson o'zi tug'ilib o'sgan joyi – ona-Vatani hisoblanadi, uni "suymak" farz ham qarzdir.

Zotan, boshlang'ich sinf o'qish kitoblaridagi Vatanga muhabbat mavzusining rang-barang janrda ifodalanishi mustaqillik yillaridagi o'qish kitoblarining yangi avlodiga xos hodisa bo'lsa-da, bu bir asr ilgarigi an'ananing o'ziga xos tamoyillar bilan qayta tiklangani shahodatidir. Bu vorisiylik bejiz emas, albatta. Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, Vatanini suygan kishi uni o'z onasidek, bolasidek asrab avaylaydi, sadoqat ko'rsatadi, har bir ezgu ishini unga baxshida etadi.

**Adabiyotlar**

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent, "Ma'naviyat", 1998, 55-b.
2. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent, "Sharq", 2013. 17-b.
3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'zbekiston", 2012. –B.12-13.

[1] M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboyeva. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'zbekiston", 2012. –B.12-13.

# BOSHLSNGICH SINF ONA TILI VA O‘QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Rustamova Nilufar Abduraimovna**
Navoiy shahridagi AFCHO‘IM 16- maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

**Annotasiya:** Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham boshlang‘ich sinfni o‘qitishga bo‘lgan e’tibor kundan – kun kuchayib bormoqda. Mazkur maqolada maktablarda boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishni ilg‘or pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etishning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiyalar, vazifa,ta’lim , didaktika, o‘qish ,yozish bo‘g‘in,so‘z ma’nosi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Unda: “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi”[1],- deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llari ham ko‘rsatilgan. Ta’lim berish ilg‘or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash umumiy o‘rta ta’limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, tarqatma materiallar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Davlat ta’lim standartlari talabi ham bu sohada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlat ta’lim standartlari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida tuzilgan bo‘lib, unda mutaxassislar tayyorlashda umumjahon talablari asos qilib olingan. Standart talablari asosida ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiya talablariga asoslanish, ta’limni jahon taraqqiyoti darajasida tashkil qilish imkoniyati mavjud. Maktabda bolalarni o‘qishga o‘rgatishdan maqsad og‘zaki nutq yuzasidan o‘quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko‘rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir. Umumiy ta’lim maktablarining asosiy vazifalari yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo‘llash malakalarini hosil qilishdir[7]. Boshlang‘ich ta’limda ona tili predmeti bolani mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, ularning tilning kommunikativ (aloqa-aralashuvga xizmat qilishi) vazifasini; o‘z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilish, o‘zgalar nutqini eshitish orqali anglay olishlariga xizmat qiladi.

Birinchi sinfda ona tilini o‘qitish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi, grammatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilmog‘i lozim. Ona tili darslarida o‘quvchilar “Tovushlar va harflar”, “Bo‘g‘in” “So‘z ma’nosi”, (“Shaxs va narsani bildirgan so‘zlar”, “Belgini bildirgan so‘zlar”, “Harakatni bildirgan so‘zlar”, “Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar”) “Nutq va gap” kabi bo‘limlar asosida tilga oid elementar bilimlarni egallaydilar. Bunda, asosan, grammatik tushunchalarni amaliy o‘rgatishga e’tibor qaratilgan. O‘quvchi mashq matnini o‘qish va yozish jarayonida grammatik tushuncha va qoidalarni amaliy bajarib boradi va keyingi sinflarda bu qoida va tushunchalarni nazariy o‘rganishga zamin yaratadi.

Asosiy diqqat bolaning nutqi va lug‘at boyligini oshirish, imlo savodxonligini tarkib toptirish, ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish ko‘nikmasini shakllantirish, ona tili darslarini samarali tashkillashtirishga qaratiladi. Shuningdek, ona tili darslarida o‘quvchilarning chiroyli yozuviga e’tabor qaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki birinchi sinfdan boshlaboq o‘quvchilarning chiroyli yozuviga e’tabor qilinsa, yuqori sinflarda va hayoti davomida inson did bilan chiroyli

[1] Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент “Шарқ” нашриёти, 1998, 43-бет.

yozish malakasiga ega bo‘ladi.[1]9

O‘qituvchi o‘quvchilarni har qanday vazifani ongli bajarishga maxsus o‘rgatadi. Shu maqsadda darslikda birinchi uchragan mashqlarni bajarish uchun shu mashq topshirig‘ini nechta qismdan iboratligini va ularni qaysi tartibda bajarish zarurligini o‘quvchilarga tushuntiradi. Mashqni sinfda yoki uyda bajarganda avval nima qilish kerakligini, topshiriqlarni bajarish tartibini aniqlab olish va tavsiya qilingan tartibda bajarish zarurligi uqtiriladi; o‘quvchilar o‘zlari bajargan ishlarning to‘g‘riligini tekshirishga o‘rgatiladi. Mashqlarni ongli bajarish bilan o‘quvchilar mashqni nima uchun, qanday maqsadda ishlaganlarini va u nimalarni o‘rgatishini tushunadilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga ona tilini samarali o‘rgatish uchun ularni tilni o‘rgatishga qiziqtirish,ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish va aqliy faoliyatlariga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish, xususan o‘quvchilarga materialni o‘zlashtirish ussullarini o‘rgatish zarur.Shunda ular yuqori sinf bolganlarida tilning grammatik savodxonliklarini chuqur o‘rganadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009, 351.

2. Qo‘ziyev F. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti. 1988, 100.

3. Roziqov O., Maxmudov M. Ona tili didaktikasi. Toshkent “Yangi asr avlodi”,2005, 387.

1 2G‘ulomova X., G‘affarova T. 1-sinfda ona tili darslari. O‘qituvchi kitobi. Toshkent. “Sharq”. 2003, 5-bet.

# ALGORITMLAR VA ULARNING XOSSALARI.

**Abruyeva Sanobar Abduvaliyevna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
12-umumiy o'rta ta'lim
maktabi informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Algoritm bu oldimizga qo'yilgan masalani yechish zarur bo'lgan amallar ketma-ketligidir. Algoritm so'zi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bog'liq. Algoritm so'zi Al-Xorazmiy nomini Yevropa olimlari tomonidan buzib talaffuz qilinishidan yuzaga kelgan. Al-Xorazmiy birinchi bo'lib o'nlik sanoq sistemasining tamoyillarini va undagi to'rtta amallarni bajarish qoidalarini asoslab bergan.

**Kalit so'zlar.** Funksiya, blok-sxema, grafik, Natijaviylik, kasrlar, Ommaviylik, Aniqlik, Diskretlilik, Al-Xorazmiy, Algoritm.

Algoritmning asosiy xossalari. Algoritmning 5-ta asosiy xossasi bor:Diskretlilik (Cheklilik). Bu xossaning mazmuni algoritmlarni doimo chekli qadamlardan iborat qilib bo'laklash imkoniyati mavjudligida. Ya'ni uni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib qo'llay olmasak, uni algoritm deb bo'lmaydi. Tushunarlilik. Biz kundalik hayotimizda berilgan algoritmlar bilan ishlayotgan elektron soatlar, mashinalar, dastgohlar, kompyuterlar, turli avtomatik va mexanik qurilmalarni kuzatamiz. Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar, uning uchun tushinarli mazmunda bo'lishi shart, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Undan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin.Har bir ijrochining bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar yoki buyruqlar majmuasi mavjud, u ijrochining ko'rsatmalar tizimi (sistemasi) deyiladi. Demak, ijrochi uchun berilayotgan har bir ko'rsatma ijrochining ko'rsatmalar tizimiga mansub bo'lishi lozim.Ko'rsatmalarni ijrochining ko'rsatmalar tizimiga tegishli bo'ladigan qilib ifodalay bilishimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyi sinfning a'lochi o'quvchisi "son kvadratga oshirilsin" degan ko'rsatmani tushinmasligi natijasida bajara olmaydi, lekin "son o'zini o'ziga ko'paytirilsin" shaklidagi ko'rsatmani bemalol bajaradi, chunki u ko'rsatma mazmunidan ko'paytirish amalini bajarish kerakligini anglaydi.Aniqlik. Ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi zarur. Chunki ko'rsatmadagi noaniqliklar mo'ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi. Odam uchun tushunarli bo'lgan "3-4 marta silkitilsin", "5-10 daqiqa qizdirilsin", "1-2 qoshiq solinsin", "tenglamalardan biri yechilsin" kabi noaniq ko'rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bundan tashqari, ko'rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko'rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmda ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

Ommaviylik. Har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o'rinli bo'lishi kerak. Ya'ni masaladagi boshlang'ich ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar algorim shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqli bo'lishi kerak. Masalan, ikki oddiy kasrning umumiy mahrajini topish algoritmi, kasrlarni turlicha o'zgartirib bersangiz ham ularning umumiy mahrajlarini aniqlab beraveradi. Yoki uchburchakning yuzini topish algoritmi, uchburchakning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning yuzini hisoblab beraveradi.Natijaviylik. Har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so'ng albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko'p bo'lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan so'ng qo'yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko'rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb atay olmaymiz.Algoritmning tasvirlash usullari.Yuqorida ko'rilgan misollarda odatda biz masalani yechish algoritmini so'zlar va matematik formulalar orqali ifodaladik. Lekin algoritm boshqa ko'rinishlarda ham berilishi mumkin. Biz endi algoritmlarning eng ko'p uchraydigan turlari bilan tanishamiz.Algoritmning so'zlar orqali ifodalanishi. Bu usulda ijrochi uchun beriladigan har bir ko'rsatma jumlalar, so'zlar orqali buyruq shaklida beriladi.Algoritmning formulalar bilan berilish usulidan matematika, fizika, kimyo kabi aniq fanlardagi formulalarni o'rganishda foydalaniladi. Bu usulni ba'zan analitik ifodalash deyiladi. Algoritmlarning grafik shaklida tasvirlanishida algoritmlar maxsus geometrik figuralar yordamida tasvirlanadi va bu grafik ko'rinishi blok-sxema deyiladi. Algoritmning jadval ko'rinishda berilishi. Algoritmning bu tarzda tasvirlanishdan ham ko'p foydalanamiz. Masa-

lan, maktabda qo'llanib kelinayotgan to'rt xonali matematik jadvallar yoki turli xil lotereyalar jadvallari. Funksiyalarning grafiklarini chizishda ham algoritmlarning qiymatlari jadvali ko'rinishlaridan foydalanamiz. Bu kabi jadvallardan foydalanish algoritmlari sodda bo'lgan tufayli ularni o'zlashtirib olish oson.Yuqorida ko'rilgan algoritmlarning tasvirlash usullarining asosiy maqsadi, qo'yilgan masalani yechish uchun zarur bo'lgan amallar ketma-ketligining eng qulay holatinni aniqlash va shu bilan odam tomonidan programma yozishni yanada osonlashtirishdan iborat. Aslida programma ham algoritmning boshqa bir ko'rinishi bo'lib, u insonning kompyuter bilan muloqotini qulayroq amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Informatika va programmalsh.O'quv qo'llanma. Mualliflar: A.A.Xaldjigitov, Sh.F.Madraximov, U.E.Adambayev, O'zMU, 2005 yil

2. Pascal tilida programmalash bo'yicha masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. Mualliflar: A.A.Xaldjigitov, Sh.F.Madraximov, A.M.Ikromov, S.I.Rasulov, O'zMU, 2005 yil

3. www.ziyouz.com

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.

**Adamboeva Sharofat Yuldashovna**
Xorazm viloyati shovot tumani 40-son umumiy
o'rta ta'lim maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi.
Email:sharofat40maktab@umail.uz
**Nurmetova Diyora Baxtiyor qizi**
Xorazm viloyati shovot tumani 46-son umumiy
o'rta ta'lim maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi.
Email:diyora46maktab@umail.uz
**Sharipova Shaxlo Baxramovna**
Xorazm viloyati shovot tumani 24-son umumiy
o'rta ta'lim maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi.
Email:shaxlo24@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan dan qanday foydalanish,uning o'quvchi yoshlarni bilim olishidagi o'rni va innovatsion texnologiyalarni qator ko'rsatkichlari bo'yicha turlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Samarali ta'lim nima? Ko'p yillar davomida o'qitish metodikasida o'quvchilarning o'quv-ma'rifiy faoliyatini faollashtirishga yordam beradigan yangi o'qitish usullari izlanmoqda. Bunday faoliyatning ko'rsatkichlari turli xil ta'lim tadbirlarini amalga oshirishda bilim va mustaqillikka erishish uchun doimiy qiziqish bo'lishi kerak edi.

Innovatsiya-bu jarayonga yangi metodologiyalar va standartlarni kiritish. Itoatkorlik, takrorlash, taqlid qilish o'rniga yangi talablar paydo bo'ladi: muammolarni ko'rish, ularni xotirjam qabul qilish va mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati. Bu hayotning barcha sohalariga taalluqlidir: uy, ijtimoiy va professional. Innovatsion ta'lim yangi bilimlarni yaratish jarayonida o'rganishni o'z ichiga oladi-fundamental ilm-fan integratsiyasi orqali, to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayoni va ishlab chiqarish. U bilan ta'limning asosiy modernizatsiyalash omili sifatida rivojlanayotgan ta'limning yangi asoslarini olib boradi. Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya-yangi maqsadlar, mazmun, ta'lim va tarbiya usullari va shakllari, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishni anglatadi. Innovatsion faoliyatning maqsadi an'anaviy tizimga nisbatan talabaning shaxsiyatini sifatli o'zgartirishdir. Bu pedagogik inqirozni bartaraf etishni nazarda tutadigan kasbiy faoliyatga noma'lum didaktik va ta'lim dasturlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Harakatlarni rag'batlantirish, olingan ma'lumotlarga mustaqil ravishda rahbarlik qilish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada oshkor qilish orqali bolalarni rivojlantirish, ilm — fan va amaliyotning so'nggi yutuqlaridan foydalanish-innovatsion faoliyatning asosiy maqsadlari. O'qitish uslubini tanlashda o'qituvchining e'tiqodlari uning bilimlaridan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quv jarayonida sinfda qilgan barcha ishlariga ta'sir qiladi, yangi g'oyalarni qabul qilish e'tiqodlari, shuning uchun oldin va keyin o'qitish metodologiyasini to'liq qayta ko'rib chiqadi. Jamiyatning o'qituvchiga bo'lgan zamonaviy talablari o'qituvchi doimo o'z-o'zini tarbiyalash, o'z imkoniyatlarini kengaytirish bilan shug'ullanishi kerak. U tez o'zgarishi va darslarda yangi yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashi kerak. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi vaqtni saqlab turishi kerak.

Biroq, an'anaviy va innovatsion usullarni bir-biriga qarshi tura olmaysiz, chunki bilimlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ular murakkab qo'llanilishi kerak. Odatda, innovatsion usullar o'quvchilar an'anaviy usullar bilan olingan zarur bilimlarga ega bo'lganda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, o'qitishning innovatsion usullari o'qituvchining rolini o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Endi u ma'lumot olishda maslahatchi sifatida ishlaydi.

Zamonaviy maktab ta'limida pedagogik innovatsiyalar:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) fan o'qitishda.

Maktablarda AKTni qo'llash tajribasi shuni ko'rsatdiki:

a) bolalarda fan fanlarini o'rganishga, ayniqsa, loyiha usulidan foydalanishga turtki bo'ladi;

b) "o'qituvchi-talaba" sub'ektiv munosabatlaridan "o'quvchi-kompyuter-o'qituvchi" ning eng ob'ektiv munosabatlariga o'tish orqali maktab muloqotining psixologik keskinligi olib tashlanadi, talaba mehnatining samaradorligi oshadi, ijodiy ishlarning ulushi ortadi, maktab devorlarida mavzu

boʻyicha qoʻshimcha taʼlim olish imkoniyati kengayadi va kelajakda universitetning maqsadli tanlovi, nufuzli ish amalga oshiriladi;

c) oʻqituvchining mehnat unumdorligi va axborot madaniyatini oshiradi.

Umuman olganda, AKTdan foydalanish oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini oshirishga yordam beradi.

2. Mavzuni oʻqitishda shaxsiy yoʻnaltirilgan texnologiyalar.

Shaxsiy yoʻnaltirilgan texnologiyalar butun maktab taʼlim tizimining markaziga bolaning shaxsiyatini qoʻyadi, uning rivojlanishining qulay, nizosiz va xavfsiz sharoitlarini taʼminlaydi, uning tabiiy potentsiallarini amalga oshiradi. Ushbu texnologiyadagi bolaning shaxsiyati nafaqat mavzu, balki mavzu ham ustuvor ahamiyatga ega. Standartlarning asosiy natijasi-taʼlim faoliyati asosida bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdir.

3. Oʻquv jarayonini axborot-tahliliy taʼminlash va maktab oʻquvchilarining taʼlim sifatini boshqarish.

Bunday innovatsion texnologiyadan foydalanish har bir bolaning vaqtini, sinfini, parallelligini, umuman maktabini obʼektiv, xolisona kuzatish imkonini beradi.

4.Intellektual rivojlanish monitoringi. Har bir talabaning taʼlim sifatini tahlil qilish va diagnostika qilish, akademik koʻrsatkichlarning dinamikasini sinovdan oʻtkazish va grafikalar yaratish.

5. Zamonaviy oʻquvchini shakllantirish uchun etakchi mexanizm sifatida taʼlim texnologiyalari.

Taʼlim texnologiyalari talabalarni qoʻshimcha shaxsiy rivojlanish shakllariga jalb qilish shaklida amalga oshiriladi: madaniy va ommaviy tadbirlarda, teatrda, bolalar ijodiyoti markazlarida va boshqalarda ishtirok etish.

6. Didaktik texnologiyalar taʼlim muassasalarining oʻquv jarayonini rivojlantirish sharti sifatida.

Oʻquv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar:

- rivojlanish taʼlimi;- muammoli taʼlim;- koʻp darajali taʼlim;- kommunikativ taʼlim;
- loyiha texnologiyasi;- oʻyin texnologiyasi;- madaniyat muloqoti;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;- didaktik koʻp oʻlchovli texnologiya;
- guruh texnologiyasi;- MPO (modulli taʼlim texnologiyasi);- ijodiy fikrlash texnologiyasi;- innovatsion portfelni baholash tizimi;- vakolatli yondashuv;
- faoliyat yondashuvi; bolalarda kognitiv sabablar (oʻrganish, kashf qilish, oʻrganish istagi) va muayyan oʻquv maqsadlari (aniq nimani tushunish, oʻrganish kerakligini tushunish);- shaxsiy yoʻnaltirilgan yondashuv.

Zamonaviy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish

texnologiyalar zamonaviy insonning asosiy kompetentligini shakllantirishni taʼminlaydi:

-axborot (muammolarni hal qilish uchun axborotni qidirish, tahlil qilish, oʻzgartirish, qoʻllash qobiliyati);

- kommunikativ (boshqa odamlar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati);
- oʻz-oʻzini tashkil etish (maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, sogʻliqqa masʼuliyatli munosabatda boʻlish, shaxsiy resurslardan toʻliq foydalanish qobiliyati);

-oʻz-oʻzini tarbiyalash (hayot davomida oʻz taʼlim yoʻnalishini loyihalashtirish va amalga oshirish, muvaffaqiyat va raqobatbardoshlikni taʼminlash). Bu erda ham taniqli, ham isbotlangan metodlarni, ham yangi narsalarni amalga oshirish mumkin.

7. Maktab oʻquv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning psixologik va pedagogik yordami.

Shunday qilib, zamonaviy rus maktabining tajribasi taʼlim jarayonida pedagogik innovatsiyalarni qoʻllashning keng doirasiga ega.

Albatta, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻqitishda innovatsiyalarni qoʻllash hayotning oʻzi talab qiladi, har bir talabadan ijodiy va fikrlash, har tomonlama rivojlangan shaxs shakllanishi juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Бадиев С.От традиций – к инновациям (к вопросу о сущности технологий обучения) С.Бадиев //Учитель.-2008. №6.-С.7-9

2. U. Masharipova va b.q. Ona tili “4-sinf oʻqituvchilari uchun ilgʻor pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish boʻyicha metodik qoʻllanma T-2017.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR

**Adilova Dilfuza Aliyevna**
Namangan viloyati Chust tumani
1 – maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar ularni o‘tkazish tartibi haqida yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Fan oyligi, tadbirlar, tanlovlar, ekskursiya.

Bugungi davr talabi ta’lim sifatini ko‘tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab berdi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va h.k ishlar belgilab olindi.

Konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo‘yicha yangi o‘quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga konsepsiyaga ko‘ra o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko‘tariladi. O‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullari joriy etiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi mazmuni sifat jihatdan yangilash yo‘llari ko‘zda tutiladi.

Prezidentimiz bola tarbiyasi haqida shunday so‘zlarni aytadi: *“Mustaqil* o‘*ylay oladigan, tafakkur yuritib to*‘*g‘ri maqul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak”.* Shunga, binoan Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish, bunda, yoshlarga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg‘u berish maqsadida “Beshta muhim tashabbus” ni ilgari surgan edi. Ushbu “Beshta muhim tashabbus” ta’limning barcha sohalariga qartilgandir. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish chora-tadbirlari haqida fiklar yuritilgan. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarining bugungi qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlod, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini, o‘zini-o‘zi anglash salohiyatini shakllantirish va o‘stirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish, ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishlari, jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda boshlang‘ich fanlarning (o‘qish, matematika, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san’at, musiqa, tarbiya) o‘rni beqiyosdir.

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarishni talab etadi.

Boshlang‘ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an’anaviy va noan’anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to‘g‘ri tashkillashtirish va o‘quvchilarni kreativ fikrlash sifatlarni shakllantirishdir.

Fan oyligini o‘tkazishdan maqsad – dars va darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarni ta’lim tarbiyadagi ahamiyati, o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, bilim samaradorligini

ko‘tarish, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari bilan doimo tanishib borish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini o‘stirish, o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy hamkorligini targ‘ib etish, fanlar bo‘yicha o‘quv metodik ishlarni jonlantirish, o‘qituvchilar ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, izlanuvchan, ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash, ularning tajribalarini o‘rganish va targ‘ibot qilish, ta’lim jarayonida qo‘llayotgan uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Fan oyligi ta’lim muassasalaridagi o‘quv tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta’minlash, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy izlanishlari va mehnatlarini ro‘yobga chiqarish omili hamdir. Shuni aytish joizki, boshlang‘ich ta’lim mutaxassislari o‘rtasida boshlang‘ich fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari, murakkabligi, o‘zlashtirishlik darajasi, hayotdagi o‘rni haqida turli xil fikr mulohazalar, bahs-munozaralarga olib kelishi mumkin. Tashkil etilajak fan oyliklari esa bu yo‘nalishga oydinlik kiritish bilan birga, sohadagi mavjud o‘ziga xoslikni, yangiliklarni ham namoyon etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. “Boshlang‘ich sinflarda matematika
2. darslarida didaktik o‘yinlar” Jizzax, 2007 yil
3. Bikbayeva N.U. Yangabayeva E. Matematika. Darslik 3-sinf Toshkent,
4. “O‘qituvchi” 2008 yil

# INFORMATIKA PÁNIN OQITIWDA ARALÍQTAN OQÍTÍW USÍLLARÍ. "INTUIT" MILLIY ASHIQ UNIVERSITETI.

**Amanbaev Amanali Orazbaevich**
Nukus Davlat pedagogika instituti akademik litseyi,
o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

**Gilt sózler**: interaktiv usıllar, video-lekciyalar, INTUIT internet proekti, aralıqtan oqıtıw, kommerciyalıq emes tálim kompaniyası, online kurslar.

**Annotaciya:**Bul maqalada búgingi kúnde pútkil dún'ya júzlik pandemiya sharayatında kún sayın globallasıp kiyatırǵan oqıtıwdıń jańa usılı, aralıqtan oqıtıw usılı haqqında aytıladı. Internet tarmaǵı arqalı hár qıylı tarawlar boyınsha oqıw kursları, MOOC (Massive open online courses) - kópshilik ashıq onlayn kurslar payda boldı. «INTUIT» Milliy ashıq universitetiniń veb-saytı arqalı aralıqtan oqıtıw xızmetlerin kóplegen informaciya texnologiyaları menen baylanıslı bolǵan bir qansha tálim programmaların usınıs etiwshi shólkem haqqında sóz etiledi.

Házirgi kúnde internet múmkinshiliklerinen paydalanǵan halda úyden sırtqa shıqpastan dúnyanıń abıraylı universitetlerinde sapalı bilim alıw múmkinshiligi payda boldı. Bul bolsa tálim paradigmasın ózgeriwine alıp keldi.

Buǵan MOOC (Massive open online courses) - kópshilik ashıq onlayn kurslardıń payda bolıwı sebep boldı.

MOOC (Massive open online courses) – kópshilik ashıq online kurslar bolıp, interaktiv usıllardan paydalanǵan halda tayarlanǵan hám Internet tarmaǵında ashıq halda jaylastırılǵan tálim kursına aytıladı. Kópshilik ashıq onlayn kurslardı tez hám keń tarqalıwı olarǵa dúnya tálim bazarında talap bar ekenliginen derek beredi.

KAOK arqalı joqarı oqıw ornına kiretuǵın abiturientler, kollej oqıwshıları, joqarı oqıw ornı studentleri, joqarı oqıw ornı professor-oqıtıwshıları, ózbetinshe izertlewshiler paydalanıwı múmkin. Abiturientler joqarı oqıw ornına kiriw imtixanları bar bolǵan pánlerden KAOK menen usınıs etilgen kurslar arqalı biypul bilim alıwları múmkin.

Atap aytqanda, Khan Academy (https://ru.khanacademy.org/)arqalı matematika, fizika, biologiya, ximiya, informatika hám basqa pánler boyınsha video-lekciyalar arqalı "nolden" baslap tereń bilimge iye bolıw múmkin. Sonıń menen birge, https://www.udemy.com saytında ózbek tilinde óz betinshe úyreniwshiler ushın matematikadan video sabaqlar berilgen bolıp, https://www.udemy.com arqalı kursdı biypul úyreniw múmkin.

Sonıń menen birge, joqarı tálim sistemasında belgili máseleler bar bolıp, bul máselelerdi barlıǵın kópshilik ashıq online kurslar arqalı sheshiw múmkin. Atap aytqanda:

- Shet el joqarı tálim mákemelerinde professor-oqıtıwshılardıń joqarı reytingdegi shet el joqarı tálim mákemesinde mamanlıǵın asırıw máselesi;
- Eń joqarı reytingdegi shet el joqarı tálim mákemesinde studentlerdi oqıtıw máselesi;
- Joqarı sapalı, básekege shıdamlı kadrlardı tayarlaw máselesi;
- Eń joqarı reytingdegi shet el joqarı tálim mákemesinde oqıtılıp atırǵan pánlerdi jergilikli joqarı tálim mákemelerine engiziw máselesi;
- Jańa kiritilgen pánler boyınsha oqıw komplekslerdi qáliplestiriw máselesi;
- Qánigelik pánlerdiń shet tillerinde oqıtıw máselesi;
- Studentlerdiń ózbetinshe jumısların shólkemlestiriw máselesi.

1. Informatikanı oqıtıwda júdá kóp MOOC lar bar. Bularǵa mısal etip INTUIT, Coursera, Udemy, Khan Academy, Udacity, Edx, Alison, Saylor hám basqa MOOC larni keltiriwge boladı. Endi biz informatikanı oqıtıwda MOOC lardan INTUIT ni kórip shıǵamız.

1. **"INTUIT" milliy ashıq universiteti-** http://www.intuit.ru




"INTUIT" Milliy ashıq universiteti (Internet informaciya universitetlerinen) kóplegen informaciya texnologiyaları menen baylanıslı bolǵan bir qansha tálim programmaları ushın óz veb-saytı arqalı aralıqtan oqıtıw xızmetlerin usınıs etiwshi shólkem bolıp tabıladı. Saytda bir neshe júzlegen ashıq tálim kursları bar, onnan keyin elektron sertifikattı biypul alıwıńız múmkin. Bunnan tısqarı, shólkem baspashı bolıp, kurslarda oqıw ádebiyatların baspa etedi.

Usı proekt Anatoliy Shkred tárepinen islengen bolıp, sayt 2003 jıl 10 aprelde ashılǵan. Mektep kitapları hám sertifikatlar sawdası menen finanslangan jeke kompaniya. INTUIT internet proekti 2010 jılda tálim iskerligi ushın licenziya aldı.

INTUIT-de fizika, matematika, ekonomika, informatika, filosofiya hám taǵı basqa pánlerden 800 den artıq sabaqlıqlardı oqıy alıwıńız múmkin.

Sayt arqalı kurslar menen baylanıslı kitaplardı satıp alıwıńız hám barlıq kurslarǵa iye bolǵan DVD-programmalarǵa buyırtpa beriwińiz múmkin.

2005 jılda sayt "Pán hám tálim" nominaciyasında Runet sıylıǵınıń tort márte jeńimpazlarınıń biri boldı. Sonıń menen birge, sayt "Ashıq (distancion) tálim sisteması" nominaciyasında " IT-tálim RuNet" (2005) baǵdarında jeńimpaz boldı.

INTUIT de informatika pánine tiyisli bir qansha kurslar bar. Bul saytda derlik barlıq kurslardı biypul alıw múmkin.

Saytǵa kiriw ushın www.intuit.ru silkasına kiriw kerek. Sayttı paydalanıwda bárinen burın dizimnen ótiw kerek. Biraq dizimnen ótpesede boladı, biraq bul kóp kurslardı kóriwdi shegaralaydı. Sol sebepli dizimnen ótken maqul boladı.

Dizimnen ótkennen keyin paydalanıwshınıń jeke kabineti ashıladı. Bul jerde paydanıwshı maǵlıwmatları, kursları, buyırtpaları haqqında hám basqa menyuları berilgen. Jeke kabinette paydalanıwshı oqıǵan, kórgen kursları, lekciyaları dizimleri turadı.

Solay etip, Matematika pánin úyreniwde MOOC lardıń ornı júdá úlken. INTUIT MOOC oqıwshıǵa Matematika pánin úyretiwdi izbe-iz ámelge asıradı hám bilimin bekkemlew ushın tapsırmalar berilip barıladı. Sol tárizli oqıwshı óz bilimin arttırıp, bekkemlep bara beredi. Oqıwshını qollap-quwatlaw ushın oǵan sertifikatlar hám beriledi. Keyin paydalanıwshı tek ǵana matematika pánin emes, bálkim basqa pándide dawam ettiriwi múmkin. INTUIT saytı júda qolaylı sayt esaplanadı.

Demek, "INTUIT" milliy ashıq universiteti-biypul aralıqtan oqıtıw sizdiń jańa jumısıńız hám joqarı lawazımdı iyelewge járdem beretuǵın bilimlerdi iyelewdiń qolay usılı bolıp tabıladı.

Coursera (https://www.coursera.org) kommerciyalıq emes tálim kompaniyası bolıp, Stenford universiteti professorleri Endryu Hg (Andrew Ng) hám Dafni Koller (Daphne Koller) ler shólkemlestirgen. Usı startap Kleiner Perkins Caufield & Byers (KPCB) hám New Enterprise

Associates (NEA) kompaniyalarınan xızmetleslik proekti boyınsha $16 mln. investitsiya alǵan. Kompaniyanıń maqseti - eń abıraylı universitetlerdiń eń maman professorlerin eń sapalı kursların informacion-kommunikaciya texnologiyaları arqalı dúnya boyınsha biypul kiriwge múmkinshilik jaratıw bolıp tabıladı.

***Kurslar baǵdarları***: informaciya texnologiyaları, fizika, injenerlik pánleri, matematika, biologiya, medicina, ekonomika, isbilermenlik, gumanitar pánler, kórkem óner.

***Sherikleri:*** Jáhánning hár qıylı mámleketlerindegi jetekshi universitetler. Coursera kompaniyasınıń birinshi sherikleri sıpatında Stenford, Priston, Pensilvaniya hám Michigan universitetleri bolǵan. Bunnan tısqarı, házirgi kúnde platformada Amerikanıń tómendegi abıraylı universitetleriniń online kursları qoyılǵan: Kaliforniya texnologiya institutı, Kolumbiya universiteti, Yel universiteti, Viskonsin-Medison universiteti, Arqa-Batıs universiteti, Emori universiteti, Vanderbilt universiteti. Evropa mámleketlerinen sherikleri sıpatında Edinburg universiteti, Lyudvig-Maksimilian atındaǵı Myunxen universiteti, Myunxen Texnika universiteti, Bokkoni, NES Paris, Kopengagen universitetleri, Ispan IE hám IESE biznes-mektepleri, Lozanna universiteti, Cyurix universiteti, London universiteti, Jeneva universitetin kórsetip ótiw múmkin. Usı platformada Aziya mámleketleriniń kursların da kóriw múmkin: Singapur milliy universiteti hám Tayvan milliy universiteti. Rossiya Federatsiyasidan: Joqarı ekonomika mektep hám Moskva fizika-texnika institutı (MFTI).

# INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

**Badalov Azamat Obil o‘g‘li**
Guliston davlat universiteti 2-bosqich
TAT mutaxassisligi magistranti.

**Annotatsiya:** Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarining ta’lim tizimlarida virtual ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ta’lim jarayonida bunday dasturlardan foydalanish yuqori natijalarga olib kelmoqda, chunki o‘quvchi bir vaqtni o‘zida eshitadi, ko‘radi, bajaradi.

**Kalit so‘zlar:** Informatika, virtual ta’lim, Articulate Storyline, Microsoft Office, Adobe Captivate, CourseLab, iSpring, Lectora, PowerPoint.

Hozirda kompyuter bilimlariga ega bo‘lish zamon talabiga aylandi, bunga sabab kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan kadrlarga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib borayotganligidir.

Respublikamizda ta’lim tizimining har bir bosqichida fanlarni o‘qitishda ularning uzliksizligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Informatika fanining uzluksizligi Malaka talablari va o‘quv dasturlarini yaratishda e’tiborga olingan. Hozirgi kunda respublikamizda Informatika fanini o‘qitish umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Quyidagi dasturlar yordamida Informatika fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalarini yaratishimiz va undan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi:

Articulate Storyline kurslar yaratish uchun mo‘ljallangan eng mashhur dasturlaridan biri, u moslashuvchan, foydalanishda qulay va turli maqsadli kurslar yaratish uchun ishlab chiqilgan.

Articulate Storyline - uch utilitli (Presenter, Quizmaker, Engage) paket, o‘rgatuvchi kurslarni, taqdimotlar, testlar va kontentning boshqa shakllarini iPadda ko‘rish va masofali ta’lim tizimlariga integrallanishi mumkin bo‘lgan Flash va HTML5 formatlarda yaratish imkoniyatini beradi. Dastur murakkab interfaol senariylarni amalga oshirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Endi o‘quv kursni murakkab interfaol senariysini yaratish uchun dastur tuzishni yoki Flashni qo‘llashni bilish shart emas – Storyline buning uchun barcha vositalarni taklif etadi. Ushbu dasturning xususiyati oson o‘zlashtirilishida, shuningdek, yaratilayotgan loyihlarning yorqin vizual uslubida: Articulate mahsulotlarida ishlangan roliklar boshqa e-learning muharrirlardan ko‘ra yanada zamonaviyroq va dinamikroq ko‘rinadi. Dastur Microsoft Office 2007ga o‘xshash interfeysga ega, ishlab chiquvchilar foydalanuvchilar o‘rganishlari oson bo‘lishi maqsadida tashqi ko‘rinishini PowerPointga maksimal o‘xshashligini ta’minlashgan. Yuqorida buyruqlar to‘plamidan iborat klassik Ribbon-panel joylashgan.

Adobe Captivate (avvalgi RoboDemo sifatida tanilgan)– Microsoft Windows va dasturiy ta’minotni namoyish etish, video darslarni yozish, dastur simulyatsiyasini yaratish, o‘quv taqdimotlarni yaratish va .swf formatda turli testlarni yaratish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan MacOSXning 5 versiyalari uchun elektron ta’limda qo‘llaniladigan elektron kurslarni yaratish va tahrirlash dasturi. Adobe Captivatedagi generatsiyalangan .swf faylni .avi faylga videoxosting saytlarga konvertatsiya qilish imkoniyati bor. Captivateda yaratilgan skrinkastlar ekrandan qilingan yozuvlarga nisabatan ancha kam joy egallaydi. Foydalanuvchilar Captivate dasturida taqdimotlarga effektlar, faol nuqtalar, matnli sohalar, video va hokazolarni qo‘shib tahrirlashlari mumkin. Captivate keng doiradagi imkoniyatlarni taklif etadi: Microsoft PowerPointda yaratilgan taqdimotlar asosida o‘quv materiallarni yaratish, monitordagi suratni olish, savolga berilgan javobga bog‘liq ravishda o‘tish imkoniyatli testlar yaratish mumkin.

CourseLab dasturi – bu Internet tizimida, masofaviy ta’lim tizimlarida, kompakt disk yoki boshqa har qanday saqlash qurilmalarida ishlatish uchun mo‘ljallangan interaktiv ta’lim materiallari (elektron darsliklar) tayyorlash uchun mo‘ljallangan kuchli va ishlatish oson bo‘lgan dasturiy vositadir. CourseLabning asosiy imkoniyatlari:

• WYSIWYG tizimida ko‘rish va natijalarni olish mumkin bo‘lgan ta’lim materiallarini yaratish va tahrir qilish.
• Tuzuvchidan HTML yoki boshqa dasturlash tillarini bilishni talab qilmaydi.
• Ob’yektiv yondashish har qanday qiyinlikdagi ta’lim materiallarini yaratish imkonini beradi.
• Senariylardan foydalanish murakkab ko‘p «Ob’yekt»li bog‘liqliklarni yaratishni osonlashtiradi.

• Testlarni avtomatik yaratish mexanizmiga ega.

• Ochiq ob'yektiv interfeys ob'yekt va shablonlar kutubxonasi va foydalanuvchi yaratgan kutubxonalarni osonlikcha kengaytirish imkonini beradi. • Ob'yektlar animatsiyasi mexanizmiga ega.

• Musiqiy ketma-ketlik joylashtirish va sinxronlashning osonligi va hokozo. CourseLab yordamida yaratilgan ta'lim materiallari ishlatilish turiga qarab elektron ta'limning quyidagi standartlariga mos keladi:

Lectora dasturi. Ogayo shtatida joylashgan Trivantis Corporation jamiyatida 1999 yilda Timoti D. Loudermilk tomonida yaratilgan. Hozirgi vaqtga kelib dasturdan 64 dan ortiq davlatlarda foydalanib kelinmoqda.

Lectora dasturi masofali ta'lim jarayonida elektron oʻquv kontenti yaratish uchun va elektron oʻquv majmualarni yaratish imkoniyatini beruvchi dastur hisoblanadi. Dastur asosan, masofali ta'lim kurslarini yaratishda, taqdimot fayllarini yaratishda, nazorat testlarini yaratishda, ppt formatidagi fayllarini boshqa ta'lim formatlariga oʻtkazishda, intellektual oʻqitish kurslarini yaratishda keng foydalaniladi. Lectora dasturida yaratilgan oʻquv kurslarini bir tugmani bosish orqali ularni dinamik web sayt koʻrinishda, HTML, CD disklarda ishlaydigan, bitta faylga yigʻilgan *.exe koʻrinishda, SCORM va AICC standartlarida hech qanday dasturlash tillarini bilmasdan ham oʻtkazish mumkin.

iSpring dasturi - taqdimotni oʻtkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft – PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Unda taqdim etilayotgan material uni koʻrayotgan kishilar tomonidan yaxshi oʻzlashtirilishi imkoniyatini beradigan koʻplab imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda taqdimotni boshqa formatlarga oʻzgartirib yuborish imkoniyatini beradigan dasturlar paydo boʻldi.

"Richmedia" kompaniyasi tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beradigan dasturni taklif etmoqda. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter k abi variantlarga ega. Mustaqil ekspertlarning fikriga koʻra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, konversiyalash sifati va opsiyalar soniga koʻra Flashdagi PowerPoint formatidagi konverterlar orasida eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring PRO va iSpring Presenter oʻrtasidagi farq shundaki, ularning ikkinchisi nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi soʻrovlarni ham kiritgan holda oʻzaro interaktiv bogʻlanish imkoniyatini ham beradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki bu dasturlar orqali yaratilgan har bir virtual ta'lim resurslari informatika darslari samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2019. - 232 b.

2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali oʻqitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. - 146 b.

3. Toshtemirov D.E. Kasb-hunar kollejlarida Informatikani oʻqitish uchun ta'lim portali yaratish va undan foydalanish metodikasi. Ped. fan. nom. diss... avtoref.- Toshkent, 2012. - 24 b.

# BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TARKIBINI O‘RGANISH METODIKASI

**Bobojonova Manzura**
Xorazm viloyati Xonqa tumani
33-son umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida so‘z tarkibini o‘rganishning usullari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zak, o‘zakdosh so‘z, so‘z yasovchi qo‘shimcha, shakl yasovchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari, so‘zning leksik ma’nosi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning marfemik tarkibi 3-sinfda o‘rganiladi. 4-sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Avvalo, til materialini o‘rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini o‘rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o‘zaro bog‘lanishdagi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirishni ta’minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon.

So‘zning tarkibi 4 bosqichda o‘rganiladi:

Birinchi bosqich – so‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushinishga tayyorlash. Masalan, ish-ishchi, g‘alla-g‘allakor.

Ikkinchi bosqich – bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o‘quv vazifasi – so‘zlarning ma’noli qismlari sifatida o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishtirish, “o‘zakdosh so‘zlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil o‘zakli so‘zlarda o‘zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.Masalan, gul, gulli, gulladi, gulzor, guldor o‘zakdosh so‘zlar hisoblanadi, chunki bularda umumiy qism- gul mavjud, bu so‘zlar aqin ma’noni bildiryapti.

Bir xil o‘zakli so‘zlar bilan tanishish jarayonida o‘quvchilarda so‘zning ma’noli qismi bo‘lgan morfemalar ( o‘zak, so‘z yasovchi, shakl yasovchilar) haqida boshlang‘ich tasavvur hosil bo‘ladi. Buning uchun so‘z yasashga oid vazifa topshirish maqsadga muvofiq. Bu vazifani bajarishda o‘quvchilar morfemalardan foydalanib bir xil o‘zakli so‘zlar guruhini hosil qiladilar va morfemalarning o‘rni va vazifasi haqida tasavvur hosil qiladilar.

Uchinchi bosqich – o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o‘rganish metodikasi. Bu bosqich o‘quv vazifasiga “o‘zak”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalarini shakllantirish, so‘zning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanish haqidagi tasavvurlarni o‘stirish, o‘zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so‘z yasovchi qo‘shimchasi bor so‘zlarni ongli ishlatish ko‘nikmasini o‘stirish kiradi.

O‘zakni o‘rganishning xususiyatlari. “O‘zak” tushunchasini shakllantirishda o‘quvchilar o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nosidagi umumiylikni o‘z ichiga olishi bilan tanishtiriladi. O‘zakdosh so‘zlarni tahlil qilish bilan o‘quvchilar so‘zning qaysi qismi shu so‘zlardan o‘zakdosh so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular o‘zakni ajratadilar), qaysi qismi har xil ma’noli so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular so‘z yasovchi qo‘shimchalarni ajratadilar) o‘rgatiladi. Bunday vazifalarni to‘g‘ri bajarish natijasida o‘quvchilar o‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalarning so‘zning leksik ma’nosini hosil qilishdagi rolini elementar tarzda bo‘lsa ham tushunadilar, shuningdek, o‘zak, o‘zakdosh so‘zlarga asos bo‘ladigan qism ekanini bilib oladilar.

To‘rtinchi bosqich – so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash ( 3-,4-sinflar). So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so‘z yasovchi qo‘shimchaning so‘z yasashdagi ahamiyati va shakl asovchi qo‘shimchaning so‘z shaklini o‘zgartirishdagi amaliyoti haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o‘quvchilarni ot, sifat, fe’llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

O‘quvchilarni so‘z yasatish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o‘qituvchi ularga muayyan bir yangi so‘z qaysi so‘zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Bunday topshiriqlarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning leksik ma’nosi

bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga ba biror so'z turkumiga harakterli bo'lgan so'z yasalishi usulida asoslanadi. Bunday topshiriq turlaridan namunalar:

1.O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik, so'z yasalishi tomonidan tahlil qilish.

2.Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishini o'rgatish o'quvchilarning har bir so'zga ongli munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi, so'z tarkibi va uning yasalishi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi.
2. U. Masharipova O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.
3. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklari.
4. www.ziyonet.uz

# TA'LIM JARAYONIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

**Boltayeva Mamajon Otanazarovna**
Xiva tumani 12-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 529 39 80
m_otanazarovna1212@inbox.uz
**Jumaniyoazova Mohira Boltaboyevna**
Urganch tumani 42-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 792 47 88
jumaniyoazova.m@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Modul, blok, mantiqiy tugallangan qism, modul dasturi, o'quvchilarning o'quv faoliyati, o'quv faoliyati elementlari, modul dasturlarining turlari, modul dasturini yakunlash.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda mashg'ulotda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Har bir modulni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning yaxlit bilish faoliyatining elementi sanaladi, ya'ni bir mashg'ulotda yaxlit tashkil etilishi ko'zda tutilgan o'quvchilarning o'quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o'quv faoliyati elementlaridan tashkil topadi. Agar mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo'lsa, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o'quv faoliyati elementidan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, mashg'ulot yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu mashg'ulotda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi.

Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni an'anaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo'lmaydi, shu sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keldi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning mashg'ulot davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin olgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'lim-tarbiya jarayonining ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv

bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o‘quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. O‘quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi.

Modul dasturidan o‘rin olgan har bir modul yakunida o‘quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o‘tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi.

Ma’ruzada modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o‘qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo‘lishi shart:

1. O‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida o‘quvchilarga qo‘yiladigan o‘quv maqsadlarini belgilash;

2. O‘rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning iyerxargik darajasini tuzish;

3. O‘quvchilarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo‘llarini nazarda tutgan holda o‘quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me’yorlarini belgilash;

4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o‘quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o‘zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;

5. Ma’ruza matni va modul dasturini mashg‘ulotdan bir hafta avval o‘quvchilarga tarqatish;

6. Modul dasturining uch xil turi bo‘lishini nazarda tutgan holda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shaklini aniqlash;

Izoh:

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelmasa, u holda modul dasturining individual ishlash modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirgan holda modul dasturining ikki o‘quvchi hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni ilmiy-nazariy masalalar, tushuncha va atamalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga kelishi tabiiy bo‘lgan holda modul dasturining o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Adam, R. Tne Process of Educational Innovation I R. - Lnd, 1991.
3. Bassett G. Innovation in Primary Education. - Lnd: 1992.
4. Beverly D. Inquiry Based Teacher Education - Lnd: 1996.

# ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA KASBGA YO'NALTIRISH VA KASBGA OID USULLARNI QO'LLASH

**Bozorova Bibigul Mustafoyevna**
Navoiy viloyati, Qizlitepa tumani
16-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***Insonning qiymati emas siymu zar,***
***Insonning qiymati ilm va hunar.***

O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda bugun yurtimizda ko'plab qaror, farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2020-yil 6-noyabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmonining qabul qilinishi fikrimizning isbotidir. Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xusuyatlarni ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan.




Kasb madaniyati kasbga, mehnatga, ijodga, ish jarayoni va odamlarga bo'lgan munosabatlar asosida shakillanadi. Zero, kasbiy faoliyat shu ijodiy jarayon, munosabatlardan iborat. Endi kasb madaniyatini pedagogika nuqtai nazardan talqin etib ko'raylik. O'qtuvchilik faoliyati, ta'lim –tarbiya, ma'rifat, ma'naviyat, o'qtuvchilar bilan doimiy munosabatlar jarayonidan iborat. Umuman, madaniyatni ta'lim- tarbiyasiz, bilimsiz, ma'rifatsiz, ma'naviyatsiz, ijodsiz ta'savvur etib bo'lmaydi. Barcha munosabatlarga, moddiy va ma'naviy qadryatlarning asosini, insonning insoniylik sifatlari mazmunini jamiyatning taraqqiyot, ta'lim- tarbiya darajasi, fan imkoniyati, ma'rifat va madaniyat kuchi belgilab beradi. Inson qaysi kasb yoki hunar bilan shug'ullanmasin, doimo munosabat bo'ladi, bu munosabat darajasi, tartibi, saviyasi, uning madaniyatini qay darajada o'zlashtirib olganiga bog'liq. Kasbga o'rganish ham madaniyat va bu jarayonlardagi o'zaro munosabatlqr ham madaniyatdir. Agar o'qtuvchi o'z o'quvchisini kasb hunari yoki dars beradigan fani orqali tarbiyalamoqchi bo'lsa, unga kasb madaniyatini o'rgatmoq uchun eng avvalo o'z fanini yaxshi ko'rishi va yaxshi bilishi uning o'zi madaniyatli bo'lishi kasb madaniyatini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi lozim. Kasb-hunar yoki fanni sevadi hamda ustoziga o'xshab madaniyatli bo'lishga harakat qiladi. Agar fanni yoki kasb hunarni o'qtuvchining o'zi yaxshi ko'rmasa, uning o'zi madaniyatli bo'lmasa, kasb madaniyatidan bexabar bo'lsa, u holda qanchalik o'quvchilarni majbur qilmasinbaribir bu fan ularga hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmaydi, ularni madaniyatli ham qila olmaydi.

**Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda kasbga yo‘naltirish va kasbga oid usullarni qo‘llash katta samara beradi. Buning uchun quyidagi usullarni tavsiya qilamiz:**



**1.“Pochtalyon” usuli.** Bu usul orqali o‘tilgan mavzu va uyga vazifani so‘rash mumkin. O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu va uyga vazifaga oid savollar yozilgan bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan pochtadan xat kelibdi deya konvertga yozilgan savollar ochiladi va savollar o‘qib eshittiriladi.

Masalan: 1.Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan so‘zlarning so‘rog‘ini ayting. (necha?, nechta?)

2.Miqdorni bildirgan qaysi so‘zlarda bir xil undoshlar ketma-ket keladi?

(bitta, to ‘rtta)

3.Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan so‘zlarning tagiga qanday chiziq chiziladi? (to‘lqinli chiziq



**2.“Jurnalist” usuli.** Bunda dars rejasini teleko‘rsatuvlar (masalan, “TV-Mehmon”, “Ko‘rsatuvlar tartibi”, “Dil nomalari”, “Mumtoz she’riyat”, “O‘yla! Izla! Top!”) nomi asosida tashkil etilishi mumkin.

**3.“Rejissor”usuli.**

Bu usul bir muncha murakkab usul bo‘lib, unda mavzuga oid yoki mavzudan tashqari tasvirlar ovozsiz suratga olinadi. O‘quvchilar tasvirda ko‘rgan voqeani izohlashi, yoki bir so‘z bilan izohlab berishlari kerak.










4.“**Tilshunos” metodi**

O‘quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarni, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o‘qitish usuli. Xonadagi stullar orqama-orqa qo‘yiladi.O‘quvchilar ham bir-birlariga orqa o‘girgan holda surat chizadilar. Alohida ko‘rinishidagi bu usulda birinchi o‘quvchi manzarani bayon qiladi, o‘rtog‘i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o‘quvchilar almashadilar va surat chizib bo‘lingach, u tasvirlanadi.

**5.“Tarixchi” usuli.** Bunda oldindan o‘quvchilarga buyuk siymolar A.Temur, Jalolliddin Manguberdi ( boshqa shoirlar, allomalar ham berilishi mumkin) hayoti, ijodi va faoliyati borasida chuqur izlanib, ularga tavsif berishlari lozim.

**6. “Matematik” usuli.** O‘quvchilarga usul sharti tushuntiriladi. Shu sonlarni so‘z bilan yozib, joy, hayvon va ovqat nomlarini topishlari kerakligi aytiladi.

Uchtepa tumani - 3 raqami va tepalik rasmi.

Tortko‘z - 4 raqami va ko‘z rasmi.

Beshbarmoq - 5 raqami va barmoq rasmi.

Oltiariq tumani - 6 raqami va ariq rasmi.

Sakkizoyoq - 8 raqami va oyoq rasmlari.

Har bir bolaning qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash, ro'yobga chiqarish nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning burchi sanalar ekan bunda har bir bir pedagog mas'ul shaxs sifatida alohida o'rinda turadi. Buning uchun esa pedagog o'zi ustida faol, izlanuvchan, talabchan, ijodkor, muhimi bilimdon mutaxassis bo'lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O'zMU, 2003. 156-b

2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.. 3.Internet saytlari

# MAVZU: TA'LIM MUASSASALARIDA IJODIY-BADIIY TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI
## (Maktablarda tashkil etilgan teatr to'garaklari misolida)

**Bozorova Gulchiroy Mustafoyevna**
Navoiy viloyati Navoiy shahar
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.***
***(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ijodiy-badiiy to'garaklarni tashkil etishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, unda maktablarda tashkil etilgan teatr to'garaklari haqida so'z boradi.
**Kalit so'z:** To'garaklar, teatr san'ati, drama, g'oya, muhit, voqea, pyesa, ustun….

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Xususan, maktablarda o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari, xilma-xil ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Bu kabi amaliy ishlar sinfdan tashqari ishlar deb yuritilib, maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi, ularda mustaqil, tashabbuskorona ishtirok etishadi.




Bu to'garaklarni umumta'lim maktablarida sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tash-

kil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi.

Ta’lim muassasalarida teatr to‘garaklarini tashkil etish va to‘garak jamoasini jipslashtirish, to‘garakning har bir a’zosini rivojlantirish to‘garak rahbaridan juda katta mas’uliyat talab qiladi. Unda yagona talab o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi, tanaffus vaqtidagi jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Puxta, o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o‘rnatilishini ta’minlaydi. To‘garak rahbari tomonidan qo‘yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish.
2. Muayyan maktab yoki sinfdagi sharoitni hisobga olish.
3. Qo‘yilayotgan talablarning aniq bo‘lishi.
4. O‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga qo‘yilayotgan talablar, ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart. O‘qituvchi qo‘yilayotgan talablarning hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo‘yish metodikasini ham o‘zlashtira olgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga talablar qo‘yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularning muntazam suratda nazorat qilib borishdan iborat.

Maktablarda tashkil etilgan teatr to‘garaklari o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. To‘garak rahbarining vazifalari ham ko‘p qirralidir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. To‘garak faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko‘p qirrali ishlarini o‘quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo‘lga qo‘yish.
3. Sinfdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko‘rsatish.
4. Umummaktab va maktablararo o‘tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
5. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada to‘garak rahbari faolligining uchta asosiy tomonini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma’muriy. Bular, ko‘pincha, o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.

To‘garakka jalb etilgan o‘quvchini faollikka undash, tarbiyasiga ta’ sir eta olish – teatr to‘garaklari oldidagi eng asosiy vazifa ekanligini unutmasligimiz kerak. Avvalo, teatr san’atining tarixi va bu san’atning o‘ziga xos tomonlari, vazifasi haqida ma’lumotlar berib o‘tish lozim. Xususan:

1. Teatr san’atining xom-ashyosi: aktyor - inson.
2. Aktyor timsolni o‘zidan yaratadi.
3. Ijodkorlar: aktyor va tomoshabin.
4. Teatr - makon va vaqt birligida kechadigan san’atdir.
5. Teatr san’ati - tabaqalashgan sintetik san’at turidir.
6. Teatr san’ati jamoa san’atidir.

**Teatrning vazifasi**. Teatr faqat targ‘ibot o‘chog‘i bo‘lmasligi kerak. U tomoshabinni faqat qiziqtirishi, hordig‘ini chiqarishi, ovutish uchungina faoliyat yuritmay, insonlarni ma’naviyat uchun kurashga, asarda ko‘tarilgan umuminsoniy, falsafiy muammolar haqida mushohada qilishga safarbar etishi kerak.

**Teatr ijodidagi uchta ustun.** Bu voqea, xatti-harakat, berilgan shart-sharoit bilan kurash.

**Jismoniy harakat** aksariyat holda so‘zga teskaridir. Bir narsani ko‘raman, boshqa narsani eshitaman, uchinchi narsani tushunaman.

**G‘oya.** U yoki bu spektakl “nima maqsadda” sahnalashtirilmoqda. G‘oya o‘z ichiga oliy va eng oliy maqsadlarni qamrab oladi.

**Mavzu.** Ma’lum bir asarda qo‘yilgan muammo “nima to‘g‘risida” ekanligiga javob topish. Har qanday pyesada insonning shakllanish jarayoni, uning rivojlanish yo‘li aks ettirilgan.

**Asar, pyesaning uzluksiz yetakchi xatti-harakati** - aniq, haqiqiy kurash jarayoni bo‘lib, uning natijasida oliy maqsad aniqlanadi, tasdiqlanadi, isbot qilinadi.

**Inson-rolning uzluksiz yetakchi xatti-harakati** – uning asosiy maqsadga erishish jarayoni. Agar pyesada uzluksiz yetakchi xatti-harakat “kurash” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lsa, ishtirokchi - timsolning uzluksiz yetakchi xatti-harakati uning “xohish, istagi”ga erishish jarayoni bi-

lan bog'liqdir.

**Voqea** - fe'ldan yasalgan ot gap bo'lagi bilan belgilanadi. Misol uchun: "Uchrashuv", "Sotqinlik"(uchrashish, sotish).

**Hissiyot tarzi, tabiati** - bu sahnaviy ko'rinishga ega bo'lgan asar janri. Ya'ni, asarda aks ettirilgan hayotni muallif nuqtayi nazaridan kelib chiqqan uslubiyatini rejissor tomonidan oliy maqsadga bo'ysundirib o'zlashtirilishi va aktyorning yashash tarzi orqali ro'yobga chiqarilishi.

**Muhit**. Ijodiy jarayonining yakunlovchi bosqichida paydo bo'ladi. Bu teatr san'atining ta'sirchan vositalari yig'indisidir. Ya'ni, senografiya, aktyorning sahnadagi hayot maromi, musiqa, shovqinlar. Muhit sahnaning yetakchi shart-sharoitidir . Ushbu tahlillar orqali to'garak a'zosi teatr shunchaki oddiy tomosha emas, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat beruvchi kuch ekanligini, unda har bir tomoshabin o'z-o'ziga chetdan, tashqaridan nazar solish, xatti-harakatlarini qayta tahlil va idrok etish imkoniga ega bo'lishini o'quvchilarga qayta-qayta takrorlash maqsadga muvofiq deb o'ylayman.Teatr to'garaklari o'quvchi yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga, ularning bilim va madaniyatini boyitishga, o'zaro mehr-oqibat, hurmat va do'stlik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqimizda bejizga "Teatr — ibratxonadir" deyilmaydi, chunki teatr – muhim tarbiya maskani. Katta sahnalarda namoyish etilayotgan spektakllar yosh avlodni boy merosimiz, umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lishga da'vat etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika. O'quv qo'llanma.T.:O'zRFA "Fan". 2006
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.R.Mavlonova, N.Raxmonqulova.
3. Internet saytlari:
4. ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz

# TA'LIM QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL

**Bozorova Gulnora Mustafoyevna**
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar,
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'zbek tili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning yangicha usullari, qiyosiy tahlil haqida salmoqli fikrlarini berib o'tganlar.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, nutq, kompetensiya, ot, sifat, зат есім, сын есім

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, o'zbek tili fanini noo'zbek guruhlarida davlat tili sifatida o'qitishning yo'lga qo'yilishi «Davlat tili to'g'risidagi» Qonunning talablarini bajarishning muhim omili bo'lib xizmat qildi. Chunki, O'zbekistonda 130dan ortiq turli xil millat va elat vakillari istiqomat qilishadi. Ularning milliy urf odatlari, madaniyatini hamda ona tillarini hurmat qilishni davlatimiz o'z zimmasiga olgan. Shuningdek, davlatimiz bosh qomusida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» degan moddaning kiritilishi o'zbek tilinining nufuzi va davlat tili sifatida obro'sini yanada yuksakka ko'tarishga xizmat qildi, desak aslo xato bo'lmaydi. DTS talabiga ko'ra, o'zbek tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi- ikki kompetensiyada mujassamlashdi. 1. Nutqiy kompetensiya - tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish ya'ni muloqot malakasini egallash. 2. Lingvistik kompetensiya- til materialini (fonetika, leksika, grammatika) va vositalarini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish uchun, bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o'qish, gapirish, yozish) egallashni nazarda tutadi.

O'zbek tili darslarini tashkil etishda qaysi millat o'quvchisiga ta'lim berishga e'tibor qaratish lozim. Masalan, qozoq tilida ta'lim olayotgan o'quvchilarga davlat (o'zbek)tili darslarini o'tishda qozoq tili garmmatikasi bilan qiyosiy o'rgatish maqsadga muvofiq. Chunki, o'quvchi o'z ona tili garammatikasini bilishi bilan o'zbek tilini o'zlashtirishi oson bo'ladi. Shu o'rinda qiyosiy grammatika haqida to'xtalib o'ish joiz.

**Qiyosiy grammatika** — ikki yoki undan ortiq tilni o'zaro qiyoslash orqali ulardagi o'xshashlik yoki tafovutlar belgilanadigan grammatika; "kontrastiv grammatika" deb ham ataladi. Qiyosiy grammatika tillarning fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va leksik sathlarini qiyoslab o'rganadi. Tillarni bunday o'rganish qiyosiy metod vositasida amalga oshiriladi. Bunda o'zaro qarindosh tillar yoki turli tizimdagi tillar qiyoslab o'rganiladi. O'zaro qarindosh tillar qiyoslanganda, qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanilsada, tillar sinxron tarzda o'rganiladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika — tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq tillarni o'rganuvchi, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bovyicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikt.ning maqsadlari doirasiga kiradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar tarixini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da asosiy tadqiqot vositasi sifatida qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanadi; tadqiqotning eng umumiy shakli — (eng avvalo fonetikani qamrab oladigan) qiyosiy-tarixiy grammatikalar va (leksikani namoyon etuvchi) etimologik lug'atlar tuzishdan iborat. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikt. tavsifiy yoki sinxronik tilshunoslik, me'yoriy va umumiy tilshunoslikka qarshi turib, ularni inkor etadi; shu bilan birga, u bir qancha masalalarda tavsifiy tilshunoslik bilan ham, umumiy tilshunoslik bilan ham o'zaro aloqada, bog'liqliqda bo'ladi.

Tillarni tarixiy taraqqiyotsiz qiyoslash, tarixiy qiyoslashdan farqli ravishda, qarindosh va noqarindosh tillarni chog'ishtirish deb atalib, u avvaldan Yevropaning antik davrida (yunon va lotin tillarini chog'ishtirish), qadimiy Hindistonda (sankrit bilan prakritlarni — o'rta hind tillarni chog'ishtirish), 11—12-asrlar Sharq tilshunosligida (M.Koshg'ariy va M.Zamaxshariy lug'atlarida qarindosh va noqarindosh tillar lug'aviy birliklarning chog'ishtirilishi) mavjud bo'lgan.

Chogʻishtirma tilshunoslik 17—18-asrlarda Yevropadagi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turli-tuman qarindosh tillar boʻyicha tadqiqot materiallarining toʻplana borishi bilan yanada rivojlanadi va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo boʻlishiga zamin hozirlaydi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik 19-asr — 20-asr boshlarida, asosan, Germaniya, AvstroVengriya va Skandinaviya mamlakatlarida rivojlangan boʻlsa, keyingi paytlarda bu tilshunoslik Rossiya (SSSR), AQSH, Gʻarbiy Yevropa, Finlyandiya, Shvetsiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston va boshqalar mamlakatlarda ham taraqqiy etmoqda. Turkiyzabon davlatlarda ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka qiziqish kuchayib bormoqda, qarindosh va noqarindosh tillarni oʻzaro qiyosiy oʻrganishga, lugʻaviy, morfologik birliklarning tarixiy shakllarini aniqlashga e’tibor berilmoqda. Xususan, Oʻzbekistonda oʻzbek-qoraqalpoq, oʻzbek-turkman, oʻzbek-qozoq, oʻzbek-tojik, oʻzbek-rus tillarini, Qozogʻistonda qozoq-oʻzbek, qozoq-moʻgʻul tillarini qiyosiy oʻrganish boʻyicha muayyan izlanishlar olib borilgan.

Men ham oʻz tajribam davomida oʻquvchilarga oʻzbek va qozoq tillarini qiyosiy oʻrganish samarali ekanligini kuzatdim. Masalan, 5-sinf oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarga ilk bor garammatik qoidalar murakkab tarzda oʻrgatiladi. Ot soʻz turkumidan boshlab oʻzbek tili grammatikasi oʻrgatilganda oʻquvchiga qiyoslab oʻrgatilganda tez va oson tushuncha hosil boʻladi.







Qozoq tili grammatikasida ot soʻz turkumi зат есім deyiladi. Yuqoridagi **“Tarmoqlash”** usuli orqali koʻrsatilgan jadvalda uning soʻroqlarini koʻrishimiz mumkin.







Qozoq tilida sifat soʻz turkumi сын есім deb yuritiladi. Sifat soʻz turkumini ham oʻquvchilarga oʻrgatishda yuqoridagi kabi tushuntirilsa, oʻquvchilarda nafaqat oʻzbek tilini oʻrganishga qiziqish, balki, bilim, koʻnikma va malaka ham tushunarli tarzda boʻladi.

Xullas, qiyosiy grammatika oʻqituvchi va oʻquvchilarni oʻrtasidagi hurmatni yanada oshiradi va oʻquvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyani oʻzlashtirishiga yordam beradi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma’naviyat 7 b.
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori. «Umumiy oʻrta ta’limining davlat ta’lim standarti» toʻgʻrisida.
3. Internet saytlari

# TARBIYASI QIYIN VA BO‘SH O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK FAOLIYAT OLIB BORISH METODIKASI.

**Ermakova Nodira Maxamatovna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
**Kukanbayeva Aidana Xudaiberdiyevna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g‘oyasini yodda tuting. O‘qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo‘nalishini o‘zgartirish.
**Kalit so‘zlar.** G.Overstrit, S.T.Shatskiy, D.Dyui, D.Karnegi, Ehtiyojlar, motivlar, A.Dreer, pedagog, Stimulus.

“Stimulus” qadimgi grekcha so‘z bo‘lib, ma’nosi hozir qo‘llaniladiganiga taqqoslaydigan bo‘lsak, unchalik xayrli emas. Gap shundaki, qachonlardir ho‘kiz va qoramollarni haydaydigan, uchi yo‘nib o‘tkirlashtirilgan uzun tayoqni shunday ataganlar. Bugungi kunda esa “stimullashtirish” - “insonni qandaydir faoliyatga etaklash, turtkilash” degan ma’noda qo‘llaniladi. Inson asli tabitan shunday yaratilgan: ichki yoki tashqi turtki, eslatma bo‘lmasa, hatto ba’zan majburlash bo‘lmasa o‘rnimizdan ham qimirlay olmaymiz.Shunday zamonlar ham bo‘lganki, ishga, mehnatga nisbatan sovuqqonlik ishyoqmaslik, dangasalik deb atalgan hamda uni yengish uchun oddiy va tabiiy usul – majburlashning turli ko‘rinishlaridan foydalanishgan. Bu usul insoniy munosabatlar tarixida chuqur ildiz otgan. Yillar mobaynida “inson qalbi” deb nomlangan nozik matoning asosiy ipini topish uchun olimlar juda ko‘p mehnat qildilar. Vaqt o‘tishi bilan insonga samarali ta’sir etadigan munosabatlarning turli vositalari izlab topila boshladi, Natijada ularni majburlash borgan sari qiyinlashib qola boshladi. O‘z haq-huquqlari bilan himoyalangan ozod va mustaqil shaxs yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Stimullashtirish borasida amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlarning darajasi va salmog‘i nihoyatda yuqori. Ammo shunisi achinarliki, amaliyotchi-pedagog juda ko‘p miqdordagi kontseptsiyalar, nazariyalar, g‘oyalardan o‘z faoliyati uchun yaroqlisini kamdan-kam topishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda amaliyot metodlar quyuni ichida o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘ygan. Ammo, aytish joizki, ta’lim jarayoni samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar ichida stimullashtirish etakchi o‘rin egallaydi. “Nazarimda, o‘z pedagogik faoliyatimning boshlanishida men juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yganman. Tabiiyki, ularni takrorlashni istamayman,- deb tan oladi taniqli amerikalik pedagog A.Dreer,- men uchun eng qiyin muammo o‘qishga motivlashtirish bo‘lgan”.

Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Bu tushunchalarning ierarxiyasi, tizimidagi o‘rni to‘g‘risida uzoq bahslashish mumkin, qaysiki nazariyotchilarimiz asosan shu bilan mashg‘ul. Ammo xulosa bir xil – stimullar ehtiyoj va motivlardan ajralmagan holda, ularga asoslanadi. Shuni ta’kidlash joizki, inson odatda, bir yo‘la turli ko‘rinishdagi ehtiyoj va motivlar ta’siri ostida bo‘ladi hamda ulardan eng kuchlisiga mos ravishda harakat qiladi. Shunday bo‘lishi ham mumkinki, bir nechta bir xil ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ehtiyoj va motivlar maydonga chiqib qolishi, ular orasida ziddiyat paydo bo‘lishi mumkin. Shunday vaqtda kishi ular orasidan o‘zi uchun ma’qul bo‘lgan xatti-harakatlar yo‘nalishini tanlashiga to‘g‘ri keladi. Insonning aynan u yoki bu yo‘lni tanlashida hal qiluvchi rolni stimullar bajaradi. Demak, tanlashda, yo‘nalishni aniqlashda, to‘g‘ri qaror qabul qilishda va kerakli yo‘nalishda harakat qilishda stimullar yordamga keladi. Ayni paytda zarur, ammo bajarish istagi kam bo‘lgan stimullarni tanlash o‘quvchidan katta kuch va sabotni talab etadi. Bu juda qiyn jarayon bo‘lib, kichik bolalar u yoqda tursin kattalar ham buni bajarishga qiynaladilar. Ba’zan hissiyotlar aqldan ustunlik qiladi. Shunda o‘quvchi ko‘proq o‘ziga jalb qilib turgan xulq-atvor yo‘nalishini tanlash uchun bahona yoki chora izlaydi va uni topadi. Masalani yana to‘g‘ri tanlangan va qo‘llanilgan stimullar hal etadi.

Ma’lumki, qo‘zg‘otuvchi motivlar aniq mavjud bo‘lganda bizning xatti-harakatlarimiz g‘ayratliroq va izchil bo‘ladi. Ta’sir ko‘rsata oladigan motivlashtirish ba’zan o‘quvchilar xatti-harakatlariga shu darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadiki, birinchi qarashda bu kutilmagan natijaga o‘xshab ko‘ri-

nadi. Motivlashtirish oʻquvchilarni turli darajadagi xatti-harakatlarni bajarishga undaydi. Natijada turli shart-sharoitlarda turli xildagi motivlashtirish, turli xildagi oʻzlashtirish koʻrsatgichlariga olib keladi.

Motivlashtirish yutuqlarga erishishning zarur sharti sifatida gʻarb psixologlari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Taniqli psixolog D.Karnegi ta'kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni nimadir qilishni istashga majburlash demakdir. Mashhur amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyuining fikriga koʻra, inson tabiatiga xos boʻlgan eng asosiy intilish – bu "ahamiyatli – qadrli boʻlish istagi"dir.Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish oʻziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi koʻrishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – oʻyinlar, hikoyalar, oʻzaro gap sotish, lofchilik kabilar ana shunday instinkning belgilaridir.
2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qoʻzgʻaluvchanlik, oxiri koʻrinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib koʻrish, ushlab koʻrish, tatib koʻrishga intilish sababi ana shunda.
3. Bolalar oʻzini koʻrsatib turgisi keladi, oʻzi haqida, oʻz taassurotlari haqida gapirgisi, oʻrtoqlashgisi keladi. Oʻz menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy boʻladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir.
4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir gʻayrioddiy narsalarni toʻqib chiqarishni yaxshi koʻrishadi.
5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol oʻynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib yurishimizga toʻgʻri kelmaydi. Chunki barcha samarali stimullarni bola tabiatining oʻzidanoq topish mumkin. Oʻqituvchilarning barcha xato va kamchiliklari ularning oʻquvchi xulq-atvorining haqiqiy motivlarini bilmaslikdan, u yoki bu xatti-harakatlarga yuzaki baho berishdan kelib chiqadi. Stimullashtirish sohasida oʻquvchilarni oʻrganish yangicha mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda mos stimullarni qidirib topish va toʻgʻri qoʻllash maqsadida oʻquvchilarni oʻrganish talab etilmoqda.

Muayyan bir turdagi stimullarni tahlil etish uchun amerikalik professor G.Overstritning "Inson xulq-atvoriga ta'sir koʻrsatish" deb nomlangan kitobida keltirilgan fikrlarga e'tiborni qaratsak, foydadan xoli boʻlmaydi. G.Overstritning ta'kidlashicha, xulq-atvorimiz va xatti-harakatlarimiz zamirida biz uchun eng qimmatli boʻlgan orzularimiz yotadi. Kimnidir u yoki bu koʻrinishdagi xatti-harakatlarni bajarishga undashni oʻz oldigan vazifa qilib qoʻyganlar uchun eng yaxshi maslahat shunday: avvalo oʻz suhbatdoshingizni nimanidir qattiq istashga majbur qiling. Kimki buni uddalay olsa, butun dunyoni egallaydi, agar uddalay olmasa, yakkalanib qoladi.Istaklarga tayaning. Bolalar nimani istashadi – bu oʻqituvchining olidida turgan bosh masala boʻlib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi boʻlsak, qopqonga qip-qizil boʻlib pishgan gilosni qoʻymaymiz, balki pishloq boʻlagini qoʻyamiz, ya'ni bunda oʻz istagimiz va ta'bimizga koʻra emas, balki kemiruvchilarning ta'bidan kelib chiqib ish yuritamiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u oʻz xohish-istaklari uchun aybdor emas. Muvaffaqiyatga intilish istagining kuchliligi ba'zan boshqa maqsadlarni toʻsib qoʻyadi va ular erishish qiyin boʻlgan gʻoyaga aylanadi. Kompyuter xakerlari (kompyuterning oldida juda koʻp vaqtini oʻtkazadigan yoshlar) – boshqa barcha ishtiyoqlarni soʻndiradigan xatti-harakat boʻlib, undan bolani boshqa mashgʻulotga e'tiborini qaratish maqsadida foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullayeva Q., Safarova R., Bikboyeva N. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 6-son. 1998.
2. A.Mavlonova, B.Normurodova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". –T., 2007 yil.
3. www.ziyouz.com

# ПЕДАГОГИК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИГА ОЛИЙ МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДАГИ МУАММОЛАР

**Эрназарова Назира Хаќбердиевна,**
Жиззах давлат педагогика
институти катта ўқитувчиси
(телефон: +998911885662)

**Аннотация**. Педагогик олий таълим муассасаларининг гуманитар таълим йўналиши талабалари учун математика фани бир қатор муаммоларни келтириб чиқаради. Ушбу мақолада ушбу муаммолар ва уларни хал этиш масалаларига илмий ёндошувлар ўрганилган.

**Калит сўзлар**: математик таълим, таълим муаммолари, ўқитишдаги қийинчиликлар, математик билимлар.

Математик таълим инсоният маданиятининг бир қисмидир. Ҳозирги замонда эркин, мустақил интеллектуал фаолият олиб бориш учун зарур билимларга эга бўлиш лозим. Математик билимлар абстракт тафаккурни шакллантириш ва такомиллаштириш базасининг ажралмас қисмидир. Бундан ташқари, математика бошқа фанларни ўзлаштиришга тайёрликни таъминловчи мустақил таълим имкониятларини ривожлантиришга ёрдам берувчи омилдир.

Жамиятнинг юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга қўядиган замонавий ижтимоий талаблари олий таъли муассаслари олдига ҳар томонлама ривожланган, янги фаолият шароитларига мослаша оладиган, касбий фаолиятни давом эттиришда юзага келадиган муаммоларга ўз вақтида ва тўғри ечим топа оладиган шахсни, яъни абстракт фикрлаш қобилиятига эга бўлган кадрларни тайёрлаш вазифасини қўяди.

Қатор тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатдики, педагогик олий таълим муассасаларининг гуманитар таълим йўналиши талабалари учун математика фани бир қатор муаммоларни келтириб чиқаради ва натижада ўрганиш мотивациясини пасайтиради. Талабалар орасида юзага келадиган қуйидаги асосий қийинчиликларни белгилаш мумкин: гуманитар таълим йўналишларининг биринчи курсга қабул қилинган талабалар математика фанини ўрганишга ва ўзлаштиришга етарлича кўникмага эга эмас; ҳисоб-китобларнинг мураккаблиги ва кўп мехнат талаб қилиши; ечим ва олинган жавобни талқин қилиш; кўпгина талабалар томонидан математикани ўрганиш бўлажак касбий фаолияти учун фойдасиз деб ҳисобланиши. Вужудга келган қийинчиликларнинг натижаси - талабалар томонидан дарс давомида ечиладиган кам сонли топшириқлар ва уларнинг ечимига уларнинг қизиқишининг пасайиши.

Келтирилган қийнчиликлар гуманитар таълим йўналишлари талабаларига математика ўқитишга янги ёндошувларни қидиришни назарда тутади.

Сўнгги йилларда гуманитар таълим йўналишлари талабалари учун математика курсини қуришда бир нечта ёндашувлар пайдо бўлди. Қуйидаги учта асосий ёндашувни белгилаш мумкин:

- муҳандислик ва техник мутахассисликлар учун белгиланган математика бўйича дастурларни гуманитар таълим йўналишлари талабалари учун мослаштириш (асосан, ўқув жараёнининг хусусиятларини ҳисобга олмасдан дарс ҳажмини қисқартириш);
- дарс мазмунини илмий-оммабоп матнлар билан алмаштириш;
- математиканинг бир нечта бўлимларини ягона методик тамойил асосида ва гуманитар таълим йўналишлари талабаларига йўналтирилган ҳолда ўқитиш.

Охирги ёндошув самаралироқ ва истиқболли, чунки айнан шу ёндошувда математик бўлмаган таълим йўналишларида математика ўқитиш хусусиятларини ҳисобга олиш имкони кўпроқ.

Тадқиқотчилар Бордаченко С.И., Васекин С.В., Воронов М.В., Мещерякова Г.П., Дмитриева М.Н ва бошқалар таъкидлаганидек, санаб ўтилган муаммолар, асосан, материални норасмий идрок этиш, сабаб-натижа муносабатларини таҳлил қилишда қийинчиликлар пайдо бўлишида ифодаланган гуманитар талабаларнинг индивидуал - психологик хусусиятларига боғлиқ.

**Адабиётлар рўйхати**


1. Бордаченко С.И. Профессиональная подготовка студентов гуманитарного вуза в области математики. Дис. канд. пед. наук. Сходня, 2003.
2. Васекин С.В. Технологические процедуры оптимизации при проектировании учебного процесса по математике. Дис. канд. пед. наук. М., 2000.
3. Воронов М.В., Мещерякова Г.П. Математика для студентов гуманитарных факультетов / Серия «Учебники, учебные пособия» Ростов н/Д: Феникс, 2002.
4. Гаваза Т.А. Профессионально-педагогическая направленность курса математики для гуманитарных факультетов педвуза: Дис. канд. пед. наук. Орел, 2003.
5. Гусев В.А. Психолого-педагогические основы обучения математике. М.: ООО «Изд-во «Вербум-М», ООО «Издательский центр «Академия», 2003
6. Дмитриева М.Н. Проблемы мотивации при интенсивном обучении математике студентов-гуманитариев // Материалы межрегион, науч. практич. конференции «Проблемы развития личности», Рязань, 2001г.
7. Дмитриева А.Б. Самостоятельная работа по решению прикладных задач в курсе математики как условие повышения качества профес-сиональной подготовки обучаемых в вузе. Дис. канд. пед. наук. М, 2004.
8. Захожая Т.М. Самостоятельная работа студентов в условиях организации учебного процесса в системе кредитно – зачетнқх единиц// успехи современного естествохнания. – 2008. - №7 – С. 112 – 113.
9. Эрназарова Н.Х Methods of intensification of teaching mathematics of humanitarian students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 3, 2020 Part II *ISSN 2056-5852.*

# O‘ZBEK TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Fatullayeva Gulnoza Rustamovna**
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar,
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, unda pedagogik texnologiya atamasi va bir qancha usullar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z:** Pedagogik texnologiya, o‘qitish texnologiyasi,

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko‘plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo‘lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta’lim sohasida ham.

“Pedagogik texnologiya” so‘z birligi – bu inglizcha “*an educational technology*” – “ta’lim texnologiyasi” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq qo‘llanilmoqda. Aynan “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta’riflar berilgan.

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1. Texnologiya – bu bir ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plamidir (izohli lug‘at).
2. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir
3. Texnologiya – bu san’at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to‘plami, holatini o‘zgartirishdir.
4. O‘qitish texnologiyasi - bu o‘quvchilar va o‘qituvchiar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir.

XX asr oxiriga kelib ilmiy-texnik taraqqiyot faqatgina ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib kelib qolmay, balki madaniyat doirasi, bilimlar gumanitar sohalariga ham keskin kirib keldi.

XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o‘quv mashg‘ulotarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ham pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, Quyida o‘zbek tili darslarida qo‘llash tavsiya etiladigan usullardan taqdim etmoqchiman.

“Ijodiy mashq” usuli.

Ushbu usul o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, o‘ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash,uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo‘llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Bunda o‘qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma’lum qiladi qolganini esa o‘quvchilar topshiriqlarni yechish jrayonida savollarga javoblar topish asosida o‘zlashtiradi o‘zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. Uni qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. **O‘qituvchi:** O‘quvchilarni masalaning mohiyatini o‘rganishga jalb etadi; Masalani

yechish rejasini aniqlashda mulohaza yuritishga yo'naltiradi; masalan bosqichlarga ajratadi; evristik suhbat ajratadi

**"Assisment" texnologiyasi usuli.** Bunda ma'lum mavzuni mustahkamlashda qo'llaniladi. Bir mavzu test, symptom, muammoli vaziyat, amaliy ko'nikma asosida mustahkamlanadi.




**"Xatolarni topamiz" usuli**

**Tashkil etish tartibi. O'qituvchi** bolalarga kartochkalarni yozilgan matnlarni o'qib beradi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan tinglab, qanday xatolar topganliklarini, to'g'ri yechimi qanday bo'lishi lozimligini tushuntirib berishlari lozim.

Masalan"Kuzda dehqonlar polizlarda olma , qovun, anor, behi kabi o'simliklarni yig'ib oladilar" O'quvchilar matnda yo'l qo'yilgan xatolarni topadilar, uni izohlab berishlari lozim.

**"Tovushli diktant" usuli.**

**O'tkazish tartibi.** O'quvchilar daftarlariga so'zlarni yozib, yodlab olishlari kerak (*tovushlar orasidagi interval1-2 soniya*).

(Z), (.I), (N),**(A)**.
(Z), (A), (N), (J),(I),(R).
(I), (Ch), (A), (M),(I),(Z).
(B), (A), (N), (A),(N).
(B), (A), (L), (A),(N),(D).
(Z), (A), (N), (J),(I),(R).
(Yo), (Z), (A), (M),(I),(Z).

**"Baliq skleti" usuli.** Bunda o'quvchilarning yozma savodxonligi muhokama etiladi. Chunki, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda yozma savodxonlikni o'rgatish o'qituvchidan biroz mashaqqatni talab etadi.



Xullas,  ertangi kun mustaqil fikrlaydigan kadrlarni talab etar ekan, bugungi kunda ustoz-shogirdlar zamon talabiga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zinig ish uslubiga qo'llashi, bu boradagi ishlarni davom ettirishi uchun muntazam o'z ishini nazorat qilib borishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. – T., 2010-yil
2.MUHOFAZA+ jurnali. 2012-yil, 10-son
3. Internet saytlari.

# MASHG‘ULOTLARDA ZAMONAVIY O‘QUV VOSITALARIDAN FOYDALANSH

**Fayziyeva Yulduz Ravshanovna.,**
Qorovulbozor tumani 6-son umum ta’lim
maktab o‘qituvchisi

**Аннотация:** Mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir.

**Аннотация:** Наша страна строит систему образования, нацеленную на интеграцию в новую глобальную информационную и образовательную среду. Это сопровождается значительными изменениями в организации образовательного процесса в соответствии с современными техническими возможностями. Внедрение современных информационных технологий в сфере образования позволяет качественно упростить и изменить методы обучения и организации учебного процесса на основе нового подхода.

**Abstract:** Our country is building an education system aimed at integration into the new global information and educational environment. This is accompanied by significant changes in the organization of the educational process in accordance with modern technical capabilities. The introduction of modern information technologies in the field of education allows us to qualitatively simplify and change the methods of teaching and organizing the educational process on the basis of a new approach. Information and communication technologies are an important part of modernizing the education system. the program of additional education.

**Kalit so‘zlar:** interfaol texnologiyalar, ta’lim, uzluksiz ta’lim dasturi.

**Ключевые слова:** интерактивные технологии, обучение, программа непрерывного образования.

**Keywords:** interactive technologies, education, continuing education program.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro stantartlar asosida takomillashtirish, va yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan ehtiyojni o‘z vaqtida ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.Jumladan, pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog-kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish,shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlis Murojaatnomasida belgilangan ”Pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari - sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash,raqobatbardosh kadrlar tayyorlash,ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish” kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborotlashuv va jamiyatning texnologik taraqqiyoti jarayonida maktabgacha tarbiya pedagogikasining metodikasi va texnikasini interfaol texnologiyalar doirasida yanada takomillashtirish zarur. “O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalari” qo‘shimcha umum ta’lim, umum rivojlantiruvchi ta’lim dasturining maqsadi: -maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan yuqori saviyada ishlashga tayyorligini oshirish,o‘qitish,ijtimoiy kompetentsiyasini tarbiyalash, pedagogik mahoratini shakllantirishga qaratilgan.Texnologik vositalardan to‘g‘ri foydalana olishning dolzarbligi zamonaviy ishlab - chiqarish jarayonining ijodiy tabiati tufayli bolalarni turli faoliyatlarini tashkil qilishdagi maqsadga qaratilganligi bilan birga,turli o‘qitishning zamonaviy texnologik vositalarni o‘z faoliyatlarida bemalol qo‘llay olishlaridan iborat.O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalar umuta’lim, umum rivojlantiruvchi bo‘lishi bilan birga talaba uni o‘zlashtirishi orqali:

- tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri rejalashtira oladigan;
- intelekti yanada rivojlangan;
- ishbilarmonlik,kompetentlik jihatdan yuqori saviyada va muloqot madaniyatiga ega

bo‘lgan;

- qaror qabul qilishda tengdoshlariga samarali o‘z ta’sirini o‘tkaza olishga qodir inson bo‘lishiga imkon beradi.

“O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalari” qo‘shimcha umumta’lim dasturining kursi mutaxassislarni tayyorlashning umumiy tizimida majburiy emas, kasbiy modullar va pedagogik amaliyot bilan mantiqiy bog‘liq. “O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalari” dasturini o‘rganish fizika, informatika, pedagogika va pedagogik texnologiyaga o‘qitish usullari haqidagi bilimlarga asoslangan, shuning uchun ushbu fanlarning uslubiy asoslarida nazariy tamoyillar ishlab chiqilgan. “Ta’limdagi zamonaviy texnik vositalar” fani talabalarni “Informatika”, va,”Pedagogika” fanlariga integratsiyalashishga tayyorlash vazifalarini izchil amalga oshiradi.

**Dasturni tatbiq etishdan maqsad:**

- mashg‘ulotlarda o‘quv vositalaridan foydalangan holda o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- ijtimoiy jihatdan moslashgan shaxsni tarbiyalashda axborot-kommunikativ vositalardan foydalanishning pedagogik texnologiyalarini yaratish;
- kelajakda bo‘lajak mutaxassislarni pedagogik faoliyatga ongli ravishda yondashishga,hamda texnik vositalardan mashg‘ulotlarda foydalanishning asoslarini yoritish malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Dasturni tadbiq etishda amalga oshiriladigan vazifalar:**

- bo‘lajak tarbiyachlarni o‘qitishning zamonaviy texnologik vositalari bilan ishlash asoslari to‘g‘risida zarur bilimlarni berish;
- talabalarda shaxsiy,kasbiy rivojlanishiga munosbatni shakllantirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentga ega bo‘lgan,o‘qitishning zamonaviy texnologik vositalarini oldindan rejalashtirib,loyihalashtira oladigan va ularni qo‘llash mahoratiga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalarini o‘zlashtirish natijasida talaba kasbiy mahoratni sifatli shakllantirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi bilim,ko‘nikma va malakalarni egallashi kerak:

- asosiy interaktiv doskalar,panellar,qum qutilar kabi texnologik vositalar bilan ishlay olishni bilishi;
- ushbu turdagi interfaol doskalar,panellar va qum qutilar,hamda boshqa zamonaviy texnologik vositalar uchun dasturiy ta’minot xususiyatlarini bilishi lozim.

**Talaba quyidagilarni bajarib bilishi lozim:**

- o‘quv mashg‘ulotlarida zamonaviy interfaol vosita va jihozlardan foydalanilgan holda mashg‘ulotlar uyushtira olishi;
- faoliyati jarayonida bu turdagi iterfaol vositalar uchun dasturiy ta’minotdan foydalana olishi kerak.

**Talaba quyidagilarni egallashi zarur:**

- interfaol va multimediya uskunalaridan kompleks foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- interfaol doska,panel va planetariy uchun dasturdan foydalangan holda didaktik materiallarni namoish etishi va qayta qo‘llash usullaridan foydalana olishlari lozim.

O‘qitishning zamonaviy texnologik vositalarini egallash doirasida talabalar kompyuter va axborot resurslari bilan ishlash uchun universal qobiliyat va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.Bolajak tarbiyachi bu orqali interfaol texnologiyalarning asosiy tushunchalarini puxta egallaydi,ularni amaliyot bilan bog‘lashni o‘rganadi,bolalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi,og‘zaki va yozma nutqini o‘stiradi.Mashg‘ulotning har bir bosqichida talaba olgan bilim,malakalarini o‘z kasbiy faoliyati jarayonida qo‘llashga o‘rganadi.Shunday qilib, o‘qitishning zamonaviy texnologik vositalaridan foydalanishni o‘rganish talabalarga texnik mashg‘ulot vositalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi,tarbiyachilik faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan o‘rinli va sermazmun foydalanishga o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Горюнова М.А., Семенова Т.В., Солоневичева М.Н. Интерактивные доски и их использование в учебном процессе: Информатика и информационно-коммуникационные технологии // СПб.: БХВ-Петербург, 2010. 336 ст.

3.Воронкова О.Б. Информационные технологии в образовании. Интерактивные методы. Ростов н/Д.: Издательство «Феникс», 2010. 320 с.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI RIVOJLANISHIDA O'YINLARNING AHAMIYATI

**Hakimova Nargiza Asralovna**
Toshkent shahar Chilonzor tumani
114- umumta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy tafakkurini oshirishga , shuningdek o'yin orqali ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etishga qaratilganligi, o'quvchini dars jarayoniga o'yin orqali olib kirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** o'yin, o'quvchi, o'qituvchi, faoliyat va jarayon,

O'quvchi ilmiy tafakkurlashning poydevorini umumiy o'rta ta'lim maktabda yani boshlang'ich sinfda egallaydi, ilmiy tafakkur qilish o'quvchini umummadaniy namunalarga, atrof muhit bo'lgan munosabatlari, normalarga, etalonlarga, yon atrofdagi insonlar bilan munosobatlar qonuniyatlariga yo'naltiradi. Son tushunchasi, so'z, badiiy obraz va boshqalar, ilmiy tafakkur asosini tashkil etuvchi obyektiv dunyo xususiyatlari bilan yangi harakatlar, munosobatlar bolaning shaxsiy tajribasi jarayonida ilgari egallanmaganlarini egallashga imkon beradi

O'yin ham mehnat va ta'lim kabi insonning asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, bizning mavjudligimizning g'aroyib fenomenidir.

Inson amaliyotida o'yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kundalik ishlardan chalg'ish uchun ovunmoqlik (maza qilish, qiziqish uyg'otish, ilhomlantirish - bu o'yinning asosiy funksiyasidir);
- kommunikativlik: muloqot diayektikasini o'zlashtirish;
-inson amaliyoti poligoni sifatida o'yinda o'zini ko'rsatish;
-o'yin – terapiya: hayot faoliyati davomida paydo bo'ladigan turli to'siqlardan oshib o'tish;

Faoliyat sifatida o'yin tarkibiga uzviy ravishda rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish hamda shaxs o'zini subyekt sifatida o'zligini nomoyon etishdagi natijalari tahlili kiradi. O'yin faoliyatining motivi uning ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musoboqa elementlari, o'zlikni nomoyon qilishga bo'lgan talabni qanoatlantirishi bilan ta'minlanadi.

Jarayon sifatida o'yin tarkibiga: a) o'yinchilar tomonidan o'ziga olingan rol; b) bu rollarni amalga oshirish vositasi sifatida o'yin harakatlari; v) predmetlarni o'yinlarda qo'llanilishi, ya'ni real buyumlarni o'yinlardagi ma'lum bir shartlar bilan almashtirilishi; g) o'yinchilar o'rtasidagi real munosobatlar; d) mazmun – o'yinda shartli ravishda qabul qilingan muhit sohasi kiritiladi.

Bola o'yin davomida hayotiy obrazlardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida keyingi murakkab ijodiy faoliyatga o'tishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari tasavvurning rivojlanishi muhimligi o'z o'zidan ravshan, chunki uningsiz eng oddiy inson faoliyatining amalga oshishi ham mumkin emas.

O'yin bolalarning boshqa odamlar bilan o'zaro munosobatlarini rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'yin davomida o'zaro munosobat va o'zaro harakatlarni amalga oshira turib qoidalarni o'zlashtiradi, tengqurlari bilan o'ynaganda u o'zaro tushunish tajribasiga ega bo'ladi, o'z harakatlari va maqsadini tushuntirishni, ularni boshqa bolalar bilan kelishilgan holda olib borishga o'rganadi.

Bolaning keyingi hayoti davomida bunday sifatlar qanchalik zarur ekanligini tushuntirib o'tirishni hojati bo'lmasa kerak, birinchi navbatda maktabda, u yerda bola tengdoshlarining katta jamoasiga qo'shilishi, o'qituvchining sinfdagi tushuntirishlariga diqqatini qaratishi, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda o'z harakatlarini nazorat qilishi lozim.

Shunday qilib, qoidali va ijodiy o'yinlar o'rtasidagi farqlar quyidagilarda nomoyon bo'ladi: ijodiy o'yinlarda bolalarning faolligi o'ylangan g'oyani amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi, qoidali o'yinlarda eng asosiysi – masalani yechishga, qoidalarni bajarishga qaratilgandir.

Fanning metodikasi uchun darsda o'quv o'yinlarining o'rni haqidagi savol juda muhim hisoblanadi. Ayonki, mazkur holat bo'yicha aniq tavsiyalar berishning imkoniyati yo'q. Darsning borishida o'yinning o'rni hamda uning davomiyligi ko'pgina faktorlarga bog'liq, ularni mashg'ulotni rejalashtirishda hisobga olish zarurdir. Bu faktorlar quyidagilardan: o'quvchilarning ta'lim olganlik darajasiga, ma'lumotga o'zlashtira olish darajasiga, o'zlashtiriladigan materialning murakkablilik darajasiga yoki boshqa tillardan kirib kelgan materialni nazoratda bo'lishligiga

hamda oʻquv mashgʻulotining aniq maqsadlari va vazifalaridan iboratdir.

Shaxs rivojlanishining oʻsmirlik bosqichiga oʻtish yorqin jismoniy va maʼnaviy oʻsish, bilish uchun qiziqishni kengayishi, oʻzini baholashga boʻlgan intilish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda sport, harakatlantiruvchi, intellektual, rolli oʻyinlar oʻz oʻrniga egadir. Birinchi oʻringa ijodiy va rolli oʻyinlar ilgari suriladi. Buni oʻsmir hayotida muloqot ahamiyatining oʻsishi bilan tushuntirish mumkin.

Shu sababli taʼlimning oʻrta boʻgʻinida oʻquv jarayoni samarasini oshiradigan vositalar – musobaqa-oʻyinlar, konkursli-oʻyinlar hisoblanadi. Bular oddiy oʻyinlardan shu bilan farq qiladiki, unda albatta musoboqa elementlari ishtirok etadi. Predmetga qiziqishi boʻlmagan baʼzi oʻquvchilar uchun, musoboqali-oʻyinlar qiziqishni uygʻotishda turtki boʻlib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun, sinflarda bunday oʻyinlardan foydalanish turgʻun diqqatga ega boʻlmagan va predmetga qiziqishi past oʻquvchilar uchun sezilarli samara beradi.

**Adabiyotlar roʻyxati**

1. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. – М.: Педагогика, 1986. – С. 72.
2. Дьяченко О.М., Веракса Н.Е. Что на свете не бывает? – М.: Знание, 1994. – С
3. Лук А.Н. Мышление и творчество. – М.: Политиздат, 1976. – С. 39.
4. Мухина В.С. Возрастная психология. – М.: Академия, 2000. – С. 210.
5. Arxiv.uz

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI O'QISHDA RUHIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

**Hikmatova Gulobar Nematovna,**
**Raxmatova Munisa Faxriddinovna**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada o'qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar**: boshlang'ich maktab, o'quvchi, o'qituvchi, pedagogik jarayon, maktab.

Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiyani shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Bu esa o'quvchilarning aqliy tafakkurining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Kuzatish va nazorat qilish, suhbat va hikoya, tushuntirish, rag'batlantirish va tanbeh berish, ma'qullash, ko'rgazmalilik, na'muna ko'rsatish, ishontirish, bahs, munozara kabilar. Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida yozma ishlardan faqat ona tili darslarida foydalanishadi. Bunday mashg'ulotlar aksariyat hollarda, o'quvchilarning yozma savodhonligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi (insho, diktant). Vaholanki, o'qish, boshqa darslarda ham yozma ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yozma ishlar bolalarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga hizmat qilishi bilan birga, barcha o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. Bo'lim yoki mavzu yakunida yozma ishlar tashkil etilganda o'quvchilar darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, mavzuga qayta murojaat etish orqali asar haqidagi tasavvurlari yanada teranlashadi, xotirasidan mustahkam joy oladi. Yozma ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda Vatanga nisbatan g'urur, muhabbat tuyg'ulari tarbiyalanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yozma ish uchun o'zi mustaqil holda mavzu tanlashi ham mumkin, albatta, bu mavzular ham shoir asarlaridagi asosiy g'oyalarga qaratilishi lozim. Demak, dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma, ijodiy ishlaridan samarali foydalanish aqliy tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Yozma ishda O'qish darsida amalga oshiriladigan ishlarning rejasida ko'rsatilishi, uning maqsadi, ularga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan bo'lishi lozi: 1. O'qish fanidan yozma ishlarni uyushtirishdan oldin, o'quvchilar mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari shart. 2. Yozma ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, talablari hisobga olinishi lozim. 3. Yozma ishlarni erkin mavzuda tanlash qoidasiga amal etish zarurki, bunda bola o'z imkoniyatlarini o'zi hisobga oladi. 4. Yozma ish mavzusi o'quvchini o'ziga jalb qila oladigan darajada jarangdor bo'lishi lozim. 5. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xar bir o'qituvchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan darsning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy tasir etishga intilmog'i, Vatanga muxabbat, milliy g'urur, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda dars ta'limi va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishda, milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo'lishida, axloqiy sifatlarni hosil qilishda muxim ahamiyatga ega. Ma'lumki boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish" darslari ham umumiy didaktik talablarga javob berishi, jumladan, darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga tayanish, shoir va ijodkorlarimizning asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalardan foydalanish imkoniyatlarini izlash lozim. Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarqshi shakllana boradi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi va ularning uzluksizligi rivojlanib boradi. Har bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liqdir.

Qachonki, maqsad aniq va puxta, o'quvchini xar bir taraflama rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, darsning samaradorligi ta'minlanadi. Bugungi kunda pedagogik jarayoning samaradorligini ta'minlash masalasi xar qachongidan ham dolzarb muammo hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayon oldida quyidagi maqsadlarni qo'ya olishi kerak: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyati hamda milliy istiqlol negzida ifodalangan

barkamol insonni shakllantirish xaqidagi fikrlardan dars jarayonida unumli foydalahish. 2. Darsda o'rganilayotgan mavzu xarakteridan kelib chiqqan holda ijodkor ilgari surayotgan g'oyani aynan o'quvchi ongiga etkaza olish yo'lini tanlay bilish. 3. Dars jarayonida turli didaktik va texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish. 4. Dars loyixasini mukammal tuza olish va kutiladigan natijani oldindan ko'ra olish lozim.  Bugungi kunda maktablarda sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlardan foydalanib kelinmoqda va ularga quyilgan talablar ham o'zgarib bormoqda.darslarni qiziqaqrli uyushtirish uchun o'qituvchilar yangicha dars turlaridan turli-tuman interfaol usul va vositalardan foydalanishlari lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish darslarida keltirilgan asarlardan, jumladan, A.Oripov asarlaridan foydalanganda dars loixasini tuzishda o'quvchining yoshi, individual xususiyati va darsning davomiyligiga alohida e'tibor qaratishi, o'quvchilarning bilimlarini sinash va qiziqishlarini oshirish maqsadida boshqortirma, rebus, o'yin-topishmoq kabi dars samaradorliigini oshiruvchi vositalardan foydalanuvshi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'aybullaev N., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.-T.: 2005.

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Ibragimova Gulnora Azodovna**
Xorazm viloyati Xonqa tumani
33-son umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatishning asosiy maqsad va vazifalari, boshlang'ich sinf ona tili dasturining asosiy bo'limlariga doir masalalar tahlil qilinadi.
**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish, nutq o'stirish, fonetika, grammatika, imlo, gap.

Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tilini o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: 1. Savod o'rgatish, nutq o'stirish. 2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi: Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatlari va yozma nutqini, tafakkurini amalga oshirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga qiziqishni oshirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchaliklarni yenga olish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflar, "Fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish" dasturi bosqichi izchillik tamoyili asosida tuzilgan bo'lib, fonetika, grammatika, imlodan beriladigan boshlang'ich ta'limotlar yuqori sinflarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot materiallari bilan uzviy bo'glanadi. Ushbu dastur "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap", "Boshlanishli nutq" va "Husnixat" bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda so'z leksik-grammatik tomonidan o'rganish, lug'at ustida ishlashga katta e'tibor beriladi. Lug'aviy mashqlar grammatik va to'g'ri yozishni o'rganish bilan bog'lik holda olib boriladi. O'quvchilar o'qish, grammatika, to'g'ri yozuv imlodan materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda, so'zlar shaxs va narsalarning nomini, harakatini, belgisini, sanog'i va tartibini ifodalovchi, yaqin va qarama-qarshi ma'noni bildirish, matnlarni har hil ma'nodan ishlanishini bilib oladilar, ular o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalashga, fikrga mos so'zlar tanlay olishga o'rgatib boradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gap haqida; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turli (darak, so'roq, buykuq gap) haqida his-hayajon bilan aytilgan gaplar; gapning mazmuniga ko'ra oxiriga nuqta, so'roq va undov belgisining qo'yilishi haqida, gap bo'laklari, gapda o'z birikmalariga ajratishi haqida dastabki ma'lumotlar to'rt o'quv yili davomida izchillk bilan berib boriladi.

Birinchi sinfda o'quvchilar nutqdan gapni ajratib olishga, gapni alohida so'zdan farqlashga, gapni o'qiganda ohangga rioya qilishga, ta'lim tayyorgarlikdan so'ng gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlab yozilgan va oxirgiga nuqta qo'yishga o'rganadilar.

Ikkinchi sinfda esa oldingi sinfda berilgan bilimlar yangi til materiallari asosida mustahkamlanadi, o'quvchilar gapining oxirida nuqtadan tashqari so'roq belgisi va undov belgisining ishlatilishi bilan tanishadilar va oxiriga qo'yilgan tinish belgisiga mos ohangda gapni o'qishga o'rganadilar.

Uchinchi sinfda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq gap) shuningdek, ayrim gaplarning, his hayajon bilan aytilishi va oxiriga undov belgisining qo'yilishi haqida tushuncha beriladi, ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llashga o'rgatiladi. Gap bo'laklari ega kesim va ikkinchi darajali bo'laklar mavzulari ham o'rgatiladi.

To'rtinchi sinfda ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordamida bog'langan va bog'lovchilarsiz qo'llangan uyshuq bo'lakli gaplar o'rganiladi. O'quvchilar uyushuq bo'lakli gaplarni sanash ohangida o'qishga, ammo, lekin, biroq bog'lovchilaridan oldin hamda bog'lovchilarsiz bog'langan

uyushuq bo‘laklar orasida vergul qo‘yib yozishga, uyushuq bo‘lakli gaplardan og‘zaki va yozma nutqda foydalanishga o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan ta’limiy ishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, muomala odobini shakllantirish hisoblanadi. “Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish” dasturiga ko‘ra kichik yoshdagi o‘quvchilarning yoshlariga mos ravishda namuna asosida matn tuzishga va uni lug‘aviy-imloviy tayyorgarlikdan so‘ng o‘qituvchi yordamida yozishga doir, ko‘rgan bilganlari, o‘qiganlari, kuzatishlari asosida matn tuzishlariga ya’ni inshoga oid mashqlarni bajarishga o‘rgatib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda bayon va insho ta’limli xarakterda bo‘ladi. Bayon ham, insho ham kichik hikoya tarzida bo‘lishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
4. www.ziyouz.com

# SMART TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI

**Iskandarova Oyto'ti Bekchanovna**
Urganch tumani 31-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 792 61 08
ob_iskandarova3131@inbox.uz
**Jamolova Diloram Mahmudovna**
Urganch tumani 31-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (91) 425 31 86
diloram_mahmudovna@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola smart ta'lim va uning imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi o'rni haqida.
**Kalit so'zlar:** Smart ta'lim, elektron hukumat, elektron uy, elektron ta'lim, aqlli ta'lim, internet, twitter, facebook.

XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. "Elektron hukumat", "elektron uy", "elektron tijorat", "elektron ta'lim" kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol bo'lib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot man'basi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo'ymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qaysidir ma'noda odam o'rnida "o'ylash"ga majbur qilishni talab qiladi. Bunday "aqlli", inson bilan muloqot qiluvchi va o'rgatuvchi elektron resurslarni yaratish o'ta dolzarb va mashaqqatli ish bo'lib, uni yaratishga butun dunyoning eng malakali mutaxassislari imkoniyatlarini birlashtirishni taqozo qiladi. Bu yo'nalishda qo'yilgan salmoqli qadamlardan biri bu ta'lim sohasida dunyo bo'yicha amalga oshirilishi boshlangan Smart education loyihasini keltirish mumkin.

Smart education (yoki aqlli ta'lim) – bu ochiq axborot resurslari yordamida interaktiv vertual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va induviduallashtirilgan yangi global ta'lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati uning butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish va keng ta'lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir.

Smart education ta'lim muhiti o'z navbatida uning qatnashchilaridan butun ta'lim jarayonini, foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi. Xuddi shu maqsadda Yevropa Ittifoqi davlatlari o'z ta'lim tizimlarini bir xil standartga keltirish yo'lidan borishmoqda va dunyoning boshqa davlatlarini ham bunga da'vat etishmoqda. Kelajak ta'limi muhiti sifatida e'tirof etilayotgan yagona Yevropa universiteti loyihasi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan salmoqli qadamlardan biridir.

Kecha ta'lim olishning yagona manbasi o'qituvchi bo'lib, o'quvchi ta'lim olish uchun sinfxonaga kelishi va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilishi yoki kitob o'qishi hamda tushunmaganlarini o'qituvchidan so'rab o'rganishga majbur edi. Bugunga kelib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan o'quvchi bilimni nafaqat sinfxonada o'qituvchidan, balki istalgan joyda, internetdagi boshqa faol bilim manbalardan ham olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shu bilan birga, hozirda qo'llanilayotgan ta'limning pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchining ta'lim jarayonidagi rolini o'zgartirmoqda. O'qituvchining roli endi faqat bilim manbai emas, balki bilim olishga yo'naltiruvchi va bu jarayonni boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu o'rinda interfaol texnologiyalarning qo'llanishi o'quvchilarning o'zi ham bilimlarni bir-birlariga uzatish va yangilarini shakllantirish manbai sifatidagi rolini oshirmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda o'quvchi yoshlarning Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarni ishg'ol qilganliklari va turli qiziqishlar, xususan ta'lim olish bo'yicha o'z uyushmalarini tuzib, faol muloqot qilayotganliklari, ya'ni o'zaro keng muloqot, ta'lim muhitining yaratilganligi mazkur ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda.

Smart education ta'lim muhiti vositalari ham kun sayin o'zgarib bormoqda. Endi istalgan joydan internetga ulanish imkoniyatining yaratilganligi, mobil kommunikatsiya vositalari, "aqlli" doska, "aqlli" ekran va ta'limning boshqa "aqlli" texnik vositalarining paydo bo'lishi va kun sayin takomillashib borishi Smart education ta'lim muhitida faol bilim olish nufuzini yanada oshirmoqda.

Bu o‘z navbatida bilim manbai sifatida kitob bilan bir qatorda undan ancha afzalliklarga ega bo‘lgan faol, qulay va mobil ta’lim mazmuniga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Buni birgina kitob va internetda joylashtirilgan ma’lumotlar, ta’lim mazmuni hajmlarini taqqoslash orqali ham anglab yetish mumkin. Internetda joylashtirilgan va kun sayin, soat sayin karralab oshib borayotgan veb resurslardagi ma’lumotlar, ya’ni bilimlar xazinasidan oqilona foydalanish, internet qulayliklari va texnik imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Bunday yagona ta’lim tizimi texnik jihatdan ta’minlangani bilan unda tegishli ta’lim mazmuni, mobil va interaktiv muhitda ishlaydigan ta’lim resurslari bo‘lmasa, undan foyda yo‘q, albatta. Bu masala yaqin kelajakda eng malakali mutaxassislar, olimlar va uslubchilar tomonidan yaratiladi va ochiq resrus sifatida taqdim etiladi. Bunday resursga misol tariqasida, AQShda 2015 yilda Discovery Education kompaniyasi tomonidan qator fanlardan texnologik darslikni keltirish mumkin. Mazkur darslik “Smart education” ta’lim muhitida ishlashga mo‘ljallangan. Mazkur texnologik darslik o‘zining tuzilmasi, o‘quv materiallarining rang-barangligi, interfaol muloqot va o‘quvchilarning individual ta’lim olish trayektoriyalarini tanlash imkoniyatlarining yaratilganligi, nazorat va tarqatma materiallar mavjudligi, o‘qituvchilar uchun uslubiy ta’minotning berilganligi hamda uning mazmuni takomillashtirish uchun ochiqligi bilan ajralib turadi. Darslikdan o‘rin olgan har bir mavzu bo‘yicha nazariy materialni o‘rganish, o‘zlashtirilgan bilimlar asosida ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar va kundalik turmushdan olingan vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash va tadbiq qilishga doir turli tuman interfaol mashq va topshiriqlar o‘rin olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

2. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 bet.

3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING VAZIFALARI

**Izzatillayeva Dilorom Xoldoraliyevna**
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning vazifalari, hisoblash malakalarini shakllantirish haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, arifmetik amallar, o‘nli sanoq sistemasi, og‘zaki va yozma hisoblash, matematika.

Ta’limning texnologik yondashuvida ko‘rinishning umumiy mezoni uning aniq va puxta o‘ylangan maqsadiga yo‘naltirilgan. Bunda matematika fani alohida o‘rin egallaydi va uni boshlang‘ich sinflardan boshlab amalga oshirish kerak bo‘ladi. Mamlakatimizda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish, maktab matematika fanini o‘zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ishlashda o‘rta maktabda matematika o‘qitishda ko‘zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang‘ich ta’limning ahamiyatini to‘g‘ri baholash kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim matematika dasturiga taalluqli ko‘pgina masalalar boshlang‘ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o‘zlatirishi kerakki, bundan ular o‘quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin, boshqa masalalar esa malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiliyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun kiritiladi.

Boshlang‘ich ta’limning muhim masalalaridan biri o‘quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga sonlarning bazi xossalarini, o‘nli sanoq sistemasini, arifmetik amallarni va ularga asoslangan hisoblash usullarini o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan ish bilan o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bu ishning natijasida o‘quvchilar dasrurga kiritilgan nazariy xarakterdagi masalalarni ham, o‘rganilgan nazariy masalalarni ham, amaliy va o‘quv masalalarni hal qilishga tadbiq etishmalakalarini ongli va mustahkam egallashlari hamda og‘zaki va yozma hisoblashlarni bajarishlari ham kerak. Bunda nazariya va amaliyot dasturning arifmetik qismi ustida ishlash davomida birgalikda bir-biri bilanbog‘langan bo‘lishi kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab ishida dasturni amalga oshirish tajribasini kuzatishlar dasturning aynan shu muhit talabi ko‘pincha buzilishini ko‘rsatadi. Bu, masalan, og‘zaki hisoblash malakalarini shakllantirishda o‘qituvchilar ko‘pincha bolalar ongiga bajarilgan amallarning nazariy asosini yetkazish zarurliginiesdan chiqarishadi, ularni hisoblash vaqtida xato qilinganda o‘quvchilar nazariyaning yo‘l qo‘yilgan xatoning sababini tushuntirib olishga va uni mustaqil tuzata olishga yordam beruvchi nazariy masalalarni qarab chiqishga qaytarishda o‘rgatmaydilar.

Bunda aynan ongli o‘zlashtirish ishonchli, to‘g‘ri va tez hisoblashning haqiqiy mustahkam ko‘nikmalari shakllanishi mumkin bo‘lgan asosdir. Nazariya va amaliyotni ularning yagonaligida qarashga bo‘lgan talabning buzulishi matematika darslarida ko‘pincha bolalarga nazariy xarakterdagi masalalar mavhum shaklda berilishida, tegishli ta’riflar, qoidalar va hokazolar ularning amaliy tadbiqidan ajralgan holda o‘rganilishida namoyon bo‘ladi. Bunda quyidagicha holatlarni ham uchtratish mumkin: O‘quvchilardan yo dasturda umuman ko‘zda tutilmagan, yoki bolalar ancha keyin o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ifodalarni bilish talab qilinadi: masalan, o‘qituvchi 1-sinfda “Sonlar qo‘shishda qanday ataladi?” degan savolga to‘liq javob berishni talab qilganda ish shunday bo‘ladi. Matematik terminologiyani bu tarzda bilishni umuman talab qilib bo‘lmaydi. (muhimi shundaki, o‘quvchilar tagishli so‘zlarning ma’nosini o‘qituvchi foydalanganda tushunishlari va sekin-asta bu terminlarni o‘z nutqlariga kirita borishlari kerak). Sanab o‘tilgan hamma masalalarni yechish mazmuni samarali tanlanganda uni bayon qilish o‘ylangan sistema bo‘lganda va o‘qitishning tegishli usul va shakllarini hamda o‘qitish vositalarini bilib tanlab olganda amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.U. Bikbayeva Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi
2. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklari.
3. Internet saytlari.

# INDIVIDUAL YONDOSHISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Karimova Aziza O‘ktamovna**
Urganch tuman 27-son maktab amaliyotchi psixologi
Telefon: +998 (93) 743 67 97
aziza_o‘ktamovna27@inbox.uz
**Atabayeva Barno Rajabovna**
Hazorasp tumani 1-son IMI o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 515 84 10
b_atabayeva515@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o‘quvchilari jamoasida munosabat va muloqot o‘rnatishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda ularga individual yondoshish masalalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**: Muloqot, munosabat, individual yondashuv, ijtimoiy faol shaxs, jamoa, gurux, shaxsiy sifatlar, tarbiya, omillar, xususiyatlar.

Biz bilamizki, pedagog bir qator individual-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, taraqqiy etib borayotgan shaxs bilan shug‘ullanadi. Bir o‘quvchiga nisbatan muvaffaqiyat bilan qo‘llanilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan uslub, boshqa o‘quvchiga nisbatan qo‘llagan vaqtda kutilgan samarani bermasligi ham xuddi ana shu holat bilan izohlanadi. Shu sababli ham umumiy tarbiyaviy uslublar har bir o‘quvchining individual va tipologik xususiyatlarini inobatga holda yondoshishni taqozo qiladi. Individual yondoshish orqali shaxsni tarbiyalash o‘ziga xos bir qancha xususiyatlarga egadir.

O‘qituvchining o‘quvchiga individual yondoshuvi jamoa ichida va jamoa yordamida amalga oshiriladi, hamda shu ma’noda umumiy tarbiya jarayonini uyg‘unlik bilan to‘ldiradi. Individual yondashishda tarbiyachining o‘quvchilarga g‘amxo‘rligi va nazokati, o‘z hatti-xarakatlarining psixologik oqibatlarini oldindan ko‘ra olishi nazarda tutiladi. Individual yondashish o‘quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan vaqtdagi psixik holatiga ko‘proq mos keladigan tarbiyaviy tadbirlarni tanlashni va amalga oshirishni talab etadi. Ana shunda bu tadbirlar yuqori darajada samara beradi.

Buning uchun, avvalo o‘quvchilarni yaxshi bilish, ularnng har biridagi shaxsiy sifat,xususiyat,fazilat va o‘ziga xos xislatlarni ko‘ra bilish zarurdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini qanchalik yaxshi bilsa, tarbiyaviy tadbirlarni ham tarbiyalanuvchilarning o‘zlariga xos xususiyatlari mos ravishda qo‘llab, ta’lim-tarbiya jarayonini shuncha to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya oladi.

Individual yondoshishda, birinchi navbatda, shaxsda biror xislatning tarkib topishiga ta’sir etadigan individual, maxsus sharoitlarni bilish va hisobga olish nazarda tutiladi. O‘quvchi shaxsi xarakter xususiyatlarini namoyon qilish tabiatini tushungan taqdirdagina, uni to‘g‘ri tushunish mumkinligi uchun ham bu holni bilish lozim. Masalan, o‘qituvchi o‘smirning o‘jarligi,beqarorligi va agressivligiga barham berishni maqsad qilib oldi deylik. Avvalo tushunish, tushunganda xam to‘g‘ri tushunish uchun bu o‘jarlikning,beqarorlikning,agressivlikning tabiati qandayligini, uning sababini, qanday xarakterda ekanligini bilib olish turlicha bo‘lishi mumkin.

O‘quvchi shaxsining autsayder ya’ni yakkalanib qolishiga sabab bo‘luvchi eng ko‘p tarqalgan hatti-xarakatlar, nuqsonlar hamda salbiy tomonlar xaqida to‘xtalamiz va ularni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabablarni ko‘rsatib o‘tamiz. Maktab yoshida eng ko‘p tarqalgan hatti-xarakat va kamchiliklaridan biri, boshqa kishilarning iltimoslari, maslahatlari, talablari, ko‘rsatmalariga asossiz tarzda qarshilik ko‘rsatishda namoyon bo‘ladigan o‘jarlikdir. Ko‘pincha bunga o‘quvchi nerv sistemasining kuchli taassurotlar, toliqish, og‘ir kechinmalar bilan qayta qo‘zg‘alishi sabab bo‘ldi. O‘jarlikka moyillik ba’zan mustaqillik va tashabbuskorlikka intilish, o‘z hoxishini so‘zsiz bajarishga harakat qilish bilan izohlanadi. O‘jarlik, maqtash, kattalar tomonidan xech narsaning qilinmasligi, o‘zining barcha istaklari va hoxishlarining so‘zsiz bajarilishiga odatlanib qolgan, erkatoy qilib yuborilgan bola xulq-atvorining odatdagi ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Nihoyat, o‘jarlik ba’zan bolaning norozilik bildirish, o‘zidagi rivojlanayotgan mustaqillik xamda tashabbuskorlikning kattalar tomonidan hukmronlik bilan, qo‘pollik bilan va asossiz ravishda bo‘g‘ilishdan norozi bo‘lish ifodasining o‘ziga xos turi tariqasida yuzaga keladi.

O‘smir yoshidagi o‘quvchining hatti-xarakatlarida tarqalgan boshqa kamchilik bu qo‘pollik, qo‘rslik, surbetlik, kattalarni hurmat qilmaslikdir. Ko‘pincha bunga kattalarning o‘smirni mensimasligi, uning mustaqillikka bo‘lgan tabiiy intilishini bosib turishi, bu yoshda tarkib topgan o‘z qadrini bilish fazilatini kamsitishi sabab bo‘ladi. Bu mensimaslikning bevosita shakli-kattalarning hukmronlik qilishi, bevosita shakli-tinchlik bermaydigan nazorat va arzimagan vasiylik, yashirin shakli esa o‘rinsiz hamda haddan tashqari mehribonlik, o‘smirning o‘z tengdoshlari ko‘z ongida obro‘sini to‘kadigan mehribonlik ko‘rsatishdir. O‘quvchilarda qo‘pollik va surbetlik ko‘pincha o‘zlariga nisbatan kattalarning adolatsiz munosabatiga-yolg‘onchilik, nojo‘ya hatti-xarakat, yalqovlik, qo‘pollik bilan asossiz ayblashga javoban yuzaga keladi. O‘quvchilarning qo‘polligiga ko‘pincha yana shu narsa xam sabab bo‘ladiki, ko‘pgina o‘quvchilar qo‘pollikni kattalikning, jasurlikningbelgisi deb biladilar, yumshoqlik, mehribonlik, samimiylik qilishdan uyaladilar, chunki bunday qilishga shalvirash, landavurlik deb qaraydilar. O‘quvchilardagi qo‘pollik, jizzakilik, serjahillik ularda irodaning hali yetarli darajala taraqqiy etmaganligi,o‘zini qo‘lga ola bilmasligi, o‘zini tuta olmasligi, keskinliligi oqibati bo‘lishi mumkin. Nihoyat, qo‘pollik va jizzakilik,jumladan uzoq vaqt ko‘p kuch-g‘ayrat sarflashi talab etadigan aqliy ish bilan shug‘ullanish natijasida haddan tashqari toliqishidan kelib chiqishi mumkin.

Ixtiyorsiz, jizzaki, beqaror o‘quvchi ya’ni nerv sistemasi tez ta’sirlanadigan tipning vakili uchun vazmin, osoyishta, ammo qat’iy talabchanlik zarur. Nerv sistemasi kuchsiz tipning vakili-qo‘rqoq, tortinchoq, o‘ziga ishonmaydiganva ruhan osongina jarohatlanadigan o‘quvchi qo‘llab-quvvatlashni, dalda berib turishni talab etadi. Bunday o‘quvchilarga nisbatan kuchli ta’sir ko‘rsatish choralari, qattiq jazolar, qat’iy baholarni qo‘llanish yaramaydi. Ular bilan muomala ohangi xam turlicha bo‘lishi kerak. Tez ta’sirlanishga moyil bo‘lgan yoki shoshmaydigan o‘quvchilar bilan, odatda, qattiq ,ta’sirli va keskin gaplashmaslik lozim,bunday qilish tez ta’sirlanishiga moyil o‘quvchilarni haddan tashqari hayajonlantirib, jahlini chiqarib yuboradi. Shoshmaydigan, o‘quvchilarni esa, aksincha, mutlaqo shoshmaydigan qilib qo‘yadi, hamda ruhini juda tushirib yuboradi. Bunday o‘quvchilar bilan vazmin, do‘stona ohangda gaplashish kerak bo‘ladi.

Individual yondoshishda rag‘batlantirishning o‘quvchilarga turlicha ta’sir ko‘rsatishini unutmaslik lozim. Bir o‘quvchini maqtash kerak, chunki maqtov unda o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi: boshqa o‘quvchini o‘z-o‘ziga tasalli beradigan, o‘ziga ishonadigan qilib qo‘ymaslik unga nisbatan maqtash usulini qo‘llash yaramaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning kamchiliklarini ta’kidlab o‘tish ham salbiy ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Oxirida hammaga ma’lum bo‘lgan, lekin hamma vaqt ham hisobga olinavermaydigan quyidagi fikrni ta’kidlab o‘tamiz. Individual yondoshishda tarbiyaviy ishda xar bir o‘quvchi shaxsidagi mavjud ijobiy fazilatlarga, chunonchi uning qiziqish-havaslariga , axloqiy intilishlariga , o‘rtoqlariga nisbatan hatto hazil tariqasidagi do‘stona munosabatlarga tayana olish nazarda tutiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardagi mavjud ijobiy xislatlarni taraqqiy ettirish, ularning xulq-atvorida ana shunday xislatlarni yuzaga keltirish, ularning ijobiy hatti-xarakatlarini rag‘batlantirish yo‘li bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga oson erishishi mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. To‘laganova G. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar. Toshkent . 2002 y .
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
3. G‘oziyev E.G‘. Muomala psixologiyasi.UzMU. 2006 y.
4. G‘oziyev.E.G‘. Psixologiya metodologiyasi.UzMU.2004 y.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999

# KO‘P XONALI SONLARNI RAQAMLASH METODIKASI

**Karimova Mashhura Abdulhamidovna**
19-maktab boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
998982778 . karimovamashhuragmail@.com.
Norin tuman, Namangan viloyati

**Annotatsiya**: Ushbu maqola orqali boshlang‘ch sinflarda matematika o‘qitishva matimatika fanini o‘rganishda ilk sinflar bilan ishlash usullar orqali bolalarni fikrlash qobilyatlarini o‘stirish haqida keng yozilgan.

**Kalit so‘zlar**: matematika, sonlar, o‘qitish, brirlik lar, o‘nliklar, yuzliklar, raqam lash, umumlashtirish, ko‘p xonali

Farzandlarimizni ma’rifatli va ma’naviyatli qilish, kasb-hunar egallab jamiyatga nafi tegadigan inson bo‘lib kamol topishida ota-onalarga mahalla va ta’lim muassasasi eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Yoshlarimiz ma’naviyatini shakllantirishda oiladagi muhim, ona tarbiyasi, otalar o‘giti, keyinchalik mahal laada, umumta’lim maktablarida, oliy o‘quv yurtlarida beriladigan ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi. Ushbu mavzu yuzasidan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan quyidagilarni amalga oshirishi va har bir o‘quvchini diqqatini jalb qilib olishi lozim:

a) predmetlarni bittalab, o‘ntalab , yuztalab , gurhlarga birlash tirib sanash;.

b) 1000 ichida sonlami o‘qish va y zish ham da u lam i natural qatorda kelish tartibini bilish;

d) sonlarni yuzlik, o‘nlik va birliklardan hosil qilish.

e) o‘ngdan chapga hisoblaganda, brirlik lar, o‘n liklar, yuzliklar qaysi o‘rida turishini bilish;

f) sonni xona qo‘shilu vchilari yig‘indisi ko‘rinishida yoza olish va xona b irlik larin i bilish. 1000 ichida sonlarni raqam lashni o ‘rg an ish n atijasid a o‘q uvchilar quyidagi bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni egallab olishlari kerak:

1. 1000 ichida sonla m i raqam lashni, sonning hosil bo‘lishini, o‘zidan oldingi va keyingi sonlar bilan aloqa dorligini bilish.

2. Har bir sonni sonlar qato rid ag i o ‘mini bilish.

3. Sonlaning o‘miqiy matlarini bilgan hold a o‘qish va yoza olish.

4.Taqqoslash.

5. Sonni xona yiginidisi ko‘rinishid a yoza olish.

6.Sonlarning natural ketm a-ketligini bilgan holda qo‘shish va ayirishni bajarish.

7. Uch xonali son va uchinchi xona birliklari tushunchasin I bilish.

8. 100 ,..., 200 ,..., 300 ,..., 400 ,..., 500 ,..., 600..., 700 ,..., 800, ..., 900, ...1000 sonlari orasini toldira bilish. S hu aso sd a 100- l000 acha sonlarni raqamlash.

9. Ishning navbatdagi bosqichida uch xonali sonlarn ing o‘nli tartiblarini, ya’ni, ulaming yuzlik lardan va o‘nliklardan, birlik lard an hosil bo‘lganini tushun tirish kerak.Buning uchun yuqoridagi cho‘plar dastasi yoki kvadrat shakllardan foydalanish mumkin. Abak, cho‘p kabi ko‘rgazmalar ham foydalidir. Yirik birliklarda ifodalangan sonlarni maydaroq sonlar bilan almahtirish va aksinchaalmashtirish g amashqlar bajarilish i kerak. Masalan, 2 m, 3 m, 5 m ni sm g a aylantiring. 600 sm necha metrga ten g va h.k. *Yozma raqamlash.* Bu yerda ham oldin ikki xonali sonlarni yozma raqamlashni takrorlash zarur:

1) «Son» va «raqam » atamalarining ma’nolari va ular orasidagi farqlar.

2) Sonlarning yoz ilishida raqam laming o‘rin qiymati.

3) Ikki xonali sonlarning xona tarkibi tah lilig a oid mashqlar bajarilish i kerak. Quyidagi mashqlarni bajarish yozm a raqamlashga oid bilimlarni mustahkam laydi: 1. Sonlarni daftaringizga tartib bilan yozing: 196, 169, 700, 1000**,** 86 **,...**2. Uch yuz bir soni va uch yuz o‘n sonini yozing. 3. 696 bilan 703 soni orasidagi sonlarni yozing. 4.5,7,9 raqam lari bilan yozilad ig an barcha sonlarni yozing. 4 5. 635, 67, 306, 666 sonlardagi 6 raqarni nimalam i bildiradi. 6.6 yuzlik va 3 birlik, 5 o‘nlik va 2 birlik, 10 ta yuzlik, 4 ta o‘nlikdan iborat sonlarni yozing. 7. 71 va 701, 333 va 33, 500 va 501, 600, 601 va 160 sonlarini y o zish uchun nechta raqam va nech ta son kerak. Bu mavzuda asosiy vazifa inglik tushunchasin i tarkib topdirish , sinf tushunchasi mohiyatini aniqlash va shu asosda ko‘p xonali sonlarni o‘qish va yozishga o‘rgatish , bolalarning o‘nlik sanoq tizimiga oid bilimlarini, natural ketma-ketlikni, sonlarni yozishning *pozitsion tamoyillariga* oid bilimlarni va umumlashtirishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Matematika o‘qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O‘qitvchi-1994”
3. www.ziyoz.com kutubxonasi

# KLAVIATURANING TUZILISHI VA U BILAN ISHLASHNING QULAY USULLARI

**Kazakova Sveta Rashitovna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
informatika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada klavyaturaning tuzilishi va u bilan ishlashning qulay usullari haqida so‘z boradi. Unda klavyatura yaqida qiziqarli ma’lumotlar va undan qay usulda foydalanish yoritib berilgan

**Kalit so‘zlar:** Klaviatura, probel, “O‘nta barmoq bilan matn terish” usuli, kursor…

Klaviatura (lot. clavis — kalit) -1) musiqa cholg‘u sozlarida ma’lum tartibda joylashgan klavish (richag)lar majmui, klavish mexanizmi (tovush hosil qiluvchi va uni so‘ndiruvchi richaglar tizimi)ning asosiy qismlaridan biri. 12-asrdan dastlab organyaa, so‘ngra boshqa klavishli musiqa cholg‘ulari qo‘llanilgan. Asosan klaviaturaning ikki turi mavjud: musiqiy va alifbo-sonli. Hozirgi kunga kelib klaviaturaning spektorli galagramma turlari mavjuddir.

Klaviaturadan yaxshi foydalanish uchun biz uni imkoniyatlarini bilishimiz lozim deb o‘ylayman va bu dasturchilar uchun juda muhim, chunki biz uni tez bajarishimiz ham mumkin. Qani endi shularni barchasini ko‘rib chiqamiz. Klaviatura ko‘pincha 101 klavishaga ega. Kursorni bosharish klavishalari klaviatura panelining o‘ng qismida joylashgan. Lekin hali ham 84 klavishali eski klaviatura va yangi Windows sistemasida ishlatish uchun qulay 104 klavishali klaviatura ham uchrab turadi.

Eng qisqa probel tugmasi yaponcha klaviaturalarda bo‘ladi. Har qanday klaviaturadagi eng uzun klavish probel tugmasi hisoblanadi. Ammo Yer yuzidagi eng qisqa probel klavishini yaponcha klaviaturalarda uchratish mumkin. Nega? Chunki yapon tilida matn terayotganda lotin harflari va yaponcha belgilarni aralashtirib yozish kerak bo‘ladi. Shu sababdan, bir yozuvdan boshqasiga o‘tish uchun alohida klavish qo‘shilgan. Natijada, probelning hajmini qisqartirishga to‘g‘ri kelgan. Yaponcha klaviaturalar ko‘rinishi bunaqa bo‘ladi:




**Probel tugmasini bir vaqtning o‘zida 600 000 kishi bosadi.**

Probel haqida gap ketganda, yana bir ma’lumot. Bu tugma nafaqat eng uzun, balki eng ko‘p bosiladigan klavish hamdir. Bo‘sh joy tashlanmay yozilgan matnni o‘qish qiyin bo‘ladi, to‘g‘rimi?

Ma’lumotlarga ko‘ra, matn terayotganda bosilgan klavishlar umumiy sonining 18% i probel ulushiga to‘g‘ri keladi. Bu hali hammasi emas. Soniyaning har 1/10 ulushida butun Yer yuzi bo‘ylab probel tugmasi **600 000 marta** bosiladi. Har safar joy tashlash uchun probelni bossangiz, yana qancha odam bu tugmani siz bilan teng bosishini bir tasvvur qilib ko‘ring...

Klaviatura yordamida kompyuterga turli farmoyishlar beriladi va unga matn kiritiladi. Klaviaturalar uchun yagona standart yaratilgan bo‘lib, barcha ishlab chiqaruvchilar unga rioya qiladilar va klaviaturalar bir-biridan faqat qo‘shimcha tugmalarning mavjudligi va ularning joylashishi bilangina farq qiladi.

Klaviatura va monitor asosiy kiritish va chiqarish qurilmalari hisoblanadi va birgalikda konsol

deb ataladi. Qo'lda ko'tarib yuriladigan kompyuterlarda yuqoridagi uchta qismningalohida-alohida bo'lishi noqulayliklar tug'diradi va ular yaxlit bir blokdan iborat bo'ladilar. Bunday kompyuterlar Notebook(noutbuk deb o'qiladi va«yozuv daftari» degan ma'noni bildiradi) deb ataladi.

**"O'nta barmoq bilan matn terish" usuli.**



Kompyuter bilan ishlashda eng sekin bajariladigan amal matn terishdir. Bu jarayonni tezlashtirish uchun maxsus matn terish usullari ishlab chiqilgan. Ulardan biri o'nta barmoq bilan matn terish usulidir.

Bu usulni o'rganish nisbatan oson bo'lib, uning yordamida bir daqiqada 150-200 belgi(znak) tezlik bilan matn kiritishga erishish mumkin. Eng afzal tomoni, bu usulda klaviaturaga qarash shart emas va ekrandan yoki kiritilayotgan matnning

aslidan ko'zlarni uzmaslik mumkin. Bu usulni o'rganish uchun ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan, ularning ko'pchiligi bepul tarqatiladi.

Bu usulda barcha barmoqlar klaviaturaga joylashtiriladi va asosiy qiyin-chilik barmoqlarning har birini boshqalarini joyidan siljitmasdan qimirlata olishga erishishdir. Bunda, ayniqsa, nomsiz(nikoh uzugi taqiladigan) barmoqqa katta e'tibor qaratish kerak. Buning uchun barcha barmoqlaringizni(bosh barmoqlardan tashqari) stol ustiga qo'ying va ularni birma-bir navbatma-navbat stoldan uzib, yana joyiga qaytaring. Bu mashqni kerakli malaka hosil bo'lguncha takrorlab boring. Barmoqlarning har birining klaviaturada o'z o'rni bo'lib, har qanday tugmani bosganda ham ularning ko'pchiligi o'z o'rnida qoladilar va o'rnidan qo'zg'al-ganlari ham, kerakli tugma bosilgach, yana o'z joylariga qaytib keladilar.

Qo'llaringizning ikkala bosh barmog'ini bo'sh joy tugmasi ustiga, ko'rsatkich barmoqlaringizni ruscha«а» va«о» harfi tugmalari ustiga olib kelib qo'ying. Bu harflarning tugmalarida boshqalaridan farqli ravishda bo'rtib chiqqan joyi bor va shundan foydalanib, ularni qaramasdan topishga erishing. Shundan so'ng barmoqlaringizni«f», «ы», «v», «а» va«о», «l», «d», «j» tugmalariga qo'ying va ularni ham qaramasdan topishga erishing. Mavzu oxiridagi mashqlarni navbatma-navbat bajaring. Bunda klaviaturani sakkizta sohaga bo'lib oling va har bir sohadagi tugmalarni faqat bitta barmoq bilan bosishga o'rganing. Bu sohalar quyidagilardir:

**Ko'rsatkich barmoqlar uchun:**{4, k, a, m, 5, e, p, i} va{6. n, r, t, 7, g, o, ь};

**O'rta barmoqlar uchun:** {3, u, v, s} va{8, sh, l, b};

**Nomsiz barmoqlar uchun:** {2, s, ы, ch} va{9, щ, d, yu};

**Jimjiloqlar uchun:** {1, y, f, ya} va{0, z, j, x, e, ', -, =, \, . }.

Klaviatura kompyuterning asosiy qurilmalaridan biri hisoblanishi va uning yordamida ma'lumotlar hosil qilish mumkinligi avvaldan sizga ma'lum. Klaviaturaning undagi tugmachalar soniga ko'ra bir necha turi mavjud. Har bir tugmachada 1 ta, 2 ta, 3 ta yoki 4 tagacha belgi(harf, son, ishoralar) yoki kursorni boshqarish buyruqlari joylashgan. Klaviatura kompyuterning asosiy qurilmalaridan biri hisoblanishi va uning yordamida ma'lumotlar hosil qilish mumkinligi avvaldan sizga ma'lum. Klaviaturaning undagi tugmachalar soniga ko'ra bir necha turi mavjud. Har bir tugmachada 1 ta, 2 ta, 3 ta yoki 4 tagacha belgi(harf, son, ishoralar) yoki kursorni boshqarish buyruqlari joylashgan. Ushbu tavsiyalarga amal qilsangiz klavyaturadan oqilona foydalanasiz va kompyuter sizning ishlaringizni bir pastda o'z nihoyasiga yetkazadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boltayev B., Mahkamov M., Daliyev A., Azlarov T., Abduqodirov A.Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. 8-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2005.
2. Qo'shimcha ma'lumot uchun elektron manzillar:
3. www.eduportal.uz, www.ziyonet.uz, www.istedod.uz

# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Kosimova Valida Kabiljanovna**
Toshkent shahar Chilonzor tumani
114- umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek o‘quvchilarda mukammal matematik tushunchalar shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirsh haqida tadqiq etiladi.

**Kalit so‘z:** boshlang‘ich ta’lim, matematika, masala yechish,

Matematikani o‘qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

Masala atamasiga turli manbalarda turlicha ta’rif beriladi:Masala-bu bog‘liqli ixcham hikoya. Unda ba’zi kattaliklarning qiymatlari kiritilgan bo‘lib, ularga bog‘liq va masala shartida ular bilan ma’lum munosabatlar orqali bog‘langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi. Masalani yechish - bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish, demakdir. Masala yechish bu masalada bevosita va bilvosita mavjud bo‘lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallarning mantiqan to‘g‘ri ketma-ketligi orqali masalaning talabini bajarish demakdir. Masala yechish bolalarda tafakkurni o‘stiradi. Tafakkur esa- inson ongida obyektiv olamning faol aks etishi demakdir.Istalgan masala uch komponentdan iborat bo‘ladi.

a) masalaning matni, b) masaladagi sonli faktlar, v) masalaning savoli.

Bu uchala komponent oldida ma’lum talablar ham yotadi.

A) Masalaning matni: qisqa, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak.

B) Sonli faktlari: hayotiy, taraqqiyot dinamikamizni ochib beruvchi mantiqan
to‘g‘ri tanlangan, imkoniyat chegarasidan chiqmagan bo‘lishi kerak.

D) Matn oxirida so‘roq gap tariqasida yozilgan aniq savol bo‘lishi kerak.

Bizga ma’lumki, hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchunbajariladigan amallar soniga qarab, sodda va murakkab masalalarga bo‘linadi. Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo‘lgan masala sodda masala deyiladi.

Yechilishi uchun bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta (ular bir xil yoki har xil amal bo‘lishlaridan qat’i nazar) amalni bajarish zarur bo‘lgan masala murakkab masala deyiladi. Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilishi davomida shakllantiriladigan tushunchalarga bog‘liq ravishda turlarga ajratish mumkin. Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma’lum gruppalarga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo‘q. Biroq, metodik mulohazalar bo‘yicha turli-tuman murakkab masalalar majmuasidan ba’zi gruppalarni yo matematik strukturasiga qarab (masalan, yig‘indini songa bo‘lish lozim bo‘lgan masalalar) yoki yechish usuliga qarab (masalan, o‘zgarmas miqdorning qiymatini topish usuli bilan yechiladigan masalalar), yoki konkret mazmuniga qarab (masalan, harakat bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar) ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Matematikaning boshlang‘ich kursida sodda masalalar va asosan 2-4 amalli murakkab masalalar o‘rgatiladi. Zero, murakkab masalalar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchilarda masalalar yechish usullarini umumlashtirish va ularni yechishga ijodiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirishda masalalar tuzish va ularning ko‘rinishini almashtirishga doir mashqlar muhum ahamiyatga ega. Matematikani o‘qitish sistemasida sodda masalalar juda muhim rol o‘ynaydi.Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, sodda masalalarni quyidagi 5 guruhga ajratdik:

1) Ikki sonning yig‘indisini topish.

Tomda 8 ta kaptar bor edi.Yana 5 ta kaptar ular yoniga kelib qo‘shildi. Hamma kaptarlar nechta?

2) Qoldiqni topish.

O‘quvchilar 5 ta qush ini yasashdi. Uchta inni daraxtga ilib qo‘yishdi. Ular yana nechta inni daraxtga ilishi kerak?

3) Bir xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisini (ko‘paytmasini) topish.

Nodir likopchaning har biriga 3 tadan olma qo‘ydi. Agar to‘rtta likopchaga olma qo‘ygan bo‘lsa, hammasi bo‘lib nechta olma qo‘ygan?

4) Teng bo‘laklarga ajratish.

6 ta olma ikkita savatga teng qilib solindi. Har bir savatda nechtadan olma bo‘ldi?

5) Mazmuni bo‘yicha bo‘lish.

O‘quvchilarning har bir guruhi 8 tupdan olcha ko‘chatini tagini yumshatdi, jami 32 tup olma ko‘chatining tagi yumshatildi. Bu ishni o‘quvchilarning nechta guruhi bajargan?

Bizga ma’lumki, masala sharti murakkab bo‘lgan holda, berilganlar orasidagi munosabatlarni tushunib olish qiyin bo‘lgan hollarda, shuningdek, yangi xil masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining analizi ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o‘quvchilar xotirasiga tayanch bo‘lib, son ma’lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini aniq tushuntirish imkonini yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Masala matni bilan dastlabki tanishtirishda, masalaning qisqacha shartini ifodalashda, masala muhokamasida, masala yechilishini yozishda, yechilgan masala ustida ishlash kabi bosqichlarida ayrim xatoliklarni kuzatish mumkin. Ularning asosiy kamchiligi masalaning qisqacha shartini tuzishda ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1.O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonun. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent.:Sharq,1997.

2. A’zamov A. “Yosh matematika qomusiy lug‘ati”-Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati.

3. Hadislar kitobi

4. Bikbayeva N.U. va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” –Toshkent.: O‘qituvchi, 2007.

5. Abdurahmonova N. O‘rinboyeva L. Matematika 2-sinf uchun darslik Toshkent.: O‘qituvchi, 2018, 208 bet.

6. Abdullayeva B. Va boshqalar Matematika: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma –Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-176 bet.

7. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o‘qitishmetodikasi (kasb-hunar kollejlario‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma) – Toshkent.: “Ilm-Ziyo”, 2003,240b

# MAQOLLAR MAVZUSINI ILMIY ASOSDA O‘RGANILISHI

**Matyoqubova Zebo**
Urganch shahar 29-son maktabning
ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi

**Annatatsiya.** Maqolada o‘zbek xalq maqollari va ularnig xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni, mazmun mohiyati, tarixiy ahamiyati aytib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** folklor, badiiy oyna, epizodik xarakter, Zarbulmasal, ibora, so‘z san’atkorlari

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O‘zi va O‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan va qo‘llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining — jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma’no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o‘zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to‘planmay va o‘rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o‘tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e’tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta’bir joiz bo‘lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo‘lsa-da, munosabatda bo‘lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning

«Devoni lug‘otit turk» asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkey xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda.

Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq O‘zbek xalq maqollari maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o‘zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir. O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig‘atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N. Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924), Sh. Jo‘rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O‘.Azimov, O‘. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to‘plamlari nashr etildi. M.

Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R. Rasulov kabi olimlaming tilshunoslik va tarjtmashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y. Chernyavskiy, V. Ro'zimatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi.

Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M.Afzalov boshchiligida tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564,

Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987—1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xiiligi, iboralarning turg'unligi, shakily barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sarimsoqov B. Xalq tafakkurining olmos qatralari. O'zbek xalq maqollari. T.:Fan. 1984.
2. Abdullaev H. Xalq maqollarining "Qutadg'u bilig" poetikasidagi o'rni va badiiy-estetik funksiyalari. Avtoreferat. T.: 2005

# TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Mo'minova Zebo Kamiljanovna**
Xonqa tumani10-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 620 65 75
zm_kamiljanovna6575@inbox.uz
**Jumaniyazova Mahliyo Yusupovna**
Urganch tumani 31-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 221 13 17
jumaniyazova.mahliyo@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Modul, blok, mantiqiy tugallangan qism, modul dasturi, o'quvchilarning o'quv faoliyati, o'quv faoliyati elementlari, modul dasturlarining turlari, modul dasturini yakunlash.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda mashg'ulotda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Har bir modulni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning yaxlit bilish faoliyatining elementi sanaladi, ya'ni bir mashg'ulotda yaxlit tashkil etilishi ko'zda tutilgan o'quvchilarning o'quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o'quv faoliyati elementlaridan tashkil topadi. Agar mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo'lsa, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o'quv faoliyati elementidan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, mashg'ulot yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu mashg'ulotda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi.

Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni an'anaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo'lmaydi, shu sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keldi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning mashg'ulot davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin olgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'lim-tarbiya jarayonining ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv

bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o‘quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. O‘quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi.

Modul dasturidan o‘rin olgan har bir modul yakunida o‘quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o‘tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi.

Ma’ruzada modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o‘qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo‘lishi shart:

1. O‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida o‘quvchilarga qo‘yiladigan o‘quv maqsadlarini belgilash;

2. O‘rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning iyerxargik darajasini tuzish;

3. O‘quvchilarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo‘llarini nazarda tutgan holda o‘quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me’yorlarini belgilash;

4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o‘quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o‘zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;

5. Ma’ruza matni va modul dasturini mashg‘ulotdan bir hafta avval o‘quvchilarga tarqatish;

6. Modul dasturining uch xil turi bo‘lishini nazarda tutgan holda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shaklini aniqlash;

Izoh:

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelmasa, u holda modul dasturining individual ishlash modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirgan holda modul dasturining ikki o‘quvchi hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni ilmiy-nazariy masalalar, tushuncha va atamalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga kelishi tabiiy bo‘lgan holda modul dasturining o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. D. Beverly, D. Shaklee, K. Cushner II. Pedagogicheskoye obrazovaniye dlya XXI veka. - M.: 1994.
3. Adam, R. Tne Process of Educational Innovation I R. - Lnd, 1991.
4. Beverly D. Inquiry Based Teacher Education - Lnd: 1996.
5. Bassett G. Innovation in Primary Education. - Lnd: 1992.

# AUDIO MATERIALLAR BILAN ISHLOVCHI MOBIL ILOVALARNING AHAMIYATI

**Murodov Furqat Ziyodulla oʻgʻli,**
Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti
(+998903108353, furqatmurodov7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada audio materiallar bilan ishlovchi mobil ilovalarning ahamiyati, audio muharrirlarning turlari, ularning ishlash funksiyalari, imkoniyatlari haqidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** mobil ilova, internet va mobil foydalanuvchilar, audio muharrirlar, elektron resurslar, maʼlumotlar ombori.

XXI asr - bu yuqori texnologiyalar asri. Zamonaviy dunyoda odamlar Internetsiz bir kun ham yashay olmaydilar, chunki uning yordamida uydan chiqmasdan juda koʻp foydali maʼlumotlarni olish, virtual suhbatlashish yoki shunchaki koʻngil ochar imkoniyatlardan foydalanish mumkin. 2014 yil oxiriga kelib Internetdan muntazam foydalanadigan foydalanuvchilar soni qariyb 3 milliardni tashkil etgan boʻlsa, 2021 yil boshiga kelib, ular soni 4,66 mlrd foydalanuvchidan oshdi, mobil telefonlardan esa 5,22 mlrd odam Internetdan foydalangan [2]. Har kuni Internet jadallik bilan rivojlanmoqda, yangi saytlar, dasturlar, xizmatlar paydo boʻlmoqda.

Internetga asoslangan dasturlar va xizmatlar bugungi kunda hech qachon boʻlmaganidek, yuqori mashhurlikka erishmoqda. Veb-ilovalar brauzerlardan foydalanuvchi interfeysi sifatida foydalanadi, bu amaliy va oddiy Internet foydalanuvchisi uchun juda qulaydir.

Kundalik turmushda ovozli (audio) maʼlumotlardan keng foydalanamiz. Yaʼni musiqa eshitamiz yoki har xil audio fayllarni tinglashimiz mumkin. Bunday axborotlar aniq bir ssenariy asosida audio tahrirlagichlar yordamida yaratilgandir. Shu singari chet tillarini oʻqitishda, oʻrgatishda yoki oʻqitish jarayonini samarali olib borishda ham koʻpincha bunday maʼlumotlarga murojaat qilamiz. Chunki audio fayllar yordamida yaratilgan materiallarni qoʻllash, yaʼni elektron resurslardan foydalanish til oʻrganish va til oʻrgatishda, umuman darsni tashkil qilish sifatini oshiradi.

Zamonaviy dunyoda, odamlar allaqachon deyarli har kimning choʻntagida audio fayllarni ijro etish funksiyasi boʻlgan Audio Player yoki telefonga ega boʻlishiga odatlangan. Bugungi kunda deyarli barcha telefonlar ovoz yozish moslamasi bilan jihozlangan. Baʼzan ovozli yozish vositasi yoki qandaydir musiqiy trek bilan qilingan audioyozuv boʻlsin, audio faylni qayta koʻrib chiqish kerak boʻladi. Masalan, audio yozuvning keraksiz segmentini kesib tashlashingiz yoki qandaydir effekt qoʻshishingiz kerak. Bundan tashqari, baʼzida bitta audio formatni boshqasiga oʻzgartirishga ehtiyoj bor. Buning uchun audio muharrirlari mavjud. Ovoz muharriri ham ish stoli, ham veb-dastur boʻlishi mumkin.

Audio materiallar bilan ishlash uchun faqat Internetga kirish va veb-brauzer kerak. Hozirgi vaqtda mavjud dasturlarni oʻrganish koʻpincha qiyin, shuning uchun oddiy foydalanuvchi ularni tushunishi juda qiyin. Ushbu odamlar uchun ovozni tahrirlash imkoniyatlari soni emas, foydalanish boʻyicha qulayligi birinchi oʻringa qoʻyilgan. Foydalanuvchi har qanday qurilmadan ilova bilan oldindan maʼlumot uzatmasdan ishlashi mumkin. Ilovani istalgan joyda ishga tushirish mumkin, uning ishlashi uchun Internet va veb-brauzer kerak.

Ovozli materiallarni qayta ishlashga moʻljallangan ilovalar turli xil variant va versiyalarda mavjud: ish stoliga moʻljallangan va webga yoʻnaltirilgan, professional va havaskor vositalar mavjud. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

**TwistedWave** - bu mutaxassislar va yangi boshlovchi foydalanuvchilar uchun dastur. Ovoz fayllarini qayta ishlash va tahrir qilishni qoʻllab-quvvatlaydigan juda kuchli audio muharriri. Ushbu muharrir audio formatdagi fayllarni turli formatlarda eksport qilishni qoʻllab-quvvatlaydi: WAV, AIFF, AU, SND, SD2, MP2, MP3, MP4, FLAC, m4r, m4a (ITunes). Ushbu mahsulot MacOS operatsion tizimida ishlaydi, iPhone / iPad uchun dastur versiyalari ham mavjud.

**File Lab Audio Editor** - bu audio materiallarni tahrirlovchi bepul web-ilova hisoblanadi. Uning ishlashi uchun sizga maxsus plagin oʻrnatilgan brauzer kerak. Plagin faqat Windows tizimida ishlaydi. Ushbu audio muharrir turli xil zamonaviy formatdagi audio yozuvlarni tahrirlash va yuklab olish imkonini beradi: MP3, WAV, WMA, M4A, AMR, M4R, AIFF, M4B, OGG, AAC, FLAC va boshqalar.

**HTML5 Audio Editor** - bu audio materiallarni tahrirlash uchun bepul web-ilova. Ushbu dastur

Flash, Silverlight kabi qo'shimcha plaginlardan foydalanmaydi. HTML5 Audio Editor dasturi HTML va JavaScript yordamida yozilgan. Ushbu dastur Internet Explorerdan tashqari barcha zamonaviy brauzerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu dastur prototip bo'lib, tugallanmagan, shuning uchun uning ishlatilishiga ta'sir qiladigan ko'plab nuqsonlar va xatolar mavjud. HTML5 Audio Editor audio muharriri mobil brauzerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi.

**mp3DirectCut** - bu audio tahrirlash uchun bepul ish stoli dasturi. Ushbu dastur faqat Windows operatsion tizimida ishlaydigan kompyuterlarda ishlaydi. Mp3DirectCut yozuvlar qismlarini kesib olish, qirqish, nusxalash va joylashtirish, audio fayllardagi tovush darajasini kuchaytirish va kamaytirishga imkon beradi.

**Sound Forge** – Sony ning taniqli bo'limi Sony Creative Software ning juda kuchli audio muharriri. Ushbu audio muharrir professional va yarim professional foydalanish uchun mo'ljallangan. Sound Forge yordamida siz ovozli kompozitsiyalarni yuqori sifatli yozib olishingiz va qayta ishlashingiz mumkin. Ushbu dastur ko'plab audio va video formatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, audio materiallarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan audio muharrirlar, mobil ilovalar yordamida ovozli, musiqali, audio ma'lumotlarni tahrirlash imkoniyati mavjud. Bunday imkoniyatga ega bo'lgan mobil ilovalardan foydalanish audio ma'lumotlarni tahrirlash uchun qulay hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фримен Э., Фримен Э. Изучаем HTML, XHTML и CSS Head First HTML with CSS & XHTML. – П.: «Питер», 2010.
2. https://www.web-canape.ru - sayt materiallaridan olindi.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Sound_Forge - sayt materiallaridan olindi.

# SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA PSIXOLOGIK AJRALISHNING TA'SIRI

**Musinova Nozira Mirzadjanovna**
Buxoro Davlat Universiteti magistranti

**Annatatsiya:** Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Shunday ekan bu maqolada aynan tashqi omillar haqida gaplashamiz:yani insonning har tomonlama ijtimoiy moslashuvi bu avvalam bor oilada boshlanadi. Shu sababdan shaxsning ijtimoiy moslashuvi nima ? Ajralish va uning oqibatlarini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy moslashuv - bu insonning ayrim biosotsial funktsiyalarni bajarish qobiliyatini aks ettiruvchi, Davlatning integral ko'rsatkichi hisoblanadi. Ya'ni tòliqroq qilib aytadigan bo'lsak:

● Boshqalar bilan munosabatlar va aloqalarning butun tizimi;
● Boshqalarning rol kutishlariga muvofiq xatti-harakatlarning o'zgaruvchanligi (moslashuvchanligi);
● Atrofdagi voqelik va o'z organizmini etarli darajada idrok etish;
● Ishlash, o'qish, bo'sh vaqt va dam olishni tashkil etish qobiliyati;

Ijtimoiy moslashuv jarayonida nafaqat shaxsni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi, balki uning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini amalga oshirish ham amalga oshiriladi. Shaxsiyat yangi ijtimoiy muhitga kirib, uning to'laqonli a'zosiga aylanadi, o'zini tasdiqlaydi va individualligini rivojlantiradi. Ijtimoiy moslashuv natijasida jamiyatda qabul qilingan aloqa, xulq-atvor va obyektiv faoliyatning ijtimoiy sifati shakllanadi, shu tufayli inson o'z intilishlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini amalga oshiradi va o'zini o'zi belgilay oladi.

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Nima uchun oilalar buziladi ? Ajralish o'zi nima ? Ajralish bu yaxshimi yoki yomonmi ? Oilalarning ajralishiga yo'l qo'yish kerakmi ? Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ajralishlarning eng salbiy tomoni o'sib kelayotgan yosh avlodning psixologik moslashuviga yomon ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, ota-onalarining ajrashishidan keyin bolalarning psixologik moslashuviga ta'siri o'rganildi. Bunda alohida oilalardan hamda ajrashmagan oila bolalarida o'tkazildi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi o'zgaruvchilar buzilmagan oilalar farzandlariga qaraganda ajralgan oilalar bolalarining psixologik holatini taxmin qilishda ko'proq yordam beradi. Daromadning yetishmasligi, oilaviy hayotdan qoniqmaslik, qo'llab-quvvatlash tarmog'ining zichligi va salbiy o'zaro ta'sirning yuqori darajasi bolalarning xulq-atvoridagi muammolarni yuzaga keltiradi.

Ajralishning bolalarga ta'sirini o'rgangan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ajralish bolalarida ko'rilgan ko'plab psixologik alomatlar ajralishdan oldingi yillarda hisobga olinishi mumkin. So'nggi o'n yil ichida, shuningdek, bolalar va o'spirinlarning moslashuviga, shu jumladan, oilaviy mojaro va zo'ravonlik va shu bilan bog'liq ota-onalarning xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadigan nikohdagi murakkab o'zgaruvchilarni baholash bo'yicha tadqiqotlar katta darajada o'sdi. Ushbu yangi adabiyot sud va klinik psixiatrlari uchun uylangan va ajrashayotgan oilalar bilan ishlashda provokatsion va foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ajrashgan ota-onalarning bolalari, guruh sifatida, hech qachon ajrashmagan ota-onalarning farzandlariga qaraganda ko'proq moslashish muammolariga duch kelishsa-da, salbiy oqibatlarni

hujjatlashtirgan yangi tadqiqotlar asosida, ajralish o‘z-o‘zidan ushbu alomatlarning asosiy sababi hisoblanadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Oilaviy xayot etikasi va psixologiyasi. O.To‘raeva. Tosh-t. o‘qit. - 1990.y.
2. Yusupov E., Ismoilov. Inson odobi bilan. T., o‘zb-n., 1983.y.
3. Talabalar uchun psixologiyasidan topshiriqlar. L.P.Xoxlova. T., o‘qit. - 1992.y.
4. Psixologiya v semье. I.Plotnieks. Moskva. «Pedagogika» 1991.y.
5. Oila tayanchi.Ilmiy maqolalar to‘plami., Toshkent - 1998.y. T.D.P.U.

# ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMNING ZAMONAVIY METODLARI.

**Nazarova Gulrux Adizovna**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli
42-umumiy o'rta ta'lim maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi .

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning ona tili fani asosida savodxonlik darajasi, ularning fanni chuqurroq o'zlashtirishi uchun metodik fikrlar kabilar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, hayot,bilim darajasi.

Bugungi kunda pedagogika fanida noan' anaviy dars, zamonaviy dars degan iboralar tez- tez qo'llanib turiladi. Zamonaviy darslar shunday darslarki, unda o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy patensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi esa o'z navbatida bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va ma'naviy barkamollik sari qadam tashlaydi. Biz O'zbekistonimizni dunyoga tanitmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlari xotirasida saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar yozma nutqini o'stirishdir. Har bir darsda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini uyg'unlikda o'stirish ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Aksariyat o'quvchilar og'zaki tarzda chiroyli fikr yuritishadi, biroq yozma bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning sababi ulardagi yozma nutq malakasining yetarlidarajada rivojlanmaganidir. <u>Lug'at ustida ishlash orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish</u>

Yozma nutq turli yozma ishlar ko'rinishida amalga oshirilib uning sifati fikrning mustaqil ravishda bayon etilishi bilan belgilanadi.

Yozma ishlar, asosan, ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Asosiy yozma ishlar.
2. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar

Yozma ish turlarini quyidagicha tasniflash mumkin

Asosiy yozma ishlar: diktant, bayon, insho.

Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar:

- Lug'at ustida ishlash;
- Dialoglarni o'zlashtirma gaplarga aylantirib yozish;
- Savollarga javob yozish;
- Matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib yozish.

Darsliklarda lug'at bilan ishlash mavzusi 1 soatga berilgan. Shu bilan birga matn ichidagi tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohi keltirilgan.

Bunday matnlar bilan shug'ullanib borish o'quvchilarni yozma savodxonligini oshirishda muhim omillardan biri sanaladi.

O'quvchilarda yozma nutqini o'stirishda **"Topqir suxandon"**, **"Fikrlar charxpalagi"**, **"Jumboqli maqollar"** kabi ta'limiy o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

M: "Kim zukko va topqir" deb nomlangan ta'limiy o'yinida berilgan matndagi mustaqil va yordamchi so'zlarni guruhlarga ajratib ko'chirib yozing.

**"Topqir suxandon"**

Bu ta'limiy o'yin bugungi zamonaviy axborot texnalogiyalari asosida dars o'tish tizimiga muvofiq electron doska orqali tashkil etish mumkin. Bu o'yinning afzalligi shundaki, uni barcha mavzularni o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. Bunda o'quvchi yanglishishi mumkin bo'lgan so'zlar electron doska orqali xato yozib ko'rsatiladi. O'quvchilar navbatma- navbat xatolarini to'g'rilab yozadilar. Natijada o'rganilayotgan mavzu ham, so'zlar imlosi ham o'quvchi xotirasida muhrlanadi.

M: Hayol, baht, muhabbat, xamjihatli, baxor, halq, mexnatsevar, xasad, axllik, hurramlik. Bu usul orqali o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllanadi.

**"Fikrlar charxpalagi"**

Bu usulda o'qituvchi doskaga 10 tagacha so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar bir necha daqiqa davomida bu so'zlarni eslab qolishga harakat qiladi. Shundan so'ng doskadagi yozuvlar o'chiriladi, o'quvchilar xotiralari asosida so'zlarni daftarlariga yozadilar. Tekshirish jarayonida o'qituvchi

past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni birma- bir doskaga chiqarib, so'zlarni yozdiradi va xatosini o'quvchilar bilan birgalikda tekshiradi. Qolgan o'quvchilar yozganlarini daftarlarida tekshirib boradilar. Bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ham ishlash va vaqtdan unumli foydalanish maqsad qilingan.

**"Jumboqli maqollar"**

Bu ta'limiy o'yin mavzuni mustahkamlash uchun qo'llanib, o'quvchini mushohada yuritishga undaydi, tafakkurini boyitib, xotirasini rivojlantiradi. Guruhlardagi har bir o'quvchiga "X va H" undoshlari qatnashgan maqollar yozilgan tarqatmalar beriladi. Afzalligi shundaki, bu usulda barcha o'quvchilar ishtirok etadi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga x va h undoshlaridan mosini qo'yib, maqollarni izohlab beradilar.

**Namuna:**

1. Yer …aydasang, kuz …ayda.

Kuz …aydamasang, yuz …ayda.

2. Kattaga …urmatda, kichikka izzatda bo'l.
3. Ba…ilning bog'I ko'karmas.
4. Dara…t bir joyda ko'karadi.

Ta'lim jarayonida bu usullarni qo'llashda o'quvchilarni yozma nutqi boyitiladi, rivojlantiriladi, so'z boyligi orttiriladi, xotirasi mustahkamlanadi. Ularni barkamollik sari yetaklaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnalogiyalar" M. Yo'ldashev, R. Ishmuhammedov Toshkent- 2013

2. 5- sinf Ona tili darslik N. Mahmudov

# INFORMATIKA FANINI O‘QITISH VA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH

**Nurmetova Dilnoza Sultanmuratovna**
Xorazm viloyati Yangibozor tumani 4-son umumta’lim maktabi
informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida informatika fanini o‘qitish masalalari, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash, informatikadan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkillashtirish masalalari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** informatika, dars, axborot, innovatsiya, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, elektron darslik, multimedia, texnologiya.

Umumta‘lim fanlarini chuqur o‘rganishda informatika fanining, komputer xizmatlarining ahamiyati juda katta. Informatika va axborot texnologiyalari fanining dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalarning asosiy jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tashkil etish;
- hamkorlikda olib borish;
- takomillashtirish;
- tahlil qilish;
- qiyoslash;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish;
- boshqarish;
- nazorat etish;
- baholash.

Dars jarayonining samaradorligini oshirish uchun: darslarda interfaol elektron didaktik vositalar, multimedia ilovalar, audio vizual elektron darsliklar, immitatsion o‘quv vositalar, online muloqatlar va boshqalardan foydalanish katta samara beradi.

XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. “Elektron hukumat”, “elektron uy”, “elektron tijorat”, “elektron ta‘lim” kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol bo‘lib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot man‘basi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma‘lumotlarni qayta ishlash va takomillashtirishni talab qiladi.

Informatika bo‘yicha darslar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va ixtiyoriy darslarini tashkil etish shakllari va uslublari mazmunidagi izchillik informatikani o‘qitish maqsadlari, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash orqali belgilanishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan informatika bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar maqsad va vazifalarini e‘tiborga olib, darsdan tashqari mashg‘ulotlarlarning mohiyatini aniqlash va tashkil etishga xarakterli bo‘lgan uslubiy va maxsus prinsiplarini ko‘rib chiqamiz.

Informatikani o‘qitishda tarixiy materialdan foydalanish prinsipilari umumta‘lim maktabida yaxshi qabul qilinadi. Tarixiy material yaxshi esda qoladi; informatika rivojlanish tarixi asosiy fikr va uslublarining shakllanishiga xizmat qiladi. Fan tarixi uning harakatlanuvchi kuchini ko‘rishga, insonning ilmiy ongi va amaliy faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini kuzatishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarning dialektik- materialistik dunyoqarashi va ilmiy fikrlashining shakllanishiga yordam beradi.

O‘quvchilarda vatanparvarlik xissini shakllantirish uchun qadimgi Sharq buyuk olimlarining ilmiy natijalari bilan tanishtirish kerak (Al Xorazmiy; Al Beruniy). O‘zbekistonda kibernetikaning rivojlanishini bolalar qiziqib eshitadilar. Informatikani o‘qitish va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biri bu ijodiy vazifalarni yechish, loyihalashtirish, konstruktrlash va modellashtirish hisoblanadi. Bu uchun EHMdan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday vazifalarni yechish va dasturlash tilida dastur yozish o‘quvchilarda mustaqil ishlash malakasini oshiradi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘qituvchilar tomonidan informatikaga qiziqqan o‘quvchilar bilan o‘tkaziladi. Bu ishni o‘qituvchi rejalashtiradi va kerakligicha aniqlashtiradi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllariga:

– to‘garaklar,
– disputlar,
– konkurslar,
– kechalar,
– leksiyalar,
– devoriy gazetalar kiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlarning to‘rt xil murakkablik darajada tuzilishi va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, shu bilan birga ushbu fanga qiziquvchi talabalar intellektual o‘zlashtirish darajalariga mos topshiriqlar bilan ta‘minlanadi va bilimlarning talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirilishiga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. S.S.G‘ulomov, B.A.Begalov  Informatika va axborot texnologiyalari.
2. Umumta‘lim maktablarining informatika fani darsliklari.
3. O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva  Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.
4. Internet malumotlari.

# BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA QOG'OZDAN AMALIY ISHLAR TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.

**Nurmuhamedova Xulkar Xikmatullayevna**
Toshkent shahar Chilonzor tumani
114- umumta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf mehnat darsida, darslarni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilara nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, ularni ijodiy fikrlash ga undash, shuningdek dars jaryoniyda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini o'stirish haqida tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ijtimoiy ishlab chiqish, qog'oz, mehnatga ishlov berish,

Ta'lim jamiyatning taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan shunday mexanizmki, bunda o'qituvchi asosiy figura bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun ustozi u qaysi fan o'qituvchi bo'lishidan qat'iy nazar o'z istida ishlashi , shuning birga ma'suliyatni xis qilishi, hamda ijodkor bo'lishi lozim. O'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq mehnat yoki hunarga o'rgatish, ularda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, bilim ko'nikmalarni xosil qilishdek ustuvor vazifalar mehnat ta'limi o'qituvchisining zimmasidadir.

Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda qog'ozga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar qog'ozdan eng oddiy buyumlarni tayyorlash ishlarini eslab qolishga qodir emaslar.

Qog'ozga ishlov berishda hosil qilingan ko'nikmalar takror mashq qilishlar natijasida takomillashtirib boriladi. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Qog'ozdan amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo'l asboblaridan foydalanishning o'ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Dars boshida o'qituvchi biror mavzu bo'yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, ya'ni qayerda ishlatilishini tushuntiradi, so'ngra o'quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo'laydilar.

Qog'ozdan buyumni tayyorlash usullarini o'qituvchi sinf doskasiga osib qo'yilgan yo'llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko'rsatadi. Shundan so'ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o'tadi.

Mehnat ta'limida qog'ozdan amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Dars jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g'adur-budurligi bilan tanishadilar. Ba'zi narsalarni tayyorlashda bolalar elimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor elimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, elimlashni o'rganishlari kerak.

Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan uzlashtirish oladilar. Qog'oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo'yicha mehnat ta'limida keng ko'llaniladi.

Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko'rinishidagi yig'ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yig'ma chizmani o'qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o'lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko'rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o'lchami shakli qanday bo'lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to'g'ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilar oldindan qo'yidagi tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni olib tayyorlaydilar. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerakli bo'ladigan narsalarni yozib

oladilar.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo‘yishlari kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Barcha fanlarda qo‘llanilganidek qog‘oz bilan ishlash darslarida ham ta’limning ko‘rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, sxematik namuna, turli predmetlardan shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. R.Mavlonova ―To‘rtinchi sinf mehnat darslari‖ T. ‖O‘qituvchi‖ 1989 y.
2. R. Hasanov, H. Egamov ―Tasviriy sa’nat va badiiy mehnat‖ T.O‘qituvchi‖ 1997 yil.
3. V. Pereverten.―O‘quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish‖ T.―O‘qituvchi‖. 1990y.
4. Nurmatova M.SH. Hasanova Sh.T ―Yumshoq o‘yinchoqlar‖ Toshkent. TDPU. 2005 y

# O‘ZBEK TILIDAGI SIFATDOSHNING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

**Otaboyeva Ozodaxon Anvarjonovna**
Farg‘ona shahar 3-maktab
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

**Abstract:** This article describes the structural and functional features of the Uzbek language participle. Participle is a quality-specific form of a verb.

**Key words:** participle, verb, affix, noun, past tense

**Аннотация:** В данной статье описаны структурные и функциональные особенности причастие узбекского языка. Причастие— это форма глагола, определяющая качество.

**Ключевые слова:** причастие, глагол, аффикс, существительное, прошедшее время

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek tilidagi sifatdoshning strukturaviy-funksional xususiyatlari yoritib berilgan. Sifatdosh bu fe’lning sifatga xoslangan shaklidir.

**Kalit so‘zlar:** sifatdosh, fe’l, affiks, ot, o‘tgan zamon

Har bir til, shu jumladan o‘zbek tili ham sifatdoshlar kategorial semantikasini ifodalovchi vositalarga ega.

Sifatdosh- o‘zbek tili morfologiyasi eng muhim tarkibiy qismlarlaridan biri bo‘lib, nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunoslaridan sifatdosh haqida dastlab mukammalroq to‘xtagan tilshunos R.Jumaniyozovdir. R.Jumaniyozov M.Asqarova bilan hamkorlikda ravishdosh va sifatdoshga bag‘ishlab e’lon qilgan risolasida sifatdoshni ancha chuqurroq tahlil etib bergan. Risolada asosan sifatdosh fe’lning xoslangan shakli sifatida tadqiq etiladi. Bunda u predmetning harakat belgisini sifatlovchi vazifasini bajaradi, shu xususiyatiga ko‘ra sifatga yaqin turadi deb ko‘rsatadi. R.Jumaniyozov sifatdoshni asosan morfologik kategoriya sifatida qaragan va talqin etgan.

Quyida o‘zbek tili va ingliz tilidagi sifatdoshlarning strukturaviy-funksional xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi, gapda aniqlovchi bo‘lib kelishi bilan sifatga o‘xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg‘un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o‘zgarish, harakat belgisini ifodalaydi.

Fe’lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdoshlar fe’l asoslariga -gan (-kan,-qan), -ydigan(-adigan), -(a)yotgan, -(a)r qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

Sifatdoshlar fe’l shakli bo‘lganligi uchun fe’lga xos bo‘lgan zamon, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat ma’nolarini ifodalaydi: o‘qigan- bo‘lishli, o‘tgan zamon, aniq nisbatda. Shuningdek, sifatdoshlar xuddi sifatga o‘xshab otning belgisini bildiradi, qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi va gapda aniqlovchi va kesim vazifalarini bajaradi.

Sifatdosh, asosan, quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1.-gan (-kan, -qan). Bu qo‘shimcha nutqda eng faol qo‘llanadi. Sifatdoshning -gan (-kan, -qan) qo‘shimchasi shaxs-narsalarning o‘tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydi.

Bu qo‘shimcha unli bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilib, -gan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilib, -kan holida talaffuz qilinsa ham, -gan yoziladi. Masalan: ko‘chgan, o‘sgan kabi.

Jarangsiz q undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda -qan, k undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda -kan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (tiq-tiqqan, tik-tikkan).

Jarangli g‘ undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda -qan holida talaffuz qilinsa ham -gan yoziladi (tug‘-tug‘gan).

2. -digan, -yotgan. Bu affikslar -gan affiksi bilan bo‘glangan: keladigan, kelayotgan, o‘qiydigan, o‘qiyotgan, yoziladigan, yozayotgan kabi.

3. –(a)r. Sifatdoshning bo‘lishsiz shakli fe’llardagi kabi -ma qo‘shimchasi yordamida yasaladi. –(a)r qo‘shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlarga -ma qo‘shimchasi qo‘shilganda -r tovushi -s ga aylanadi. Masalan, kelar-kelmas.

4. -ajak: borajak (yer), bo‘lajak (hosil), kelajak (zamon), yozilajak (she’r).

5. -gusi, -g‘usi; kelgusi (avlod), bolg‘usi (ish) kabi. –(a)jak, -gusi, -g‘usi bilan yasalgan

sifatdoshlar hozirgi o'zbek tilida arxaik hisoblanadi.

6. –(u)vchi: keluvchi, kutuvchi, boshlovchi kabi. Bu sifatdosh narsaning doimiy harakat belgisini bildiradi. Masalan: Pishqiruvchi vahshiy daryoga ko'rsatilar tamom yangi yo'l. (H.Olimjon)

Sifatdoshlar ot o'rnida qo'llanilib, ot vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni otlashadi. Bunda ular ot kabi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va undalma vazifalarida keladi.

Sifatdosh fe'lning funksional shakllaridanbiri bo'lib, narsaning harakat va holat belgisini ko'rsatadi, odatda, sifatlovchi vazifasida keladi:

Sifatdoshning belgilari:

a) harakat tushunchasini anglatadi. Masalan: U doimo ***izlanadigan***, doimo harakatda ***bo'lgan***, parvozga ***chog'langan*** ilg'or kishilarimizdan bir. (I.Rahim);

b) nisbat, o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Tirqishdan qarab ***turgan*** Hayot o'zini chetga oldi. (M.Ismoiliy). ***Kiyingan*** bola (o'zlik), ***o'qilgan*** kitob, ***chaqirilgan*** mehmon (majhul) kabi;

v) boshqa so'zlarni boshqarib keladi: Anorxon o'z Vatanini chin yurakdan ***sevgan***, o'z ishiga ko'ngil ***qo'ygan*** qiz. (I.Rahim);

g) shaxs va narsaning harakat bilan bog'liq belgisini bildirib, gapda sifatlovchi vazifasida keladi, sjaklan o'zgarmaydi: Do'stlik ***bo'lmagan*** joyda ishning rivoji ham bo'lmaydi. (S.Zunnunova)

d) otlashib kela oladi. Bu vaqtda ot singari kelishik, egalik affikslarini qabul qiladi va shunga mos vazifada keladi: ***Maqtanganning*** uyini, ***kerilganning*** to'yini ko'r.

e) shaxs-son affiksi bilan tuslanib, fe'lning aniqlik mayliga xos zamon shakllarini hosil qiladi. Narigi yoqdagi go'zal favvoralar qurilishi endi ***boshlangan***. (P.Qodirov)

Sifatdoshlar ifodalagan zamon nisbiy bo'ladi. Harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabatini bevosita ko'rsatmaydi. Uning qaysi zamonga tegishliligi gapning kesimi orqali anglashilgan vaqtga yoki gapning umimiy mazmuni bildirgan vaqtga nisbatan belgilanadi.

Sifatdoshning asosan otga bog'lanib, otni aniqlab kelishi, sifatdoshning funksiya va ma'noda sifatga yaqinlashib kelishini shartlagan.

O'zbek tilidagi sifatdoshlar o'zlarining leksik ma'nosiga ko'ra, predmetlarning harakat belgilarini ifodalab aniqlab keladi. Sifatlar ham belgi tasavvurini ifodalaydi. Lekin sifatlar ifodalagan belgilar statik- "passiv" belgilar bo'lib, sifatdoshlar ifodalagan belgilar aktiv o'zgaruvchan, dinamik belgilardir. Quyida keltirilgan misollardagi sifatdoshlar bilan sifatlarning leksik ma'nosini qiyos qilish: yuradigan bola…, katta shahar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Rasulova "Ona tilidan ma'ruzalar", Toshkent, "Nurafshon ziyo yog'dusi", 2017
2. Q.Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent, 2009

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QISH DARSLARIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

**Qutlimurotova Ziynat Xolmurotovna**
Xorazm viloyati, Shovot tumani
3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishda uyda bajariladigan topshiriqlarni tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari chuqur tahlil etilgan. Uyga vazifalarni tashkil etishda rejalashirish va unga o‘rgatishning didaktik shart- sharoitlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, uyga vazifa, mustaqil fikr, faoliyat, tizimli yondashuv, matn, mantiqiy tafakkur, qayta hikoyalash, samaradorlik.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha halqaro dastur PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtirokini ta’minlash asosiy ustuvor maqsadlardan biri ekanligi takidlangan. O‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot (PIRLS) da qatnashishiga va samarali natijaga erishishida boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslaridan tashkil etiladigan uyga vazifalarning ham o‘rni beqiyosdir.

O‘quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o‘qituvchi nimani so‘rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar og‘zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir-ikki marta qayta o‘qiydilar. Ba’zilari hatto o‘qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo‘lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o‘lchovi matnni qayta hikoyalashdan iborat bo‘lib qoladi. O‘qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina harakat qilinadi.

Uy vazifasini ma’lum reja asosida tayyorlash ham o‘quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilgan o‘quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg‘ulotlarga o‘ziga ishongan holda qatnashadi. Uy vazifalarini ma’lum reja asosida bajarish bolalardan o‘quv materialiga ongli ravishda yondashishni talab qiladi. Yaxshi tuzilgan reja o‘quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o‘rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to‘g‘ri xulosalar chiqarishga undaydi. O‘z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o‘rgatadi. Uy vazifalarini og‘zaki tarzda bajarishda o‘quvchilar matn yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlarga murojaat qilmaydilar, ular bilan ishlamaydilar. O‘qituvchilar ham uy vazifasini so‘rashda ko‘pda bunga e’tibor qilmaydilar. O‘quvchilardan uy vazifasini so‘rash jarayonida nafaqat ularning olgan bilimlarini aniqlash, balki bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va tizimga solish bo‘yicha keyingi ishlar ham tekshirilishi kerak. Bu bilan o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari va o‘qiganlari asosida mulohaza yuritishlariga keng imkoniyat yaratiladi.

Uy vazifalarini og‘zaki so‘rashning faqat o‘quvchi xotirasiga tayanib javob berishi talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so‘rash o‘qituvchi bilan bitta o‘quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o‘quvchilar unda ishtirok etmaydilar. Uy vazifalarini darsda ko‘tarilgan asosiy savol muhokamasi natijasiga qarab shakllantirish o‘quvchilarni darsda o‘rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga, o‘qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o‘rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo‘ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o‘z so‘zlari bilan etkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta’limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o‘ta muhim hisoblanadi. O‘quvchilar fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

Agar darslarda uy vazifalarini so‘rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya’ni o‘quvchining hodisa tahlili va u bilan bog‘liq faktlarni umumlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari, imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so‘rash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini so‘rash jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha u yoki bu hodisani bayon qiladilar, lekin unga

baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, o‘qituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni hech qachon talab qilmagan. Sababi, buni o‘qituvchining o‘zi ham bilmaydi. O‘quvchilarda voqea-hodisani baholash, unga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini so‘rash paytida o‘quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga o‘quvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning o‘zlariga ham katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarida badiiy asar ustida ishlash uchun o‘quvchilarga matn asosida reja tuzish va o‘qilganlarini reja asosida qayta hikoyalash ko‘p taklif qilinadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarda reja tuzish ko‘nikmalari shakllanishiga e’tibor qaratishi, ular asar qismlarining mantiqiy aloqasini qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlab borishi kerak. Odatda, o‘qituvchilar topshiriqning ikkinchi qismiga, reja asosida asar matnini qayta hikoyalatishga ko‘proq urg‘u beradilar. Shuning uchun o‘quvchilar yuqori sinfga borganda ham insho yozish uchun reja tuzishga qiynaladilar. Asar matnini qayta hikoyalash, ayniqsa, yuqori sinflarda, hatto, u ijodiy xarakterda bo‘lsa ham, o‘quvchining ma’naviyati uchun etarli manba bo‘lolmaydi. U boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining nutqini o‘stirishi mumkin, xolos. Reja tuzishni o‘rgatishdan maqsad o‘quvchining tasavvuri va tafakkurini uyg‘otish, uni muhimni nomuhimdan ajratishga, bilganlarini tizimga solishga o‘rgatishdir.

**Adabiyotlar**:

1. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. 167-b.

2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2017. – 368 b.

# PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI

**Rahimova Sevara Atabayevna**
Xiva shaxar 18-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 437 98 45
rahimova.sevara_18@inbox.uz
**Xodjayeva Svetlana Abdusharipovna**
Xiva shaxar 3-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 600 67 09
svetlana_abdusharipovna0909@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bilim, ko‘nikma va malakalarida bo‘shliqlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik mahorati, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, boshqaruv, oshkora axborot almashish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo‘lgan talablar kompleksini belgilaydi. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o‘quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta’lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi. Ma’lumki, inson har doim o‘sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to‘g‘ri tushunishlari lozim. Har bir o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta’sirida amalga oshiradi.

O‘qituvchining faoliyatiga ta’lim muassasidagi bugungi sharoithamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarli amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli tasir qiladigan odamlar guruhi bo‘lgan pedagogik jamodagi shakllangan ta’limiy muhit o‘z hukmini o‘tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo‘lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Foyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma’naviy va boshka jabhalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani tayinlangan rahbar boshqaradi. Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta’sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog‘lik bo‘lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, «boshqaruv» tushunchasi, «rahbarlik» tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatidaqator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy- pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uninazorat qilishni amalga oshiradi va xokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh o‘qituvchining o‘zi tanlagan kasbga mehr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlanishiga ko‘p qirrali ta’sir qiladi. O‘z navbatida rahbar jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatda, maqsadga intilishda, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo‘lishi zarur, bundan jamoaning xar bir a’zosi o‘ziga xos ta’sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o‘zaro ta’sirning ikki yo‘nalishini, o‘qituvchining jamoaga va jamoaning o‘qituvchiga ta’sirini va bu o‘zaro ta’sir ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

O‘qituvchining jamoaga ta’siri uning obro‘si, bilimi, dunyokarashi, o‘zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o‘z fanini puxta bilishi, o‘quvchilar bilan munosabati, o‘z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi, faolligi va tashabbuskorligi singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning obro‘si deganda o‘qituvchining mutaxassis sifatida jamoa tomonidan tan olinishi, sub’ektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob’ektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda o‘qituvchining bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko‘ra ko‘proq ko‘zga tashlanishiga va obro‘

orttirishiga sabab bo‘ladi. Obro‘ga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo‘ladi, jamoada uning fikr-muloxazalariga quloq soladilar, undan maslahat so‘raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro‘ orttirishda shaxsiy sifatlarning o‘zigina yetarli bo‘lmay, u yoki bu o‘qituvchi haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchining jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo‘k, bu esa jamoaning o‘qituvchiga bo‘lgan ta’siridir. Ya’ni, jamoa o‘qituvchining ayrim sa’yharakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamoa bilan o‘qituvchining o‘zaro ta’siri ikki xil, ya’ni ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijobiy ta’sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta’lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, o‘qituvchilarning muvaffaqiyati hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, o‘qituvchining ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o‘z ismini boshliqdan eshitish yoqimli bo‘lishini esda tutishi) zarur. O‘qituvchiga nisbatan diqqat-e’tiborli bo‘lish, suhbatdoshini o‘zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho‘chimaslik, o‘qituvchiga uning jamoa uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir o‘qituvchining kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e’tirof etish kabi rahbarlikning eng maqbul uslublarini o‘z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Talim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe’l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo‘lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo‘ladigan o‘qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo‘lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ta’lim muassasasiga yangi kelgan yosh o‘qituvchilar jamoadagi tajribali o‘qituvchilarning faoliyatini, ularning o‘z funksional vazifasiga bo‘lgan munosabatini va u yerdagi shart-sharoitlarni to‘la o‘rgangunga qadar turlicha tasavvurga ega bo‘ladilar. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» deganlaridek, yosh o‘qituvchining ta’lim muassasasidagi shart-sharoitlarni, mazkur ta’lim muassasasida o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarni hamda yuklatilayotganvazifalarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko‘nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyatini va ularning o‘z ishlariga bo‘lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei hamda qo‘l ostidagilar bilan munosabatlarini o‘rganib, tahlil qilib, ijobiy xulosa chiqargan holda o‘z ustida ishlashi, izlanishi, tajriba opttirib borishi uchun mazkur ta’lim muassasasida qulay ta’limiy muhit hukmdor bo‘lishi zarur, aksincha yosh o‘qituvchilar loqayd bo‘lib qolishi mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina yosh o‘qituvchilar ancha vaqtgacha ta’lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo‘lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishmoqda. Buning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim ta’lim muassasalarida jamoaning yosh o‘qituvchilar bilan o‘zaro ta’siri (salbiy hususiyatlarga ega bo‘lib, rahbar va uning qo‘l ostidagi xodimlar yosh o‘qituvchiga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. Yosh o‘qituvchining izlanishi, bilimi, o‘z faniga bo‘lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o‘quvchilar o‘rtasida tez obro‘topayotganidan xursand bo‘lish hamda uni rag‘batlantirish o‘rniga uning yoshligini ro‘kach qilib, turli xil arzimas sabablarni bahona qilib yig‘ilishlarda uyaltirish, obro‘sini tushirish uchun qilingan xatti-harakatlar ta’lim muassasasidan bezib ketib qolishlarga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2016): PISA 2015 natijalari: Muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar uchun strategiya va amaliyotlar (II Bob).
2. J. Shustereder (2014): Yevropa Ittifoqida va Markaziy Osiyoda O‘qituvchilar Siyosati.
3. Ulrich, D., Zenger, J. and Smallwood, N. (1999): Results-Based Leadership.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SOHASIDA KICHIK MAKTAB O‘QITUVCHILARIGA KOMPYUTER FANINI O‘QITISHGA O‘RGATISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.

**Raximova Dilnoz Achilbayevna**
Xorazm viloyati Urganch tumani 35-son umumiy
o‘rta ta’lim maktab boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi.
Email:dilnoza35@umail.uz
**Yusupova Dilfuza Otaboyevna**
Xorazm viloyati shovot tumani 53-son umumiy
o‘rta ta’lim maktab boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi.
Email:dilfuza53@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’limni axborotlashtirish sohasida kichik maktab o‘quvchilariga kompyuter fanini o‘qitishga o‘rgatishning uslubiy yondashuvlari haqida mulohazalar yuritiladi.

Zamonaviy jamiyat asta-sekin rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tadi-informatsion. Ilm-fan va ishlab chiqarishning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni nazarda tutadigan jamiyatni axborotlashtirish jarayoni uning barcha bosqichlarida ta’limga ta’sir qiladi. Ta’limni axborotlashtirish-ta’lim va tarbiya (Robert IV) ning psixologik va pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy AKT vositalarini ishlab chiqish va ulardan optimal foydalanish metodologiyasi va amaliyoti bilan ta’lim sohasini ta’minlash jarayonidir. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda bilim olish, o‘quv ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, uzatish, ishlab chiqarish bo‘yicha turli xil mustaqil faoliyatni amalga oshirish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Informatika (Beshenkov sa, Kuznetsov AA, Robert IV va boshqalar) bunday bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ilgari talabalar ushbu umumiy ta’lim fazilatlarini rivojlantiradilar, ularning keyingi mashg‘ulotlari yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi. Shuning uchun 2002da kompyuter fanlari umumiy ta’limning tuzilishi va mazmunini takomillashtirish bo‘yicha eksperiment doirasida boshlang‘ich maktab dasturiga o‘quv mavzusi sifatida kiritildi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning fan xususiyatlari va o‘ziga xosligi tufayli bir qator tadqiqotchilar boshlang‘ich maktabda informatika o‘qituvchilarga dars berish tavsiya etiladi. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, tegishli malakaga ega bo‘lmagan holda, qo‘shimcha treningsiz kompyuter fanini o‘qitishni sifat jihatidan tashkil qila olmaydi. Boshlang‘ich ta’lim pedagoglarining kichik maktab o‘quvchilarining kompyuter fanini o‘qitish nazariyasi va metodikasi va kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish sohasidagi maxsus va uslubiy tayyorgarligining etarli emasligi bilan izohlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompyuter fanini o‘qitishga jadal o‘qitish asosiy ishlardan ajralmasdan malaka oshirish kurslarida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda mamlakatimizning bir qator hududlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun informatika o‘qitish metodikasi va boshlang‘ich maktab o‘quv jarayonida AKT vositalaridan foydalanishga qaratilgan turli malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Biroq, birinchi navbatda, ushbu kurslar mahalliy xususiyatga ega va ularning mazmuni, odatda, boshlang‘ich maktabda kompyuter fanini o‘qitishning alohida metodologik jihatini jamiyat va ta’limni axborotlashtirish hozirgi holatini hisobga olmagan holda ko‘rib chiqadi. Ikkinchidan, kurslarda o‘qitish ampirik ma’lumotlar asosida qurilgan va zarur nazariy bazaga va o‘quv-uslubiy yordamga ega emas. Shu munosabat bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini jamiyatni axborotlashtirish va ta’limning hozirgi holatini hisobga olgan holda malaka oshirish kurslarida kichik maktab o‘quvchilariga informatika o‘qitishni o‘rgatishning tuzilishi va mazmuni, shakllari va usullarini ilmiy asoslashga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda kichik maktab o‘quvchilariga kompyuter fanini o‘qitishda o‘qituvchilarni o‘qitish uchun metodik yondashuvlar jamiyat va ta’limni axborotlashtirish sohasida etarlicha tekshirilmagan, ta’limning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, tarkibi va mazmunini nazariy asoslash masalalarini hal etishga yondashuvlar aniqlanmagan. Asosan, boshlang‘ich

maktabda kompyuter fanini o‘rgatadigan o‘qituvchilar uchun ma’lum bir mualliflik o‘quv kursini o‘rganish uchun faqat tor yo‘naltirilgan yondashuvlar qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini malaka oshirish tizimida kompyuter fanini o‘qitishga tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini taqqoslash va tahlil qilish ko‘p hollarda kurslarning mazmuni informatika fanining nazariy asoslarini, kompyuter fanini o‘qitish nazariyasi masalalarini, boshlang‘ich maktab uchun informatika bo‘yicha turli o‘quv-uslubiy majmualarning qiyosiy tahlilini o‘z ichiga olmaydi, bu esa o‘qituvchilarga informatika va uni o‘qitish metodikasi, jamiyatni axborotlashtirish va ta’limning zamonaviy bosqichiga mos keladi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish sohasida tayyorgarlikning etishmasligi kompyuter fanlari darslarida, integratsiyalashgan darslarda, ish vaqtidan tashqari faoliyatda zamonaviy dasturiy vositalar va atrof-muhit kompyuter uskunalarini samarali qo‘llash imkonini bermaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Бадиев С.От традиций – к инновациям (к вопросу о сущности технологий обучения) С.Бадиев //Учитель.-2008. №6.-С.7-9

2. U. Masharipova va b.q. Ona tili “4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2017.

# BOSHLANG'ICH SINFLARGA ARIFMETIK AMALLARNI OSON O'QITISH METODLARI

**Razzaqova So'najon Atabayevna**
Bog'ot tumanidagi 2-son ayrim fanlar chuqur
o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabining
I toifali Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini oddiy masalalar va arifmetik amallardan biri bo'lgan ko'paytirishni oson va tez o'zlashtirib olish metodlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** masala, matematik nutq, qisqa yozuv, ko'paytirish, Pifagor jadvali, karra jadvali.

Boshlang'ich ta'limning eng muhim jihatlaridan biri o'quvchilarda boshlang'ich hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat. Umum ta'lim maktablarining matematika darslarida bunday malakani oshirish nazarda tutilgan. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ma'sulyatni chuqurroq his qilgan holda, qunt va sabr bilan ishlashiga to'g'ri keladi.

Poydevori mustahkam uy buzilmaydi, deganlaridek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari puxta bilim bersa, o'quvchilar yuqori sinfga o'tgandan keyin bilimlarni hech qiynalmay o'zlashtirib ketadilar. 1-sinfdayoq o'quvchilarni savollarga to'liq, aniq javob berishga o'rgatib borish kerak. Matematika darslari bo'lsa ham ko'proq gapirishga, matematik nutqini oshirishga, mustaqil fikrini bayon etishga o'rgatib borish zarur bo'ladi.

1-sinf matematika fanini o'rgatishda oldin 10 soni ichida qo'shish va ayirishni qo'l va barmoqlar asosida ishlash bilan cheklanib qolmaslik, balki tevarak atrofimizdagi narsalarni qo'shib ayirishga o'rgatish muhim bo'ladi. Sodda masalalarni yechishga o'rgatishda rasm asosida masala tuzish shartida o'quvchilar qiynalib qolishadi. Chunki shu joyda matematik nutq yetishmaydi-da. Shuning uchun 1-sinfdanoq nafaqat kitobda berilgan rasmlar asosida emas, balki turli ko'rgazmalarni doskaga ilib qo'yib, ana shu rasmdagi predmetlarni qatnashtirib masala tuzdirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Masalan, doskaga olma rasmi qo'yiladi va bolalardan so'raladi:

- Kecha bozordan dadalaringiz olma olib keldilarmi?

Shunda bolalardan birortasi dadasi olma olib kelganliginini aytib qoladi. Shu joyda o'qituvchi uni yana savolga tutadi.

- Sen ularni sanadingmi?
- Sizlar uning qanchasini yedinggiz? Qanchasi qoldi?

Shunda bola 10ta olma bo'lsa 5tasini yeb qo'yishganini aytadi. Qolgan o'quvchilar bu masalaning qanday yechim topishini aytadilar.

1-sinfda yana qisqa yozuv asosida masala tuzish va yechishga o'rgatiladi. Bunda ham albatta o'quvchini qisqa yozuvni o'qitib, so'zlatish kerak bo'ladi.

1-likopchada – 11 ta olma
2-likopchada – ? 6ta kam

Bunda qisqa yozuvni o'qigandan keyin masala tuzib aytishlari kerak. Shundan keyin bolalarning diqqatini so'roq belgisiga qaratiladi va shu so'roq masala nechta amal bilan yechilishini bildirishini o'rgatish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayirish va qo'shish amallaridan keyin duch keladigan qiyinroq vazifa bu ko'paytirish amalidir. Bu amalni o'rgatish jarayonida o'qituvchilar ko'pincha noto'g'ri tushinchalar bilan boshlaydilar va darsni tezda yakunlashga harakat qilishadi bu esa o'quvchilarni tushkunlikka solishi va qo'rqitishi mumkin, natijada ta'lim sifatiga zarar yetkazishi mumkin.

Quyida o'quvchilarga oson yetkaza olishi mumkin bo'lgan metodlarni ko'rib chiqamiz.

**1. Ko'paytirishni qo'shish bilan bog'lab o'rgatish**

Ko'paytirishni o'qitishni boshlashning eng oddiy usuli bu amal bir xil sonlar yig'indisidan iboratligini misollar yordamida ko'rsatishdir.




**2. Sonlarni 0 va 1 ga ko‘paytirishini o‘rgatish**

Raqamga nol qo‘shish uning identifikatoriga ta‘sir qilmasligini ta‘kidlab o‘tish zarur.

n + 0 = n

Keyinchalik, ko‘paytirishda nolga ko‘paytirilgan har qanday son nolga teng ekanligini tushuntirish:

n x 0 = 0

O‘quvchilarni sinf xonadagi nol xususiyatga oid misollarni kashf etishga undash kerak. Masalan, har birida nol maymunlar o‘tirgan 25 ta stul bo‘lgan sinf xonada maymunlar yo‘qligini tushintiriladi.

Sonni 1 ga ko‘paytirish uni o‘ziga tengligini misollar yordamida o‘rgatiladi.

Masalan, Sakkizta stolning bitta guruhi - sakkizta stol. 8*1=8

Taqvimdagi yetti kunni ko‘rsatadigan bitta qator - yetti kun. 7*1=7

**3. Ko‘paytirish jadvalini “oson” raqamlardan boshlash.** O‘quvchilar ko‘paytirish bir xil sonlarni bir necha marta qo‘shish orqali hosil bo‘lishini, nolga va 1 ga ko‘paytirishni o‘rgangan-dan keyin Pifagor jadvalidan foydalanishni oson sonlar yani 1xonali sonlar ko‘paytmasini ko‘r-satishdan boshlaymiz.



| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| 2 | 2 | 4 | 6 | 8 | 10 | 12 | 14 | 16 | 18 | 20 | 22 | 24 |
| 3 | 3 | 6 | 9 | 12 | 15 | 18 | 21 | 24 | 27 | 30 | 33 | 36 |
| 4 | 4 | 8 | 12 | 16 | 20 | 24 | 28 | 32 | 36 | 40 | 44 | 48 |
| 5 | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 | 50 | 55 | 60 |
| 6 | 6 | 12 | 18 | 24 | 30 | 36 | 42 | 48 | 54 | 60 | 66 | 72 |
| 7 | 7 | 14 | 21 | 28 | 35 | 42 | 49 | 56 | 63 | 70 | 77 | 84 |
| 8 | 8 | 16 | 24 | 32 | 40 | 48 | 56 | 64 | 72 | 80 | 88 | 96 |
| 9 | 9 | 18 | 27 | 36 | 45 | 54 | 63 | 72 | 81 | 90 | 99 | 108 |
| 10 | 10 | 20 | 30 | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | 90 | 100 | 110 | 120 |
| 11 | 11 | 22 | 33 | 44 | 55 | 66 | 77 | 88 | 99 | 110 | 121 | 132 |
| 12 | 12 | 24 | 36 | 48 | 60 | 72 | 84 | 96 | 108 | 120 | 132 | 144 |



| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| 2 | 2 | 4 | 6 | 8 | 10 | 12 | 14 | 16 | 18 | 20 | 22 | 24 |
| 3 | 3 | 6 | 9 | 12 | 15 | 18 | 21 | 24 | 27 | 30 | 33 | 36 |
| 4 | 4 | 8 | 12 | 16 | 20 | 24 | 28 | 32 | 36 | 40 | 44 | 48 |
| 5 | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 | 45 | 50 | 55 | 60 |
| 6 | 6 | 12 | 18 | 24 | 30 | 36 | 42 | 48 | 54 | 60 | 66 | 72 |
| 7 | 7 | 14 | 21 | 28 | 35 | 42 | 49 | 56 | 63 | 70 | 77 | 84 |
| 8 | 8 | 16 | 24 | 32 | 40 | 48 | 56 | 64 | 72 | 80 | 88 | 96 |
| 9 | 9 | 18 | 27 | 36 | 45 | 54 | 63 | 72 | 81 | 90 | 99 | 108 |
| 10 | 10 | 20 | 30 | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | 90 | 100 | 110 | 120 |
| 11 | 11 | 22 | 33 | 44 | 55 | 66 | 77 | 88 | 99 | 110 | 121 | 132 |
| 12 | 12 | 24 | 36 | 48 | 60 | 72 | 84 | 96 | 108 | 120 | 132 | 144 |

**4. Kommutativlik xususiyatini tushintirish**

Bu jarayonda o‘quvchilarga kommutativ so‘zini ishlatmaslik kerak, chunki bu so‘z ularga qiyinlik qiladi, faqat xusiyatini ya’ni, ikkita raqamni har qanday tartibda ko‘paytirish mumkin va natija bir xil bo‘lishini tushintirish. Masalan, 8 x 2 ni ko‘paytirish 2 x 8 ni ko‘paytirish bilan bir xil.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini arifmetik amallar bilan tanishishini boshlaganda o‘qituvchi katta ma’sulyat xis qilgan holda o‘zlashtirish oson bo‘lgan metodlarda foydalanib dars o‘tgandagina o‘quvchiga tushinish yengil bo‘ladi. Bu kelajakda o‘quvchi uchun mustahkam poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. Tadjiyeva Z .G ‘. Boshlangich sinflarda fakultatif darslarni tashkil etish. - T.: 2005, 68-bet.
2. Ahmedov M ., Ibragimov P., Abdurahmonova N ., Jumayev M .E. Birinchi sinf matematika darsligi. - T.: “ S harq”, 2005, 160-bet.
3. https://www.prodigygame.com/main-en/blog/how-to-teach-multiplication/

# TA'LIM JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YANGILIKLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

**Ruziyeva Dilafro'z Shuxrat qizi**
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
14-sonli maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 152-55-99
sdilafruz219@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'quv samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, innovatsion yangiliklardan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, faol harakatga undash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, pedagogika, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar.

**Annotation.** This article focuses on the use of advanced pedagogical technologies, scientific achievements, innovative innovations, the use of interactive methods to increase students' interest in learning, to encourage active action in improving the effectiveness of education in the education system.

**Keywords:** education, pedagogy, innovative education, pedagogical technology, interactive methods, didactic games.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'lanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholavchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. **Innovatsiya** (in-"lik", novus- "yangi") yangilik kiritish, yangi degan ma'noni anglatadi.

Ta'lim sohasi - mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G. Rivin va V.K. Dyachenko tomonidan o'qitishning jamoaviy o'qitish, D.B. Elkonin, V.V. Davidov, L.V. Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari, o'qitishning individual yo'nalishi, everestik o'qitish, dialog madaniyati, o'z-o'zini refleksiya va boshqalarni keltirish mumkin.

Hech kimga sir emaski, ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, tarqatma materiallar, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar

esa ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko‘p qirrali samara keltiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma’naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas’uliyatli va sharafli vazifalarni hal etishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni va xizmati kattadir. Maktabda bolalarni o‘qishga o‘rgatishdan maqsad og‘zaki nutq yuzasidan o‘quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko‘rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizim, ilm-fan imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, innovatsiya jarayonlarini ta’lim tizimida samarali amalga oshirish - dunyo hamjamiyatiga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib bermoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta’lim texnologiyalarini ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qo‘llash - o‘quvchilarda o‘z oldiga maqsad qo‘yish, erkin va mustaqil fikrlash, o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to‘g‘riliginiboshqalarga isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma’lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma’qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish ko‘nikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti.
2. M. E. Musayeva, G. T. Boymurodova, A. K. Otaboyev. D. T. Po‘latova, M. J. Abdullayeva , “Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar”, T. : 2016.
3. R. Yo‘ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov “Ta’limning interfaol metodlari”, Urganch-2011.
4. J.G‘. Yo‘ldoshev “ta’lim yangilanish yo‘lida”, Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY INSONIYLIK XISLATLARI BILAN TANISHTIRISH

**Sa'dullayeva Yulduz Yusubboyevna**
Xorazm viloyati, Shovot tumani
3-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada kasbga bo'lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbga lozim bo'lgan milliy qadriyatlar, insoniylik xislatlarining ayrimlari ta'riflab o'tilgan.

**Kalit so'zlar**: aqllilik, odoblilik, odobsizlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, xushmuomalalik, pokizalik, faollik,

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qaratilayotgan e'tibor, xususan, ularda ta'lim sifatini oshirish, ijodkor, mustaqil o'z hayot yo'lini tanlay biladigan barkamol insonlarni tayyorlash muammosini o'rganishga nisbatan ilmiy ehtiyoj doimo mavjud. Bugungi kunda zamonaviy pedagog mutaxassislarni tayyorlash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, uning samaradorligi bevosita kasbga bo'lgan qiziqish tadbirlarini tashkil etish bilan asoslanadi. O'qituvchilar shaxsning kasblar olamiga azal-azaldan e'tibor qaratib kelishgan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, o'qituvchiga bu borada qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Tarixda ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus faoliyat sifatida shakllanib borishi barobarida, uning yakunida tarbiyalanuvchilarning sifatlari, ya'ni ta'limiy maqsadlariga ham aniqlik kiritilgan. Biz quyida kasblarga bo'lgan qiziqishlar, qolaversa har bir kasbda lozim bo'lgan milliy insoniylik xislatlarining ba'zilariga ta'rif berishga harakat qildik.

Aqllilik – bu tushunchaning lug'aviy ma'nosi fikr yuritmoq, bilmoq degan mazmunni bildiradi. Shunday ekan, ma'lum kasb egasi qanchalik ko'p fikr yuritib, ko'p bilimga ega bo'lsa, shunchalik aqlli hisoblanadi. Lekin odam chuqur fikr yuritmay boshqalardan ko'rgan, eshitganlarini, kitoblardan o'qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganini esda saqlab qolib, shu yo'llar bilan olingan bilimlarga amal qilib yurishi ham mumkin.

Odoblilik – ayrim kasblarda inson fazilatining muhim ko'rsatgichi bo'lib hisoblanadi. Odobli kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy qadriyatlarni yaxshi bilgan va ularni e'zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan barcha axloq normalariga rioya qiladigan odamdir.

Odobsizlik – butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va voqeliklarga behurmatlik ko'rsatish, muayyan jamiyatda qabul qilingan urf-odat va an'analarga rioya qilmay, ularni mensimaslikdir. Ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi kishilar, bolalarga odob nima ekanini, uning mohiyatini tushuntirib berib, ularda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rgatish va hayotda amal qilishga o'rgatishlari kerak.

Bilimlilik – bilimli kishi ko'p bilim sohibi hisoblanadi. Ba'zan "bilimli" tushunchasi "aqlli" tushunchasi bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Yana qaytarib aytamizki, aqlli odam mustaqil fikr yurita oladi, bilimli odam esa, mustaqil fikr yuritib yoki kitob va ustozlardan olgan bilimlarni yod olish natijasida, нetarlicha bilimga ega bo'lgan kishi hisoblanadi.

Mehnatsevarlik – har bir kasbda yoshlarning erishishi zarur bo'lgan omillardan biridir. Mehnatsevarlik deb, mehnatning turidan – og'ir mehnatmi yo yengilmi; aqliymi yo jismoniymi, bundan qat'iy nazar, kishi uni bajarishga jon-jahdi bilan kirishishligiga aytiladi.

Salomatlik – har bir kasb egasi uchun zarur bo'lgan omil, biror kasb bilan shug'ullanishda zarur talab. Mutloq sog'lom kishi deb, ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan salomat bo'lgan kishiga nisbatan aytiladi.

Milliy g'urur – milliy g'ururi yo'q odam har bir ishda loqayd bo'lib, uning qilgan ishining unumi bo'lmaydi. Milliy g'ururga ega inson esa, oldiga biron-bir maqsad qo'ydimi, butun vujudini ishga solib, shu maqsadga erishish uchun g'ayrat qiladi va tezlikda unga yetadi.

Vatanparvarlik xislati – milliy g'ururning taraqqiy etgan varianti bo'lib, vatan ravnaqi uchun rag'bat paydo qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy g'urur negizida odamlarda vatanini sevish kayfiyati paydo bo'lib, millati uchun, yurti uchun, ya'ni vatani uchun fidoyilarcha mehnat qilib, zarur bo'lganda jonini ham fido qilishga tayyor bo'ladi. Buni haqiqiy vatanparvarlik deyiladi. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining avlod-ajdodlarining

nomus-origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va oʻz soʻziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an’analariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda oʻz ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil Oʻzbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta oʻzgartirish yoʻlidagi qiyinchiliklarni yengib oʻtishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Ushbu ta’riflarga xulosa qiladigan boʻlsak, yuqorida sanab oʻtilgan shaxsning ijobiy fazilatlari uning kasbiy xislatlarini shakllantirishda muhim omillar boʻlib hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarni turli kasblarga tayyorlashda ularni hisobga olishimiz zarurdir. Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari oʻquvchilariga ta’lim berishda ham zamonaviy pedagogikaning asosiy prinsiplaridan biri - shaxsni jamiyat hayotiga tayyorligini ta’minlashga yoʻnaltirilgan tamoyilini ta’minlashga e’tibor qaratilishidir.

Bosqichlar orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksiz boʻlishini ta’minlashga katta e’tibor berilgan. Shuning uchun quyi bosqichlarda oʻquvchilar egallagan bilimlarini yuqori bosqichlarda davom etishlari uchun zamin yaratiladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻzlarini anglashlari oʻqish, oʻyin va sport faoliyatlari bilan namoyon boʻladi. Bugungi kunda ta’lim muassasalaridagi odatlanilmagan vaziyatlarning shaxslararo munosabat va muloqot koʻlami endilikda kengaydi. Bu hol yoshlarning aqliy, irodaviy xususiyatlarini oqilona baholash, qoʻyilayotgan talablarga javob tariqasida yondashishni jadallashtiradi.

**Adabiyotlar**:

1. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi.– T.: Oʻqituvchi, 2015. - 232 b.

2. Abdullaeva SH.A. Oʻquvchilarni pedagogik tashxislashda qoʻllaniladigan metodlar // Xalq ta’limi, 2016, №3. 40-45 betlar.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA PSIXOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH UCHUN ZARUR OMILLAR

**Sultanov Shoxruh Rahmon o'g'li**
Namangan davlat universiteti talabasi
**Munavvarxonova Mahliyoxon Muzaffarxon qizi**
Namangan davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishga qaratilayotgan e'tibor, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda pedagogik-psixologik mahoratning ahamiyati, o'quvchi tarbiyasidagi eng muhim e'tibor qaratiladigan jihatlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Islohot, ilm-ma'rifat, ma'naviyat, ma'naviy dunyoqarash, pedagogik texnologiyalar, bola psixologiyasi, temperament, tarbiya, psixik jarayon.

Bugungi kundagi ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun maktablarda o'quvchilarga chuqur va mustahkam bilim berish, ta'lim oluvchilarlarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish talab etilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Ular davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modellari yaratilmoqda. Jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir. Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqat, insonparvarlik tuyg'ulari rivojlantiriladi.

Maktablarda o'quvchilarga chuqur bilim berish, ularni jamiyatimizga yetuk inson qilib tarbiyalab berish uchun o'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan talablarga amal qilishi lozim. Ta'lim jarayonida asosiy shaxs bu o'qituvchidir. Chunki bolaga fan asoslarini o'rgatishda, uni bilimlar olamiga olib kirishda o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Shu ma'noda bugungi maktab o'qituvchisining bilim saviyasi zamon talablariga muvofiq kelishi lozim. Darhaqiqat, o'qituvchi jamiyatda juda katta vazifani bajaradi. U o'quvchining ertangi kuni uchun mas'ul.

Deyarli har bir inson boshlang'ich ta'lim davrini boshdan kechiradi. Ushbu davrda biror bir bola yo'qki, hatto ota-onasining gaplaridan ham ustozining gaplarini ustun qo'ymagan. Ota yoki ona farzandiga unday desa, yo'q siz bilmaysiz ustozimiz bunday degan, deb turib oladilar. Mana shu davrda ustoznining har bir aytayotgan gapi bola uchun kelajakda bir umr yodida qoladigan (ehtimol, qachondir xato aytilgan tushunchalarni katta bo'lganida to'g'risini bilib olar) ma'lumot bo'lib qoladi. Bulardan shu xulosaga kelish mumkinki, bolaning psixologik tarbiyasi (ijobiy yoki salbiy) eng birinchi o'rinda o'qituvchi zimmasida turadi.

Boshlang'ich ta'lim deyarli dunyoning barcha davlatlari ta'lim tizimining eng murakkab bosqichi bo'lib sanalishi barchaga ravshan. Sababi shundaki, umumiy o'rta ta'limning eng ajralmas qismi, uning poydevori boshlang'ich ta'lim ya'ni birinchi hamda to'rtinchi sinflarni o'z ichiga qamrab olgan ushbu davr o'ta murakkab davr sanaladi. Bolalarning kelajakda qay bir yo'ldan borishi (ya'ni yaxshi yoki yomon) aynan shu davrda olinadigan ta'lim hamda tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Bolaning psixologik temperamenti ham aynan o'zgaradigan, shakllanadigan davr ham shu vaqtda sodir bo'ladi. Bola psixologiyasini boshqarish aynan boshlang'ich sinflarda oson bo'lib, kuchli psixologik bilimga ega bo'lgan o'qituvchi uni o'zi xohlagan yo'nalishga burib qo'ya oladi. Lekin yaxshilab e'tibor berilsa, bola psixologiyasini boshqarish deyilmoqda. Bu esa aynan psixologiyaning oddiy, oson ekanligini anglatmaydi.

Boshlang'ich sinflarda jamoani shakllantirish, ya'ni ularni bitta ahil jamoaga jamlay olish ham psixologik qobiliyatni talab etadi. Buning avvaliga o'qituvchi o'quvchilarni birinchi sinfga kelgan chog'laridanoq ularni turli pedagogik metodlar asosida to'liqligicha o'rganib chiqishlari zarur. Ushbu jarayonni faqatgina boshida emas, balki toki bola 4-sinfni tamomlaguniga qadar davom ettirish talab etiladi. Sababi shundki, 1-4 sinflar oralig'ida nazoratni uzish katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Masalan, bola o'g'rilik qila boshlashi mumkin, yuqori sinfdagi bezori bolalarga havas qilib, ularning yo'rig'idan yorg'alashi mumkin, yolg'onchilikni o'rganishi, darslani tayyorlamaslikni, hatto darslarga kelishni kamaytirib yuborishi ham mumkin bo'lib qoladi. Buning uchun ham pedagogik ham psixologik salohiyatni ishga solgan holda o'quvchini nazorat qilish

kerak bo‘ladi. Birgina misol, o‘quvchi bilan uning tarbiyasi uchun ma’lum bir oraliqda belgilab olinadigan suhbat metodi pedagogik metod bo‘lsa, ana shu suhbat jarayonida o‘quvchini to‘g‘ri yo‘lga boshlay olishi, unda bor bo‘lgan muammolarni hal etishning yechimlarini topish psixologik metod bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlab o‘tish mumkinki, ta’lim jarayonida faqatgina bilim berilibgina qolmay, tarbiyani ham u bilan bir qatorda olib borilishi, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarni darsga qiziqtirish, ta’limning keyingi bosqichlariga munosib bo‘lgan o‘quvchilarni yetishtirib berish eng dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan har bir bilim va tarbiya juda ham qimmatlidir. Shu sababli ham ta’lim beruvchidan ushbu jarayonda juda katta masaqqat talab etiladi. Buning uchun o‘z ustida takror va yana takror ishlash o‘qituvchining mahoratini oshirib boraveradi. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g‘oyat dolzarb ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Yangi pedagogik texnologiyalar” N.Saidahmedov . Toshkent-2003
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2000-yil. 1-jild
3. “Umumiy psixologiya” F.Haydarov, N.Halilova. Toshkent 2010-yil.

**Internet ma’lumotlari:**

www.uz.wikipediya.org

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA IZOHLI DIKTANT TURLARIDAN FOYDALANISH

**Tajiboyeva Aygul Sa'dullayevna, Matkarimova Shirin Otaboyevna**
Urganch tuman 19-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Telefon: +998 97 2177220
aziz. @mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy pedagogik texnologiya, texnologiya, nazariya, amaliyot, pedagogik tizimlar.

Boshlang'ich ta'lim – ta'lim imoratining poydevori ekanligi hech kimda et'tiroz tug'dirmaydigan haqiqatdir .Shunday ekan ta'lim imoratining pishiq-puxtaligi ,ko'rkamligi,salobati,avvalo boshlang'ich ta'limimizning saviyasiga boshlang'ich sinf o'qituvchilarning tarkibiga ,ularning zaruriy bilim va malakalarini pedagogigk mahoratini puhta egallaganligiga bog'liq. O'qituvchi qanchalik bilimdon bo'lsa ,o'z ishini sevsa, kasb mahoratini tinmay takomillashtirib borsa ,yangi samarali usullarni ,tajribalarni egallash ustida tinimsiz ishlasa , o'zi ham yangiliklar ijod etish uchun izlansa , u bergan ta'limning samarasi yuqori bo'lishi shak shubhasiz.

Ta'lim samarodorligini oshiradigan omillardan birita'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida ,mohirona foydalanishdir.Bu boshlang'ich ta'lim uchun ham taalluqlidir. Innovatsion texnologiyalar,interfaol dars usullaridan , axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari boshlang'ich sinflarda ham juda ko'p. Ma'lumki, innovatsiya yangiliklar yaratish, degan ma'nonolarni bildiradi. Ta'lim jarayonida ham innovatsiya shu yoki shunga yaqin ma'noda qo'llaniladi hamda sinfdagi barcha o'quvchilarni barabariga faollashtiradigan, dars jarayonida ularni bo'sh o'zlashtiruvchidan , mustaqil fikr yurituvchi, xulosalar chiqara oluvchi faol ishtirokchiga aylantirishda qo'llaniladigan metodlar majmui tushuniladi.

O'quvchilarga ta'lim - tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashni yetakchi sharti o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirish hisoblanadi.Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Bunda diktant va uni turlaridan unumli foydalanish muhim omil hisoblanadi. Quyida izohli diktantdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tmoqchiman.Izohli diktant boshlang'ich sinflarning barchasi uchun mos bo'lib, o'quvchilarga yozdirilgan matn tarkibidagi imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va ma'nosini izohlash maqsadida o'tkaziladi. Belgilangan matn o'quvchilarga yozdiriladi. Undagi so'zlarning imlosi eslatilmaydi, o'quvchilar matnni yozib bo'lganlaridan keyin undagi so'zlarni qanday yozganliklari tekshiriladi.

Albatta, o'quvchilar yozuvida ayrim xatolar bo'lishi mumkin. o'quvchilar yozuvidagi xatolar quyidagi tartibda tuzatilib, izohlanishi mumkin:

a) o'quvchilardan biri aytgan so'zdagi xatoni boshqa bir o'quvchi og'zaki izohlaydi;
b) o'quvchi xatosini o'qituvchi og'zaki izohlaydi;
d) o'quvchi yozgan xato so'zni o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatadi.

Shu tartibda o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarini topib, ularni tuzatadilar. Bu bilan o'quvchilarning imlo savodxonligini aniqlash va kamchiliklarini tuzatish mumkin.

Izohli diktant uchun matnni o'quv darsliklaridan ham tanlash mumkin. Bunday holatda matnni o'quvchilarga yozdirib bo'lgandan keyin, ular kitoblarini ochib, yozganlarini taqqoslab ko'radilar. O'zlari sezgan xatolarini tuzatadilar. Lekin hamma o'quvchilar ham o'z xatolarini topa olmaydilar. Shuning uchun ular bilan alohida ish olib borishga to'g'ri keladi.Ta'limiy diktantning boshqa turlari kabi izohli diktantni ham yozuv darsining ma'lum bir qismida o'tkazish mumkin. Izohli diktant o'quvchilar bilimini oshirishda eng foydali yozma ish turlaridan biri hisoblanadi. Bu diktant turini 3—4-sinflarda tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiq.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin

izohlaydi. So‘zning yozilishini bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, “Kitob – bilim manbai” – Kitob: Ki-tob. Ikki bo‘g‘in. Birinchi bo‘g‘inida k, i; ikkinchi bo‘g‘inida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so‘z oxiriga i tovushini qo‘shamiz va aytamiz: kitobi. b tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi. Bu diktantda o‘quvchilar qoidalarga oid so‘zlarning tagiga chizadilar.

Izohli diktant turidan har bir dars jarayonida qo‘llashimiz mumkin. Bu diktant turi asosida o‘quvchilarning imloviy savodxonliklarini oshirib boramiz.

Masalan: 3-sinfda ”H” va ”X” undoshlari mavzusida quyidagi matn asosida izohli diktant o‘tkazishimiz mumkin:

Dam olish kuni o‘tgan dam olish kuni Farida bilan kinoga bordik. O‘sha kuni Parpi bilan Halimaxon ham kinoga borishgan ekan. Ular bilan uchrashdik. Kinoni ko‘rib, so‘ng birga uyga qaytdik. Bunda Halimaxon so‘zining to‘g‘ri yozilganligi tekshiriladi. ”H” va ”X” undoshlarini yozilishi tahlil qilinadi.

2-sinfda ”Tutuq belgisi” mavzusini o‘tganimizdan keyin, izohli diktant o‘tkazish metodikasiga ko‘ra matn yozdiraman:

O‘qish darsida

Ne’mat hikoyaning birinchi qismini o‘qidi. Ma’ruf tushunganini aytib berdi.

Jur’at ”va’da”, ”ma’mur” so‘zlarining ma’nolarini aytdi. Sa’di hikoyaning ikkinchi qismini o‘qidi. Ma’mura uni so‘zlab berdi. O‘qituvchi ularni baholadi.

Imlosi qiyin tutuq belgili so‘zlarni to‘g‘ri yozganliklarini darslikdagi 38-mashq orqali tekshirishlarini so‘rayman. Qoidalarni eslatib izohlayman. Bunda diktantni o‘zi tekshirishi yoki o‘zaro tekshirish usullaridan foydalanaman.

Izohli diktant yozdirishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan ham unumli foydalanishimiz mumkin. Masalan harf birkmasiga oid matnni diktant qoidalari asosida yozdiriladi. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ekranda matn namoyish etiladi, unga ko‘ra diktant tekshiriladi va qoidalar izohlanadi;

Bular bialn bir qatorda o‘qish darsligidan mavzuga oid matn tanlash, sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar asosida diktant o‘tkazish orqali savodxonlikni oshirib boraman.

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**To‘yliva Feruza Nurmatovna**
Xorazm viloyati, Shovot tumani
3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxs tarbiyasida muhim o‘rin tutgan boshlang‘ich ta’limning o‘rni va uning pedagogik-psixologik asoslari batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: boshlang‘ich ta’lim, islohotlar, pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, ta’lim tizimi, tarbiya, diqqat, xotira, shaxs.

Intellektual asr hisoblangan zamonaviy dunyoda sifatli ta’lim olish va undan hayotiy jarayonlarda foydalana olish kompetensiyalarining shakllanishi dolzarb masala hisoblanadi. Yurtimiz ta’lim tizimida ijobiy islohotlar o‘tkazilib, kadrlar tayyorlashga nisbatan talab ham o‘zgartirmoqda. Zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muhim ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi murg‘ak qalb egalarini dunyo sirlari bilan tanishtiruvchi, ularga ta’lim-tarbiya beruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi, shaxs sifatida tarbiyalovchi ustoz va murabbiydir. XXI asrdagi bunday pedagogning obrazi – davr bilan hamnafas qadam tashlashini, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishini, xatolardan cho‘chimasdan tajribalar o‘tkazishga layoqatli bo‘lishini, o‘zida bolalikni saqlab qolishi va bola mehnatini rag‘batlantira olishini taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi hamda hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasini yaxshi bilishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay olishi bilan baholanadi. Bugungi kunda ustozning psixologik-pedagogik madaniyati e’tibortalab muammolardan biridir. Bu muammoning bir qator sabablari mavjud bo‘lib, bular: jamiyatda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat, mavjud bozor iqtisodiyoti siyosati davrida ta’lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishni maqbul yo‘larini izlashda ko‘rinadi. Zamonaviy pedagogning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan boxabarligi, ta’lim-tarbiya jarayonida ulardan o‘rinli foydalanishi ko‘p hollarda uni umumiy madaniyatini tashkil qilishi bugun hech kimga sir emas.

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda, o‘qitishning chuqur ijtimoiy e’tiqodlilik bilan uyg‘un ilmiyligiga qo‘yilayotgan talablar g‘oyatda muhimdir. Didaktikada o‘qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma’lumki, maktab ta’limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo‘lsa, uni shundayligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz aks ettiradi.

Pedagogning vazifasi o‘quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o‘rganishlarida o‘zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi – inson ongidan tashqari ob’ektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo‘lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta’limning birinchi pag‘onasida olgan juz’iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak. Ilmiy asosdagi to‘g‘ri o‘qitish natijasida o‘quvchilar ongida ob’yektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil bo‘ladi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub’yektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo‘lgan maqsadlar yo‘nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Ular orasida quyidagi eng asosiy sifatlarni ko‘rsatish mumkin: o‘quvchiga bo‘lgan munosabatda: uni tushunishga harakat qilish, kechinmalariga sherik bo‘lish, uning mustaqilligini hurmat qilish, har bir o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarishga intilish; jamoadagi birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish; o‘z-o‘zini boshqarishini rivojlantirish; jamoaviy an’ana va udumlarga rioya qilish.

Pedagogning oʻziga boʻlgan munosabati esa oʻzgacha maqsadlar bilan ifodalanadi: oʻquv-tarbiyaviy faoliyatda doimiy muvaffaqiyatga intilish, oʻz ustida muntazam ravishda ishlash, oʻz-oʻzini tahlil va tanqid qilishni oʻrganishdan iborat. Shundagina pedagogik madaniyat va mahoratga etishish mumkin.

Pedagogik madaniyat – bu inson madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi boʻlib, unda yuksak ma'naviy ahloqiy sifatlar etakchi rol oʻynaydi. Shuningdek, pedagog ijodkorligi, shaxs ijtimoiylashuvidagi faollik alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik madaniyatning mohiyati shundaki, bolaning bolalik davrini eng ajoyib, yorqin ranglar bilan boyitishdagi ulkan imkoniyatlarga ega inson, shu bilan birga bolalikni betakror, oʻqilmagan, yozilmagan katta bir asar sifatida koʻra olishda koʻrinadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponenti sifatida ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ta'lim – mustaqil ta'lim olish, tarbiya – oʻzini-oʻzi tarbiyalashi, ma'lumotlar bazasi bilan ishlay olish – mustaqil tarzda ma'lumotlarni yigʻish, saralash va yangi bilimlarni ishlab chiqishda foydalana olish koʻnikmasiga ega boʻlishi, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonida oʻzaro ta'sir koʻrsatish malakasiga ega boʻlishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, oʻquv jarayonining mohiyati oʻquvchi bilish faoliyatining mantigʻi boʻlib, ta'lim oluvchilar oʻquv faoliyati jarayonida optimal darajada fanga oid, tayanch va hayotiy kompetensiyalarga ega boʻlishlari zarur.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон,демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент, Ўзбекистон 2016. – 14 бет.

2. Inoyatova M., Nosirov Abduqudusova F. Boshlangich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qoʻllash Toshkent: 2017.

# MS DISK OPERATSION SISTEMASI VA UNING TASHKIL ETUVCHILARI.

**Turobov Vohid Qurbonovich**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
12 maktab informatika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** 1980-yil oktabrda IBM firmasi menejerlari o‘zlarining ishlab chiqarayotgan 16 razryadli shaxsiy kompyuterlar uchun operatsion tizim qidiruvi bilan mashg‘ul edi. U vaqtlarda shaxsiy kompyuterlarda Digital Research firmasining CP/M (Control Program for MicroComputers) operatsion tizim keng ishlatilgan.

**Kalit so‘zlar.** IBM, Digital Research, CP/M, Microsoft, Seattle Computer Products, PC/MS, Disk, operatsion tizim, fayl, CONFIG.sys.

Digital Research firmasi bilan kelisha olmagan IBM firmasi Microsoft (Bill Geys) firmasiga murojaat qildi. O`sha vaqtda Microsoft da mos keladigan operatsion tizim yo`q edi, lekin u mos keladigan operatsion tizim ga ega bo`lgan, uncha katta bo`lmagan Seattle Computer Products firmasidan xabardor edi. 50000$ evaziga Bill Geys shu operatsion tizim ustidan huquqga ega bo`ldi. Keyinchalik bu operatsion tizim MS DOS (Microsoft Disk Operating System) ning asosi bo`lib xizmat qildi. 1980 -yilning noyabrida Microsoft va IBM PC uchun operatsion tizim yaratish haqidagi shartnomaga imzo chekishdi. 1981 -yil fevralda IBM PC da ishlaydigan PC/MS DOS ning birinchi versiyasi chiqarildi. 1981- yilning avgustida esa PC DOS 1.0 ishlab chiqarildi. Bu variant IBM PC da ishlatish uchun tasdiqlangan edi.

Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklash imkonini beruvchi operatsion tizim ishlab chiqildi va u disk operatsion sistemasi (DOS) deb nom oldi. operatsion tizim nafaqat diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish,ikkita faylni bitta sektorga tushishining oldini olish, kerak bo`lgan paytda fayllarni o`chirib tashlash, fayllarni bir diskdan ikkinchisiga ko`chirish (nusxa olish) kabi ishlarni ham bajara olardi. Umuman olganda, DOS foydalanuvchini alohida qog`ozlarda ko`plab yozuvlarni saqlashdan xalos etdi, disk yurituvchilar bilan ishlashni soddalashtirdi va xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirdi. operatsion tizimlarning keyingi rivojlanishi texnik ta`minoperatsion tizimining rivojlanishi bilan parallel bordi.

Egiluvchan disklar uchun yangi disk yurituvchilar paydo bo`lishi bilan operatsion tizim lar ham o`zgardi. Qattiq disklarning yaratilishi bilan, ularda o`nlab emas, balki yuzlab, hatto minglab fayllarni saqlash imkoniyati yaratildi. Shu sababli fayllar nomida ham anglashilmovchiliklar paydo bo`la boshladi. Ana shunda DOSlar ham ancha murakkablashdi. Ularga disklarni kataloglarga bo`luvchi va ushbu kataloglarga xizmat ko`rsatuvchi vositalar (kataloglar orasida fayllarni ko`chirish va nusxa olish, fayllarni saralash va boshqalar) kiritildi. Shunday qilib, disklarda faylli struktura paydo bo`ldi. Uni tashkil etish va unga xizmat ko`rsatish vazifasi esa operatsion tizimga yuklanadi. Qattiq disklar yanada katta o`lchamlarga ega bo`lishi bilan operatsion tizim ularni bir nechta mantiqiy disklarga bo`lishni ham “o`rganib” oldi. 1981 -yildan 1995 -yilgacha IBM PC kompyuterlarni asosiy operatsion tizim  MS DOS edi. Shu yillar ichida u MS DOS 22 variantigacha bo`lgan rivojlanish bosqichlarini bosib o`tdi. MSDOS.sys - bu rezident modul. Amaliy dasturlar uchun yuqori darajadagi interfeysni ta`minlaydi, fayllarni, kiritish-chiqarish qurilmalarini boshqaradigan, kutilmagan vaziyatlarni (xatolarni) qayta ishlaydigan va boshqa dasturiy vositalarga ega.

Buyruqlar properatsion tizimsessori (COMMAND.com) - MS DOSning alohida moduli. Bu modul boshqa qulayrog`iga almashtirilishi mumkin. Vazifalari:

- klaviaturadan yoki *.bat fayldan buyruq qabul qilish va uni amalga oshirish;
- Autoexec.bat fayl buyruqlarini MS DOS yuklanganda amalga oshirish;
- MS DOS amaliy dasturlarini tezkor xoperatsion tizimiraga yuklash va amalga oshirilishini ta`minlash. Tashqi buyruqlar (dasturlar) - MS DOS tarkibiga kiradigan alohida funksiyalarni bajaradigan qo`shimcha dasturlar. Qurilma drayverlari - tashqi qurilmalarni boshqaradigan maxsus rezident dasturlar. Drayverlar CONFIG.sys faylida ko`rsatilgan tartibda operativ xoperatsion tizimiraga yuklanadi. CONFIG.sys - amaliy dasturlar tomonidan bajariladigan, MS DOS ga bevosita aloqador va qo`shimcha yuklanadigan drayverlar haqida ma`lumoperatsion tizimni o`zida mujassamlagan maxsus matnli fayl. COMMAND.com - fayli yuklangandan keyin MS DOS ushbu faylni avtomatik tarzda amalga oshiradi.

AUTOEXEC.bat - qo`shimcha sozlash ma`lumoperatsion tizimlari joylashgan maxsus matn fayli. CONFIG.sys fayli yuklangandan keyin MS DOS ushbu faylni avtomatik tarzda amalga oshiradi. MS DOS operatsion tizimda ishlatiladigan atamalar izohi:MS DOS ichki buyruqlari - MS DOS buyruqlar properatsion tizimsessori tomonidan bajariladigan buyruqlar. MS DOS tashqi buyruqlari - bajarish uchun MS DOS buyruqlar properatsion tizimsessori tomonidan TX (tezkor xotira) ga yuklanadigan alohida dasturlar. Rezident dastur - TX ga yuklangandan so`ng unga boshqarish beriladi, TXda doimiy joylashadi va boshqa dasturlar bilan parallel ravishda ishlaydi.

**Foydalanilgan adabiyoperatsion tizimlar ro'yxati.**

1. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'., Shodiyev R.R. Axboroperatsion tizim texnologiyalari //Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -T.:O'qituvchi, 2003.
2. Xaldjigitov A.A., Madraximov Sh.F., Adamboev U.E .Informatika va programmalsh. O'quv qo'llanma. O'zMU, 2005 yil
3. www.ziyo.edu.uz

# TECHNIQUES FOR DEVELOPING WRITING SKILLS OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS

**Khatamova Sharifa Abdullayevna**
English teacher at school 43, Norin district, Uzbekistan,
**Khudoyberdiyeva Nafisa Vahidjanovna**
English teacher at school 43, Norin district, Uzbekistan

**Annotation:** In this article, it is given information on developing writing skills of secondary school students.

**Keywords:** writing skills, techniques, FSMU, teaching unknown vocabulary, a lack of ideas for writing.

It is a crucial task to form the secondary school pupils' world outlook and to have them to be an active member of society. One aspect of achieving this goal is to teach writing skills to the young generation. The main aim of developing the writing skills of our students is involving them in active communication. A new approach to teaching foreign languages also targets to form communicative competence of learners. These goals can be achieved in a variety of ways.

There is a huge range of activities and techniques suitable to use for modern teachers in the process of English lessons. Using problem-based activities is one way of achieving this. Implementing these kinds of activities teachers may have a chance to eliminate two different problems. These are: " A lack of vocabulary; " A lack of ideas Pre-teaching unknown vocabulary is related to the first issue of a task while generating ideas are the second side of it. Human beings are possible to memorize things differently.

Some of them can memorize things after listening while others do it through the

pictures. But the most beneficial way of organizing this process is to have students engage in practical activities. Using tables is also one way of implementing this. To conduct a memorable event for learning vocabulary teachers should have students draw a table with four columns as follows (picture 1): A new word Picture

Description Example

**Picture I. Handout for vocabulary teaching.**

As in the table, indicated students should write a new word first and then one picture related to new words should be drawn. The next task is to write a description of the given word. The next step of a task is to bring one example to the given new word. Teachers should ask students to create this table and fill it into work on the new words of a topic. That is to say, solving the second problem is another important aspect of having students be creative in their writings. Using the FSMU technique is one of the best tools for generating ideas: F - fikringiz - your idea S - sababi - the reason for this idea M - misol – example U - umumlashtiring – conclusion Using this technique, teachers can ask students to build four sentences suitable for every word given. For example, students will write their first sentences expressing the ideas whether they agree or disagree with the given topic. If the subject of writing is health, the first sentence of the written text should be a general idea that health is a necessary concept for a person. The second should be about

the reason that led to this view. Finally, an illustrative proof of that cause and idea must be given. The fourth sentence may be ended by summarizing the points presented. Below we will discuss how these techniques can be applied: Idea - One of the most important tasks for humankind is to maintain lifelong health. Reason - Health is one of the main factors that show the spiritual and physical potential of a person. Example - Therefore, various human competitions are organized based on spiritual and physical potential. This can be illustrated by many sports such as chess, checkers, football, volleyball.

Conclude - In short, regular exercise like this is beneficial for one's health. The use of these techniques in the teaching of English in secondary schools is the key to the successful completion of teaching and learning activities. since the teacher has three objectives in planning the learning process. These are educational, educational and developmental goals. In conclusion, the teacher must develop the students' thinking in the learning process, thereby developing their writing skills.

**List of references**

1. J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi.-"O'qituvchi"1996 y
2. Starting ETTE " Teachers Together" ( Peer Support) Groups - British Council,2010

# O‘ZBEK ADABIY TILI

**Yendirboyeva Ozoda**
Nukus DPI Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
1-boshqich talabasi

**Kalit so‘zlar:** Milliy til, adabiy til, og‘izaki, yozma, taraqqiyot, Mo‘g‘ullar tarixi, Muhokamat-ul lug‘atayin

**Annotatsiya:** Bu maqolada o‘zbek adabiy tilining tarixi va kelib chiqishi haqida, o‘zbek adabiy tilining insonlar orasidagi muloqatida yo‘l qo‘yilayotgan xatolar, ona tili fani darsliklaridagi xato va kamchiliklar yo‘ritilgan.

Biz o‘zbek adabiy tili haqida gaplashishimizdan oldin adabiy til haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak. Xo‘sh adabiy til nima o‘zi. Adabiy til millat uchun yagona bo‘lgan, milliy tilning sayqal topgan, uni har tomonlama leksik, grammatik, fonetik jihattan ma’lum qoidalarga bo‘y sundirilgan oliy shakli hisoblanadi. Bu har bir millat vakili uchun yagona til hisoblanadi. Bu milliy tildan farq qiladi. Bunda asosan adabiy til me’yorlari, adabiy til qoidalariga bo‘y sunishga to‘g‘ri keladi. Adabiy til og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Davlat idoralarida, radio va televideniyada, ta’lim muassasalarida, gazeta va jurnallarda, madaniy muassasalarida adabiy tilda ish yuritiladi. Adabiy til me’yorlarini bilish va ulardan foydalana olish har bir madaniyatli kishi uchun zarurdir.

O‘zbek adabiy tili haqida gapiradigan bo‘lsak, adabiy til maqomi o‘zbek tiliga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab berilgan. O‘zbek adabiy tili hozirgi davrga kelguncha ko‘p bosqichlarni boshidan kechirgan. Asosan 4ta taraqqiyot bosqichi farqlanadi. Bular: 1. Qadimgi turkiy til. 2. Eski turkiy til. 3. Eski o‘zbek tili. 4. Hozirgi o‘zbek tili.

O‘zbek tili XII-XIII asrlar oralig‘ida shakllangan o‘zbek xalqining milliy tili bo‘lib, dastlabki davrlarda turkiy tili, chig‘atoy tili nomlari bilan yuritilgan. O‘zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning „Mo‘g‘ullar tarixi” asarida atoqli ot ma’nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberdining qo‘shin boshliqlaridan biri O‘zbektoy deb atalgan.

O‘zbek adabiy tili o‘zbek tilining lahja va shevalaridan oziqlanadi.

O‘zbek tili taraqqiyotida Alisher Navoiy o‘rni benihoya buyuk. Shoir yaratgan asarlarida jami 26 mingdan ortiq so‘zdan foydalangan. Navoiy butun ijodi, ayniqsa, lirikasi orqali turkiy tilning naqadar cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini amaliy jihatdan namoyon qildi. „ Muhokamat-ul lug‘atayin” asarida turkiy va forsiy tillarni o‘zaro chog‘ishtirib, ustunlik turkiy til tarafida ekanligini ilmiy asoslab berdi, davlat arbobi sifatida esa ona tilini huquqiy muhofazaga olib, turkiy tilda ijod qiluvchilarga homiylik qildi, davlat ishlarida turkiy til mavqeyini ko‘tardi va bu ishlarni rag‘bantlantirib bordi.

1989-yil 21- oktyabrda „ Davlat tili haqidagi” Qonun qabul qilinib o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Har yili shu kunni katta bayram sifatida nishonlab kelamiz. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida o‘zbek tili respublikamizda o‘tkaziladigan oliy darajadagi anjumanlarda, konferensiyalarda qo‘llanadigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan tilga aylandi. 1995-yil 21-dekabrda esa O‘zbekiston Respublikasi IV sessiyasida „ Davlat tili haqida”gi Qonunning 24 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Qonunning 1-moddasida „ O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” deb belgilab qo‘yildi.

Shu o‘rinda aytish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta’siri va nufuzini oshirish bo‘yicha vazifalarni sanab o‘tdi. „ Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat,Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yer yuzida o‘zbek degan xalq mavjudligini o‘zbek tili borligidan bilishadi. Aytishadi-ku, millat bo‘lmasa til, til bo‘lmasa millat bo‘lmaydi. Ular bir- biri bilan chambarchas bog‘liq. Lekin afsuski hozirgi kunda shunday qadimiy va boy tilimizdan faxrlanib, shunday tilda gaplashib bilishimizga shukr qilmay unda har xil varvar, vulgar, argo va jargolardan ham foydalanayapmiz. Bu ham mayli, ba’zilar o‘z shevalarini adabiy til deb hisoblashishadi.

Boshqa shevada gapirayotganlarga o'zlari gapirayotgan tilni adabiy til ekanligini, ular ham bu shevani o'rganishlari kerakligini uqtirishadi. Bu asosan qarluq shevasi vakillari orasida ko'zga tashlanadi.

Bunday voqealarga ko'z yumishimiz mumkin-kuya lekin maktablarda sof o'zbek adabiy tilida emas balki shevalarda dars o'tilayotganini ko'rib yig'lashniyam, kulishniyam bilmaysan. Shunday savod olgandan keyin o'z shevasini adabiy til demay nima deyishsin. O'zbekiston Respublikasi „Davlat tili haqida"gi qonunning 6-moddasida „ O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar- texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi" deb belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, har kim ta'lim olish tilini o'zi tanlashi kerak. Biz tahsil olayotgann oliy ta'limda ham guruhlar tanlagan ta'lim tili bo'yicha ajratiladi. Masalan, o'zbek guruh, turkman guruh, qozoq guruh. Har bir guruhga o'zlari tanlagan tilda dars o'tiladi.

Hozir biz global, jadal rivojlanayotgan texnika asrida yashayapmiz. Qayerga qaramaylik hamma joyda rivojlanish, yangi qurilishlar, maishiy texnikalar, zavodlar, fabrikalar qurilib, ishga tushib, xalqqa xizmat qilayapti. Maxsulotning sifatini, ko'rinishini, qayerda ishlab chiqarilayotganini biz reklamalardan ko'rib bilamiz. Kimdir televizordan, kimdir radio yoki internetdagi tarmoqlardan yoki ko'cha-ko'ydagi bannerlardan. Bu yaxshi albatta. E'tibor berib nazar tashlasangiz bannerlardagi imlo xatolar shunchalar ko'pki, yozgan odam savodsizmikin deb o'ylab qolasan kishi. Ko'p xatolar o' va g' larni yozishda yo'l qo'yiladi. Oni ustiga ko'p hollarda tutiq belgisini qo'yishadi. Meni fikrimcha reklama qilayotgan firma mahsulot reklamasini tayyor holga keltirgandan keyin uni tilshunosga yoki ona tilini yaxshi biladigan mutaxassisga ko'rsatishi lozim.

Shu o'rinda shuni ham aytish joizki, darsliklarda yo'l qo'yilayotgan qo'pol xatolar haqida gapirmasdan ilojimiz yo'q. 5-sinf Ona tili 2020-yilda chiqqan, yangi to'ldirilgan 5-nashrida 6-bet, 10-mashqdagi xatolik ta'bimizni xira qiladi. Unda berilishicha „O'zbekiston Respublikasi „Davlat tili haqida"gi Qonunining quyidagi moddasiga diqqat qiling.. 6-modda. Televideniya va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi" deyilgan. Lekin „Davlat tili haqida"gi qonundagi 6-moddada umuman boshqa narsa haqida gap boradi. Yuqorida berilgan mashqda 16-modda haqida fikr yuritiladi. Endi siz o'ylab ko'ring, o'qituvchi bolalarga qanday ta'lim bersin. Oliy ta'limdagi ma'lumotnimi yoki darslikdaginimi. Sal e'tiborsiz holda dars o'tilsa, bolalarga notog'ri ma'lumot berib yuboriladi. Imlodan xato ketsa ham kechirsa bo'ladi, lekin bunday xatoga qanday yo'l qo'yish mumkin. Muharirlar qayoqqa qarayapti.

So'zim oxirida shuni aytmoqchimanki, gapirayotgan gapimizga, tilimizga befarq bo'lmaylik. Tilimiz bu bizni g'ururimiz, faxrimiz. Men o'zbek ekanligimdan, o'zbek tilida gapirayotganimdan va bu til mening ona tilim ekanligidan juda xursandman.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi „ Davlat tili haqida"gi Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 21-oktyabrdagi „ O'zbek tili nufuzini oshirish to'g'risida"gi nutqidan.
3. F. Bobojonov, K. Rajapova, D. Yusupova „ Hozirgi o'zbek tili" Toshkent – 2019.
4. www. Ziyonet. uz

# ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA O‘QUV FAOLIYATI UCHUN MOTIVATSIYANI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

**Mirsaid Yunusov Xudayarovich**
Jizzax viloyat Kar bolalar maxsus maktab-internati o‘qituvchisi
mirsaid.yunusov.90@mail.ru Tel: +998976440217

**Annotatsiya:** Ta’lim jarayonida eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun har qanday o‘quv materialini so‘z bilan tushuntirish ba’zan qiyin kechadi va multimedia imkoniyatlari tufayli o‘quvchilar zarur bo‘lgan ma’lumotlarni idrok etishlari osonlashadi.

**Kalit so‘zlar:** Eshitish qobiliyati, multimedia, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, AKT, ijtimoiy reabilitatsiya, potentsial imkoniyat, kompensatsion faollashuv, vizual idrok, kognitiv matn, sotsializatsiya.

*«Jamiyatdagi karlik muammosi - bu ijtimoiy muammo».*
***L.S. Vigotskiy:***

Maxsus ta’limning asosiy vazifalaridan biri bu psixofizik rivojlangan bolalarni ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga qo‘shilishi. Ma’lumki, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi har qanday og‘ishlar uning umumiy rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Eshitish analizatorining buzilishi nutqni rivojlantirishda va bolaning umumiy rivojlanishida sezilarli og‘ishlarga olib keladi. Shu sababli, o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanish defektolog-o‘qituvchi faoliyatida tuzatish va rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirishning zarur vositalaridan biridir.

Davlat, jamiyat va oila maktab oldiga qo‘ygan maktab ta’limining maqsadi, bilim va ko‘nikmalarni egallashdan tashqari, bolaning salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, uning tabiiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Zamonaviy jamiyatda davom etayotgan o‘zgarishlar bugungi kunda yangi sharoitlarga tez moslashishni talab qilmoqda.

Eshitish qobiliyatini yo‘qotish eshitish qobiliyati past bo‘lgan bolalarning fikrlash rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, ammo aql har qanday yoshda saqlanib qoladi. Bu shuni anglatadiki, kar bolalarning potentsial imkoniyatlari eshitish qobiliyati bilan bir xil. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish nafaqat eshitish va nutqni rivojlantirishga, balki umuman barcha bilim faoliyatini shakllantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o‘quv jarayonida erishiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish kar va eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni o‘ziga xos kommunikativ cheklovlari bilan ta’lim va ijtimoiy reabilitatsiya qilish tizimida alohida ahamiyatga ega. Ushbu omil, shuningdek, eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda saqlanib qolgan sezgi organlarining kompensatsion faollashuvi bilan bog‘liq holda, axborotni vizual idrok etish etakchi o‘rinni egallashi bilan kuchayadi. Mavzuga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishda faqat o‘rganilayotgan materialning mazmuniga tayanib bo‘lmaydi, o‘quv jarayonida o‘quvchilarni jalb qilish usullari hamda dars texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Kompyuter va kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Ta’lim jarayonida eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun har qanday o‘quv materialini so‘z bilan tushuntirish ba’zan qiyin kechadi va multimedia imkoniyatlari tufayli o‘quvchilar zarur bo‘lgan ma’lumotlarni idrok etishlari osonlashadi. Bundan tashqari, ovoz balandligini o‘zgartirishni osonlashtiradigan, xususan audio materiallarning o‘ziga xos chastotalarini yangilash orqali yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib, qoldiq eshitishni o‘rgatish mumkin. Eshitish qobiliyati cheklangan va kar bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi:

- o‘rganish uchun motivatsiyani oshirish;
- o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish;
- o‘quvchilarning bilim doirasini faollashtirishga ko‘maklashish.

Axborot texnologiyalarini o‘qitishda qo‘llashning afzalliklaridan biri bu faoliyatning yangiligi, kompyuter bilan ishlashga qiziqishi tufayli ta’lim sifatini oshirishdir. AKTdan foydalanish darslarni yuqori estetik va emotsional darajada o‘tkazishga imkon beradi, ravshanlikni ta’minlaydi, agar

kerak boʻlsa, siz koʻproq didaktik materialni jalb qilishingiz mumkin, vaqtni tejashingiz, har bir talabaga oʻz tempida ishlashiga imkon yaratasiz, mustaqil faoliyat koʻnikmalarini shakllantirasiz, oʻqituvchiga talaba bilan differentsiallashgan holda alohida ishlashga imkon beradi, zudlik bilan oʻquv natijalarini kuzatib borish va baholash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar jalb qilingan oʻquv fanlariga qiziqish va ijobiy munosabat bilan bolalar. Bu ularning motivatsiyasini oshirishga va ham bola, ham oʻqituvchi uchun muhim boʻlgan natijalarga erishishga yordam beradi. Kompyuter oʻquv jarayoni samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga, yangi innovatsion ta’limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, bu esa kompyuterdan foydalanadigan oʻquvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan boʻladi.

AKTdan foydalangan holda oʻtkaziladigan darslar, mening fikrimcha, maktabimizdagi innovatsion ishlarning eng muhim natijalaridan biridir. Kompyuter texnologiyalarini deyarli har qanday maktab mavzusida qoʻllash mumkin.

AKT oʻqituvchiga oʻz ishida sezilarli darajada yordam beradi: qoʻshimcha matnli va tasviriy materiallarni tanlash, individual topshiriqlar va qoʻshimcha kognitiv matnlar bilan kartalarni yaratish, elektron monitoring bazasini yaratish, shaxsiy uslubiy ishlanmalarni tizimlashtirish va saqlash, hisobot hujjatlarini tayyorlash va boshqalar. Bularning barchasi bolalarni kam vaqt sarflash bilan oʻqitishda yuqori natijalarga erishishga imkon beradi.

Oʻquvchilar oʻqituvchining misolidan foydalanib, kompyuter nafaqat oʻyinlar uchun kerak ekanligini bilishlari kerak, balki kompyuter yordamida siz koʻplab qiziqarli ma’lumotlarni olishingiz, kitoblar, gazetalar, yangi oʻquv qoʻllanmalar, dasturlar yaratishingiz mumkin.

Bunda oʻqituvchilarning mustaqil faoliyat imkoniyati kengaymoqda, chinakam tadqiqot faoliyati koʻnikmalari shakllanadi. Turli ma’lumotnoma tizimlariga, elektron kutubxonalarga va boshqa axborot resurslariga kirish ta’minlanadi.

Bundan tashqari, AKTdan foydalangan holda, defektolog-oʻqituvchi, bolalarni oʻqitishda, tuzatish va rivojlanish xususiyatiga ega boʻlgan maxsus ta’lim dasturlaridan foydalanadi. Oʻqitishda kar bolalarning kommunikativ madaniyatini, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini oʻzlashtirish uchun bunday dasturlardan foydalaniladi. Misol uchun, “Sizning derazangizdan tashqaridagi dunyo”, “Koʻrinadigan nutq” kabi dasturlar kashfiyotga asoslangan boʻlib, keng koʻlamli koʻnikmalar va e’tiqodlarni rivojlantiradi.

Shunday qilib, zamonaviy AKTdan foydalanish oʻquv jarayonini boyitadi, eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning ta’limini yuqori kasbiy darajada tashkil etish, oʻqitishni samaraliroq qilish, kar bolalarning jamiyatdagi muvaffaqiyatli sotsializatsiyasini ta’minlashga imkon beradi.

**Adabiyotlar roʻyxati**

1. Bosova, L.L. Boshlangʻich maktabdagi kompyuter darslari / L.L.Bosova // Informatika va ta’lim.-2002.-№1

2.Keherter, T.A.Boshlangʻich sinflar oʻqituvchisi amaliyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurati / T.A.Kexter.-2004.-155s.

3. Nazarova, L. P. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi: Oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik / V.I.Seliverstov tahriri ostida.-M.: VLADOS gumanitar nashriyot markazi. 2001-288s.

4. Yunusov, M. (2020). КАР ВА ЗАИФ ЭШИТУВЧИ БОЛАЛАР ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(76). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6465

5. Yunusov, M. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(71). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6366

6. Yunusov, M. (2020). Методика обучения детей с нарушением слуха на основе мультимедийных средств. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(71). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6367

7. Yunusov, M. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(75). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6480

8. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA’LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING OʻRNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *1*(1). извлечено от https://presedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711

# ONA TILI DIDAKTIKASINING TADQIQOT PREDMETI.

**Yusupova Madinabonu Mahmudovna**
Navoiy viloyati Xatirchi tumani
15-umumiy oʻrta ta’lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

**Annotatsiya.** Umumiy didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga oʻrgatish muammolarini tadqiq qiluvchi fandir. Ona tili didaktikasi esa yoshlarda ijtimoiy tajribaning alohida xususiyati — fikrni til vositasida shakllantirish va uni roʻyobga chiqarish tajribasini rivojlantirishdan iborat.

**Kalit soʻzlar.** Til, tadqiqot predmeti, L.P. Fedorenko, oʻqitish, didaktika, yozma nutq, tovush, harf, soʻz, gap, matn.

Til yashagan, yashayotgan va bundan keyin yashaydigan avlodlar oʻrtasidagi vorislikni ta’minlaydigan asosiy vosita boʻlib, uni maktabda oʻquv predmeti sifatida oʻqitish tilning ta’lim-tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Shunday ekan, ona tili didaktikasining tadqiqot predmetini qanday tushunmoq kerak? Adabiyotlarda til oʻqitish metodikasining tadqiqot predmetini ajratishga urinishlar istagancha topiladi. L.P. Fedorenko «ona tilini oʻzlashtirish qonuniyatlari va til bilimlarini bolalarga oʻrgatish vositalarini» bu fanning tadqiqot predmeti sifatida ajratgan. L.P.Fedorenkoning ta’rifida ikki xil hodisa metodikaning tadqiqot predmeti sifatida qayd etilgan. Tilni oʻzlashtirish qonuniyatlari keng hodisa boʻlib, u ona tili metodikasi fani doirasidan chiqishga olib keladi. Birinchidan, ona tili oʻquv predmeti sifatida ta’lim jarayonida oʻqitiladi. Tilni oʻzlashtirish qonuniyatlari, avvalo, tilning oʻz tabiatiga, urf- odat, an’analar, jamiyat a’zolari oʻrtasidagi muloqot, fiziologik va psixologik hodisalarga daxldor. Koʻp qirrali, rangbarang jarayonlarga mansub hodisani ona tili metodikasining tadqiqot predmeti sifatida ajratish mantiqan toʻgʻri boʻlmaydi. Ikkinchidan, til bilimlarini bolalarga oʻrgatish vositalarini metodikaning tadqiqot predmeti shaklida tan olish, bu fanning harakat doirasini toraytirishga sabab boʻladi. Aslida esa, ona tili metodikasi va uning qobigʻida shakllanayotgan ona tili didaktikasi didaktika oʻrganadigan hodisalarni xususiy holatlarda — ona tili oʻqitish nuqtai nazaridan oʻrganadi. Binobarin, ona tili didaktikasi umumiy didaktikaga oʻxshab, ta ’lim jarayoni, ona tilidan ma’lumot va ta’lim mazmuni, ta’lim turlari, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari kabi muammolarning barchasi bilan aloqadordir. Barcha oʻquv predmetlariga oʻxshab ona tili ham maktabda ta’lim jarayonida oʻrganiladi. Ta’lim jarayoni esa bola uchun tilni oʻzlashtirishning yangi shart-sharoiti boʻlib, u makon va zamonda yuz beradi Ona tilidan qanday mashgʻulot boʻlmasin, oʻqituvchi va o ʻquvchining o ʻzaro ta ’siri ma’lum oʻquv materialiga yoʻnalgan. Oʻqituvchi faoliyati (oʻqitish), oʻquvchilar faoliyati (oʻqish), bolalarning real oʻquv imkoniyatlariga mos oʻquv materiali tilni ta’lim sharoitida oʻzlashtirishning barqaror uzvlari sanaladi. Oʻqituvchi oʻrganilayotgan mavzu doirasida oʻz bilimlarini tushuntirish yoʻli bilan bolalarga ta ’sir qilsa, oʻquvchilar oʻqituvchi tushuntirishini tinglash, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yoʻllari bilan unga ta’sir qiladi. Ikki xil ta’sirning amal qilish natijasi oʻlaroq, ta’lim ijtimoiy institutining alohida turi sifatida amal qiladi. Oʻquv materiallariga koʻra, oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro ta’siri ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ona tili didaktikasining maqsadi. Oʻzbek tili Oʻzbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an’analar davlat tili vositasida e’zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida toʻplangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali oʻzlashtiriladi, ona tili vositasida oʻrgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi. Maktabda ona tilini oʻquv predmeti sifatida oʻqitish uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Bola oʻzining ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini til vositasida yuzaga chiqaradi. U oʻzini va oʻzgalarni, atrofdagi narsa-hodisalarni til yordamida taniydi, bilib oladi. Maktabda til oʻqitish — uni oʻzlashtirishning tabiiy davomi boʻlib, u bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tajribasi asosida tashkil etiladi. Ona tili predmeti oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (ogʻzaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, soʻz, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, oʻqish va yozish) egallashlari bilan qoʻshib olib borishning yetakchi omilidir. Ona tili didaktikasining maqsadi oʻquvchilarda fikrlash mahsulini adabiy til me’yorlari hamda nutq maqsadiga muvofiq, ogʻzaki va yozma shaklda ongli, toʻgʻri, ravon, ta’sirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalarini

tadqiq qilishdan iborat. Ona tili didaktikasining vazifalari. Ona tili didaktikasi pedagogik fanlar sirasiga kirib, maktabda ona tili oʻqitishning mazmuni, mundarijasi, yoʻnalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarini oʻrganadi. U maktabda ona tili oʻqitish muammolarini tadqiq qilar ekan, qator savollarga javob izlaydi. Nima uchun oʻqitiladi? Shu savol asosida maktabda ona tili o ʻqitishning maqsadi qayd etiladi. Maktabda ona tili ta ʼlimining asosiy maqsadi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashdir. Nutq madaniyati tarkiban bilim, koʻnikmamalaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tilga oid munosabatlar tizimidan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Roziqov O.R. Oʻzbek tilidan dars tiplari. — T.: 1976
2 Mahmudov M.H. Ta’lim etaloni. — Buxoro. 1999.
3. www.ziyouz.com

# ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ БИЛИМ ФАОЛИЯТИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ

**Алимов Мансур Муродхонович**
Урганч тумани 32- сон мактабнинг информатика ва ахборот технологиялари фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада информатика фани ва уни ўқитишда турли хил интерактив ўйинлар ва уларнинг ахамияти айтиб ўтилган. Ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Ахборот жараёнларини, информатика, интерактив дастурлар, моделлар, аниматсион филмлар, телевизион дастурлар

Мактабларда тажриба жараёнлари шуни кўрсатадики информатика дарсларида талабаларнинг билим фаолиятини фаоллаштиришга алоҳида эътибор бериш керак деган хулосага келди. Компютер фанлари дарсларида ўқувчиларнинг фаолиятини фаоллаштириш қийин эмас. Ушбу фаолият, асосан, компютер ўқувчиларининг фақат ўйин-кулги воситаси сифатида қабул қилиниши билан боғлиқ. Ва шунга кўра, компютерни ҳисоблаш воситаси сифатида ўрганиш, ахборотни қидириш, қайта ишлаш, узатиш воситаси, яъни ахборот жараёнларини амалга оширишнинг энг муҳим воситаси сифатида, ниҳоят, компютерларнинг тузилиши ва тамойилларини ўрганиш ўқувчиларнинг кўпчилигидан фонга ўтади.

Замонавий мултимедиа қобилиятлари ва мактаб ўқувчилари учун информатика дарсининг барча маълум аҳамияти билан биргаликда ўзаро алоқаларни амалга ошириш орқали талабаларнинг билим фаолиятини информатика (ёки аксинча - ахборот технологиялари) орқали фаоллаштириш орқали кўплаб усуллар, техникалар ва бундай фаоллаштириш воситаларини топишингиз мумкин.

Тадқиқотчилар фикрига кўра, медалнинг икки томони бор: бири-ахборот технологиялари компютер фанлари дарсларида когнитив фаолиятни фаоллаштириш воситаси сифатида, иккинчиси-бошқа соҳаларга қизиқишни кучайтириш учун кенг имкониятларга эга бўлган информатика мавзуси.

Шундай қилиб, информатика дарсида таҳсил олувчиларнинг билим фаолиятини фаоллаштириш учун, биринчи навбатда, энг кўп мултимедиа ва интерактив шаклда ўқув материалларини тақдим этиш зарур. Бундай материал қуйидаги шаклда тақдим этилиши мумкин:

- тақдимотлар (уларнинг ёрдами билан сиз материални кўрсатишингиз мумкин, лекин талабаларга мустақил равишда ўрганиш имкониятини беришингиз мумкин, бу эса кўпроқ аҳамиятга эга);
- компютер ўйинлари (албатта, ўқув ёки билим материаллар ўз ичига олган ўйинлар);
- интерактив дастурлар, тестлар (ўқувчи таълим жараёнида қанчалик кўп иштирок этса, билим, кўникма ва малакага эга бўлиш қанчалик аҳамият касб этади);
- график намойиш материаллари (бу оддий плакатлар, стендлар, тарқатма материаллар каби бўлиши мумкин, ва агар у мактаб ўқувчиси компютерда топадиган ва кўриб чиқадиган тасвирлар бўлса яхши бўлади);
- видео ёки аниматсион филмлар (ва у камида бир неча таълим маъносини оширади, агар талаба, масалан, 11-синф, дарс карикатура қаради, деб уят ҳеч нарса йўқ).

Етти марта эшитишдан кўра бир марта кўриш яхшидир-бу тушунарли. Лекин бундан ҳам муҳими - камида бир марта. Кейин билимдан ташқари, маҳорат пайдо бўлади. Ва агар сиз бир неча марта қилсангиз, маҳорат ривожланади. Шу сабабли, информатика дарсларида ўқувчиларнинг амалий фаолияти устувор аҳамиятга эга бўлиши керак, бу орқали билиш содир бўлади.

Мактабдаги тажриба шуни кўрсатадики, мавзуга бўлган қизиқишни ривожлантиришда ўрганилаётган материалнинг мазмунига тўлиқ таянмаслик керак. Когнитив қизиқишнинг келиб чиқишини фақат материалнинг мазмунли томонига қисқартириш фақат дарсда ситуатсион қизиқишга олиб келади. Агар талабалар фаол фаолиятга жалб қилинмаса, унда ҳар қандай мазмунли материал уларга қизиқиш уйғотадиган мавзуга қизиқиш уйғотади. Шунинг учун, мактаб ўқувчиларининг билим манфаатларини шакллантиришда, дарсларда ўйин фаолияти мавзуси ва ташкил этилиши бўйича дарсдан ташқари тадбирлар каби сама-

рали педагогик воситалар алоҳида ўрин тутади. Мен ўйинларда қолишни истайман, чунки ўйин фаолиятини ташкил этиш мактаб ўқувчиларини ўқитишга қизиқишнинг кўплаб усуллари орасида энг самарали ҳисобланади.

Ўйин фаол фаолиятдан биридир. Бу билим олиш, шахснинг турли фазилатларини ривожлантиришга, ўқув жараёнини фаоллаштиришга ёрдам беради.

Ўқув машғулотлари давомида сиз телевизион дастурлардан турли хил ўйинлар ва ўйин лаҳзалари моделларидан фойдаланишингиз мумкин: «Зукколар ва зукколар «, «Энг яхши соат», «Заиф боғланиш», «Мўжизалар майдони» ва бошқалар. Ўқитувчининг ўзи бошқотирмалар, кроссвордлар, турли хил викториналар тузиб, янги ўйинни лойиҳалаши мумкин. Ўқувчилар ўйин ўйнашни яхши кўрадилар. Дарҳақиқат, ўйнаш жараёнида рақобат ҳаяжони туғилади ва бу кучли мотивдир. Шуни унутмаслигимиз керакки, ўйинга кириш имкони бўлиши керак, унинг мақсади эришиш мумкин, албатта ранг-баранг, хилма-хил дизайни, шунда болалар ўйинда иштирок этишдан мамнунлик, қувноқ кайфият ва ўйиндан завқ олишади. Ўйин ўз мақсадига эришиш учун асосий элементлардан бири - унинг ҳиссийлиги зарур.

Ўйин ҳақли равишда дунёнинг саккизинчи мўжизаси деб номланади. Ахир айнан шу эрда, ўйин жараёнида болалик дунёси илм олами билан бирлашади. Барча ўйинларда олимнинг иши билан умумий кўплаб элементлар мавжуд. Иккала ҳолатда ҳам вазифа жалб қилинади, уни энгиш керак бўлган қийинчилик, кейин кашфиёт қувончи, тўсиқни энгишдан қониқиш ҳисси. Шунинг учун барча одамлар, ёшидан қатъи назар, ўйинга қизиқишади ».

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Софонова Н.В. Теория и методика обучения информатике. М., 2004

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HAR -XIL USLUBLAR ASOSIDA IJODIY MASALAR USTIDA ISHLASH

**Yo‘ldosheva Umida Raxmatovna**
Qiziltepa tumanidagi12-maktabning
boshlangich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich sinf ta’limiga bo‘lgan e’tiborning oshishi yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sishida muhum ahamiyat kasb etishi ta’kidlanmoqda. Mazkur maqolada boshlang‘ich o‘quvchilariga o‘rta arifmetik masalalarni yechishga o‘rgatishning usullari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** masala, o‘rta arifmetik qiymat, amal, misol, topshiriq.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarini qiziqarli tashkil etish uchun qiziqarli masalalar yechimini va yechish usullarini ko‘rsatish muhim rol o‘ynaydi.Shu maqsadda qo‘yida ko‘rsatilgan masalalarni keltirish mumkin.Bu masalalar yosh bolalarni matematika faniga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi,ularni yechish jarayonida fikrlash qobiliyatini o‘stiradi.

Keltirilgan masalalar hayotiy bo‘lib , aksariyati xorij manbalardagi masalalardan o‘zbek boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos tarzda tarjuma qilingan.

Bu masalalardan namunalar keltirib ularning yechimini ko‘rsatib o‘tamiz:

Masala 1: Izquvar Sherlok Xolms o‘z kitobining 12-ta sahifasida uch jinoyatchi nomini keltirgan.U xuddi shu tarzda kitobning 108-ta sahifasida nechta jinoyatchi nomini keltirgan?

Masalaning berilishidan ko‘rinib turibdiki izquvar Sherlok Xolms izquvar bo‘lishiga qaramay voqealarni o‘z kitobiga qayd qilib boray ekan.

Masala yechimi quyidagicha bo‘ladi:

12 sahifada -3 ta jinoyatchi nomi,

12:3 =4 sahifada 1 ta jinoyatchi nomi keltirilgan.

Demak, 108 ta sahifada: 108:4=27ta jinoyatchi nomi keltirilgan.

Javob: 27 jinoyatchi.

Masala 2: Mushuk bildiki bir savzining vitamin miqdori beshta sichqon vitaminlar miqdoriga teng ekan.U sichqon ovlashni to‘xtatdi.Odatda mushuk bir oyda (4-hafta)30 ta sichqon ovlardi. Mushuk ikki haftada nechta sabzi yeyishi kerakki u rejadagi vitaminni qabul qilsin.

Masala yechimi quyidagicha

30:5=6ta sabzi bir oyda (4-haftada)

6:2=3 ta sabzi ikki haftada. Javob 3 ta sabzi.

Masala 3: Otliq 72 km yo‘lni 6 soatda bosib o‘tadi. Agar u ikki baravar sekin harakatlansa, 54 km masofani necha soatda bosib o‘tadi?

Bu masala miqdorlarga doir bo‘lib, unda masofa va vaqt berilgan.

Masalaning yechimi quyidagicha:

72 km:6 soat= 12 km bir soatda bosib o‘tgan yo‘li.

Ikki barobar sekin harakatlansa 12:2= 6 km bir soatda harakatlanadi.

54km :6km/s= 9 soatda bosib o‘tadi.

Javob:54 km masofani 9 soatda bosib o‘tadi.

Masala 4: Kema sohildan 30 km/s tezlik bilan harakatlanib yo‘lga chiqdi. U ikki soat yurganidan keyin halokatga uchradi. Kema kapitani va qolganlar 10 soatdan keyin sohilga suzib kelishdi. Ular qanday tezlik bilan suzib kelishdi?

Masala o‘quvchilarga qiziqarli bo‘lib,u harakatga doirdir.

Masalaning yechimi quyidagicha:

Kema 30 km/s * 2soat= 60 km suzib borgan.

Kema kapitani va boshqalar:

60 km:10 soat= 6 km/soatda suzib kelishdi.

Javob: 6 km/s tezlik bilan suzib kelishdi.

Masala 5: Jasur orzu qiladiki unga uzunligi ikki metr va eni bir metrli shokolad bo‘lsa. Nazir esa undan uch baravar ortiq shokoladni orzu qiladi. Nazir necha metrli shokoladni orzu qilgan?

Berilgan masalada uzunlik bilan birga yuza o‘lchovini ham foydalanib bilish kerak

Masalaning yechimi quyidagicha:

Jasur : eni 1 m, uzunligi 2m-li shkolad orzu qilgan.

Nazir bo‘lsa undan 3 baravar katta shkolad orzu qilgan.

Demak eni 1m va uzunligi 3*2=6metr

Javob: Nazir uzunligi 6 metr va eni 1 metrli shokolad orzu qilgan.

Masala 6: Shaxzodani izlab topish uchun sarkarda to‘rtta botqoqlikni bosib o‘tish kerak edi. Har bir botqoqlikda 35 tadan tepalik bo‘lib, har bir tepada 3 tadan qurbaqa turibdi. Sarkarda nechta qurbaqani ko‘rdi?

Masalaning yechimi quyidagicha:

Jami to‘rtta botqoqlikda nechta tepalik bor?

4*35=140 tepalik

Hama tepaliklarda nechta qurbaqa turibti?

140*3=420 ta qurbaqa

Javob:Sarkarda 420 ta qurbaqani ko‘rdi.

Masala 7: Do‘stlari Salimga 60 kg makaron yeyishni topshiriq berishdi. U birinchi kuni makaronning beshdan bir qismini, ikkinchi kuni esa qolgan makaronning to‘rtdan bir qismini yeb tugatdi. Ikki kunda Salim necha kg makaronni yeb tugatdi?

Bu masala mantiqiy bo‘lib,boshlang‘ich sinflardagi ulushlarga doirdir.

Masalaning yechimi quyidagicha:

Bor makaron 60 kg

Birinchi kuni 60:5= 12 kg makaron yedi

Qoldi 60-12=48 kg makaron

Ikkinchi kuni 48:4= 12 kg makaron yedi

Ikki kunda 12 kg+12kg= 24 kg makaron yedi

Javob: 2 kunda 24 kg makaron yeb tugatdi.

Masala 8: O‘quv yili boshi 2-sentabr kuni o‘qituvchi Nasiba Abdullayevna o‘z o‘quvchilari bilan tanishish vaqtida aniqladiki, sinfda 5 ta Nigora va 3 ta Shoxrux, Olimlar esa Nigora va Shoxruxlardan 2 marta kam, Azizalar esa Olimlardan 2 ta ortiq edi.Sinfda nechta Aziza bor edi?

Masala o‘quvchilar nomini aniqlash maqsadida berilgan.

Masalaning yechimi quyidagicha:

Nigora va Shoxruxlar 5+3= 8 ta

Olimlar 8:2=4 ta

Azizalar 4+2= 6 tas

Javob: 6 ta Aziza bor edi.

Masala 9: Maktabning 2-A sinf o‘quvchilari tish dovolovchi vrach qabuliga kelishdi. Qabuldan so‘ng ularning 12 dona tishlari sug‘urib olindi. Undan keyin vrach qabuliga 2-B sinf o‘quvchilari kelishdi. 2-b sinf o‘quvchilarining 2-A sing o‘quvchilariga qaraganda 4 ta ortiq tishlarini sug‘urib olindi. Jami tish doktori kabinetida nechta tish qoldi. Agar o‘quvchilarning biri tishini uyiga olib ketgan bo‘lsa.

Masalaning yechimi quyidagicha:

2-A sinf o‘quvchilari tishi 12 ta

2-B sinf o‘quyvchilari tishi 12+4=16 ta

Jami: 12+16= 28 ta tish sug‘urib olindi

28-1=27 ta tish kabinetda qoldi

Javob: 27 ta tish.

Masala 10: Odam toza yurishi uchun yil davomida 24 ta sovun kerak bo‘lar ekan. Faqat panjalar va quloqlarni yuvish uchun 8 marta kam sovun ishlatilsa va har bir quloqni yuvish uchun birta sovun kerak bo‘lsa, panjalarni yuvish uchun yil davomida nechta sovun kerak bo‘ladi.

Masalaning yechimi quyidagicha:

24:8=3 ta sovun quloq va panjalar uchun

1+1=2 ta sovun quloq uchun

3-2= 1ta sovun panjalar uchun.

Javob: 1 ta sovun panjalar uchun

Hammaga ayon ki, o‘yin tarzida yechiladigan masalalar o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini o‘stiradi. Mashhur olim Eynshteyn aytganidek “bolalar o‘yini oldida nazariy fizika hech narsa emas”.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Г.Остер. Задачник.М.,1977.
2. H.Hamedova, Z.Ibragimova, T.Tasetov. Matematika. Toshkent.,”Turon - Iqbol” 2007.
3. M.E. Jumayev, Z.G‘. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi .Toshkent/2005 y.

# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING O‘QUVCHI IJODIY FAOLIYATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

**Raxmonova Barfiya Sanoyevna**
Qiziltepa tumanidagi 15-umumiy o‘rta ta’lim
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chop etilayotgan har bir darslik davr talablariga mos holda tuzilishi muhum masala sifatida keng ommada ko‘rib chiqilmoqda**.** Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rta arifmetik masalalarni yechishga o‘rgatishning usullari oid fikrlar ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** masala, o‘rta arifmetik qiymat, amal, misol, topshiriq intelektual, ijodiy, individual, reproduktiv, ko‘nikma.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasining shakllanishida, ijodkorligini oshirishda matematika darsligi ta’lim vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratik jamiyatda har bir fan bo‘yicha muqobil darsliklarning yaratilishi tabiiy hol. Darsliklar tajriba-sinov maydonchalarida tekshirilgach, tenderda g‘olib chiqqanlari Respublika miqyosida darslik sifatida qo‘llanilishiga ruxsat beriladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari to‘rt mualliflik guruhi tomonidan tayyorlangan matematika darsliklari asosida ta’lim olishmoqda. Bular: 1-sinf matematika (2018 y.) darsligi (mualliflar: M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev); 2-sinf matematika (2018 y.) darsligi (mualliflar: N.Abdurahmonova, L.O‘rinbayeva); 3-sinf matematika (2016 y.) darsligi (mualliflar: S.Burxonov, O‘.Xudoyorov, Norqulova.); 4-sinf matematika (2017 y.) darsligi (muallif: N.Bikbayeva, E.Yangabayeva, K.Girfanova) .

Albatta ularning barchasi Davlat ta’lim standarti talablari va boshlang‘ich sinf matematika o‘quv dasturi mazmuniga mos yozilgan darsliklardir. Darsliklarda nazariy va amaliy materiallar tizimli, uzviy bog‘liq hamda osondan qiyinga, soddadan murakkabga, konkretlikdan abstraktlikka (ya’ni induktiv tarzda) o‘tishiga asoslangan holda keltirilgan. Ammo masalaning boshqa bir tomoni bor. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi to‘rt yil o‘qiydi. Turli guruh mualliflari tomonidan yozilgan darsliklari asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Boshlang‘ich ta’limning to‘rt o‘quv yili davomida o‘quvchi bir guruh mualliflar tomonidan yaratilgan matematika darsliklari bilan ta’lim olishi yaxshi natijalarga olib keladi deb o‘ylaymiz. Albatta, darslikni yozish nuqtayi nazarida har bir mualifning o‘ziga xos uslubi bor. Shu nuqtayi nazardan imkon qadar har bir guruh mualliflari boshlang‘ich ta’limning to‘rttala sinfi uchun o‘zlarining matematika darsliklarini tayyorlashlarini tajriba taqozo qilmoqda.

Darslik materialining asosiy qismini o‘quv topshiriqlari tashkil etadi. Olimlarning ta’kidlashlariga ko‘ra xotira va tafakkurga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarininng nisbati 1:1 kabi bo‘lishi ta’lim samaradorligining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Agar darslikdagi o‘quv topshiriqlari faqatgina reproduktiv (esga tushirish) xarakterda bo‘lsa, o‘quvchilar uchun o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikmalar qiziqarli bo‘lolmaydi, yoki aksincha, o‘quv topshiriqlari faqat o‘quvchidan aqliy mehnatni, ijodiy faoliyatni talab qilsa, ayrim o‘quvchilarning bilim va malakalarni egallashlari qiyinlashadi, zerikib qolishadi. Shu sababli topshiriqlar tizimini tuzishda esga tushiruvchi topshiriqlar salmog‘i biluv, ijodiy mazmundagi topshiriqlar bilan mutanosibligini hisobga olmoq darkor.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining individual xususiyatini hisobga olgan holda ijodiy mazmundagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish o‘quvchining o‘quv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, bolada mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Darslikda “Misolga diqqat bilan qara. Qanday qonuniyatni sezding?”, “Sonlar qatorini davom ettir!”, “Misol yechimini diqqat bilan kuzat! Qanday xulosa chiqarish mumkin?”, “Masalaning boshqa yechim usuli mavjudmi?”, “Masalaning qulay yechimini top!” kabi topshiriqlarning kiritilishi o‘quvchilarni topqirlikka, izlanishga, ijodkorlikka jalb qiladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida qaraladigan ijodiy mazmundagi o‘quv topshiriqlarini quyidagi ko‘rinishlarda berish mumkin: 1) o‘quvchilar tomonidan misol va masalalar tuzish hamda

uni o‘zgartirishga doir topshiriqlar; 2) shartida ma’lumotlari yetishmovchi masalalar; 3) shartida ortiqcha ma’lumotlar qatnashgan masalalar; 4) ko‘p yechimli masala-topshiriqlar; 5) mantiqiy masala-topshiriqlar; 6) muammoli masala-topshiriqlar; 7) turli usullarda yechishni talab qiladigan masala-topshiriqlar; 8) nostandart yechim yo‘liga ega bo‘lgan masala-topshiriqlar; 9) geometrik mazmundagi ijodiy topshiriqlar; 10) taqqoslashga doir (darichali) topshiriqlar; 11) ifoda, tenglama va tengsizliklarni tuzish, ularni yechishga doir topshiriqlar; 12) biror belgisiga ko‘ra misol va masalalarni sinflarga ajratishga doir (kombinatorik xarakterdagi) topshiriqlar.

Bunday topshiriqlar salmog‘i 1-sinf matematika darsligida 19,1 foizni, 2-sinf matematika darsligida 24,3 foizni, 3-sinf matematika darsligida 21,9 foizni, 4-sinf matematika darsligida (muallif: N.Bikbayeva) 10,8 foizni tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf matematika darsligidagi o‘quv topshiriqlarini imkon qadar o‘quvchi uchun qiziqarli, xilma-xil, intelektual tarzda o‘girib bayon qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Hatto oddiygina xotiraga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlariga qo‘shimcha shart, savollar qo‘yib, o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi, izlanishi, topqirligini oshirish mumkinligini tajribali o‘qituvchilarimiz yaxshi biladilar.

Xulosa qilib aytganda, matematika darsliklaridagi o‘quv topshiriqlarining o‘quvchi ijodiy faoliyatini, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi hissasi juda katta. Bu o‘quv topshiriqlaridan maqsadga muvofiq holda samarali foydalanish kelajakda davlatimiz, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qiluvchi yetuk, bilimli, ijodkor yoshlarni tarbiyalashda katta hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мирзияев Ш.М. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа.Ташкент, “Узбекистан”, 2017 г, 48стр.

2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

3. Жумаев М. Математика ўқитиш методикаси. Турон иқбол. Т:, 2016 йил 455 бет

# УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИ БАРКАМОЛ ШАХС СИФАТИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

**Сарибоева Шахноза Мусурмоновна**
ГулДУ "Педагогика ва психология" I- босқич магистри

**Аннотация**: Ушбу мақолада ўқувчиларни баркамол шахс сифатида тарбиялашнинг педагогик-психологик омиллари, педагогика фанининг предмети, ўқитишнинг таълим-тарбиянинг замонавий қонуниятлари, мазмуни, усуллари, воситалари билан ёшларни, мутахассисларни қуроллантирувчи фан бўлганлиги учун унинг методологик асослари мақсад ва вазифалари ва усулларини жорий этиш масалалари ҳусусида мулохаза юритилган.

**Калит сўзлар:** Замонавий педагогика, фан предмети, касбий методика.

Тарбия ғоятда мураккаб жараён бўлиб, ҳар даврнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётини ўзида акс эттиради. Унинг усуллари, восита ва омиллари асрлар давомида шаклла- ниб такомиллашади, ўзини оқлаган урф-одатлар анъанага айланади. Бинобарин, тарбияда ҳар бир халқнинг ўз удуми, усули тарихан шаклланган ва тажрибада синалган дунёқараши тарб ия восита лари бў лади, шунинг уч ун тарбия миллий ва тарихий замин дан узилмаслиги керак.

Республикамизнинг ижтимоий, иқтисодий камолоти ёш авлоднинг саъйи ҳаракатларига боғлиқ эканлиги энди ҳеч кимга сир эмас. Ўсиб келаётган ёш авлод ва уларнинг келажакда қандай касб - кор эгаллашлари га қараб, республикамиз ке- лажагини тасаввур қилса бўлади. Келажак ёшларники. Ёшлар фаолияти фаровон ҳаётимиз мезонидир. Худди шу маънода ёшларнинг таълим -тарбиясига жиддий эътибор бермоғимиз лозим. Ёшлар таълим-тарбияси ҳар бир ота онанинг, ўқитувчи тарбиячининг Ватан олдидаги муқаддас бурчларидир. Педагогик тадқиқот усуллари ичида болалар ижодини табиий ҳолатда ўрганиш ва илмий хулосалар чиқариш усули мавжуд. Бунда дамактаб ўқувчиларининг ўзига хос индивидуал тартибдаги фаолиятларига доир омиллар тахлил килинади, муайян хулосаларга келинади. Мақсад мустақил Ўзбекистонимиз ёшларининг типик образлари ва уларда ижобий хислатларни шакллантиришдир. Шу сабабли ёшларнинг турли ёзма дафтарлари, тутган кундаликлари, ёзган хатлари, шеър ва хикоялари, ҳаётий режалари, иншолари, турли ёзма ҳисоботлари улар маънави- ятини ўрганиш учун манба бўлиб хизмат қилади. Оқибатда, мактаб ўқувчилари орасидан етишиб чиқаётган қобилиятли, талантли ёшларни эртароқ аниқлаш, уларнинг истеъдодларини намоён бўлиши учун режа ва шароитлар яратиш имкони пайдо бўлади. Болалар ижодини ўрганиш манбаи кўп бўлиб, улар қуйидагича номланади: фан олимпиадалари, мавзулар бўйича конкурслар, мактаблар бўйича кўргазмалар , мусобақалар, саёҳатлар ва хаказо. Жамият тараққиё ти ва шахс камо лоти уч ун бўлган ма ънавий ва ахлоқий пок ланиш, иймон, инсоф, диёнат, ор -номус, меҳр -оқибат, кексаларга ҳурмат сингари инсоний фазилатлар ўз -ўзидан пайдо бўлмайди. Ҳаммасининг заминида ёш авлодга оилада, умумий таълим мактабларида, халқ таълими тизимининг бошқа тармоқларида бериладиган таълим -тарбия ётади. Умуман олганда, ўсиб келаётган ёш авлодни замо намиз руҳига мос, баркамол инсон бўлишлари учун, тарбиянинг таркибий қисмлари (ақлий, ахлоқий, жисмоний, меҳнат, эстетик тарбия ва политехник таълим) га янгича нигоҳ ташлаш ва ўша таълимни амалга ошириш йўлларини ишлаб чиқмоқ лозим. Ўқитувчи ўқувчи қалбига йўл топиш учун билими ва иши билангина эмас, айни пайтда одоб - ахлоқи, маданияти, рост гўйилик ва ширин суханлиги билан намуна бўлиши лозим. Шундагина ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳақиқий дўстона муносабат қарор топади. Тарбияда инсон шахсини олий ижтимоий қадрият деб тан олиш, ҳар бир бола, ўсмир ва ёш йигитнинг бетакрор ва ўзига хослигини ҳурматлаш, унинг ижтимоий ҳуқуқи ва эркинлигини ҳисобга олиш лозим. Тарбияга яхлит тизимли ёндашиш тарбиянинг педагогик ҳаракатнинг пировард натижасига йўналтирилганлик даражасини белгилаб беради. Бунда педагогик мақсад ва вазифалар, унинг мазмуни тарбиявий жараённинг барча қатнашчилари томонидан тан олиниши шарт. Шахслараро муносабатларда инсонпарварлик, педагоглар ва ўқитувчилар ўртасида ҳурмат туйғуларини шакллантириш, болалар фикрига эътибор қилиш, уларга меҳрибонларча муносабатда бўлиш лозим. Мактаб осоишталик, инсонга меҳр -муҳаббат бешиги бўлиши керак. Педагогика шахснинг камолотга етишини мураккаб ва зиддиятли

жараён деб билади. Шахснинг камолга етишида насл - ирсият (биологик), ижтимоий муҳит ҳам, мақсадга мувофиқ амалга ошириладиган таълим -тарбия ва ниҳоят ўзининг мустақил фаолияти ҳам муҳим аҳамиятга эга. Шахс қайси жамиятда яшаса ўша жамият хаётидаги қонун- қоидаларга асосан камол топади. Шу жамиятнинг моддий ва маънавий бойлигидан баҳраманд бўлади. Моддий ва маъна вий бойликларни яратишда иштирок этади. Агар шу жамиятнинг моддий ва маънавий бойлиги юксак бўлса, у шахсга шу қадар катта таъсир кўрсатади ёки аксинча. Иккинчи томондан эса, шахс фаолияти давомида меҳнат орқали ўз моддий ва ма ънавий бойлигини яратиш жараёнида онгини, ҳаётини, турмуш шароитини хам яхшилаб боради.

Хулоса қилиб айтганда, таълим олувчиларнинг билимларини холисона назорат қилиш ва баҳолаш маҳорати-психологик педагогик жиҳатдан ўқитиш ва тарбиялаш маҳорати билан узвий боғлиқдир. Педагог таълим олувчиларнинг тарбиялари ва маҳоратларини холисона баҳолаш принциплари, методлари ва механизмларини билиши, стандартлаштирилган тестларни ишлаб чиқиш, таълим олувчиларнинг ўзлаштиришини назорат қилишнинг турли шаклларини самарали қўллаш маҳоратига эга бўлиши керак. Ҳозирги замон ўқитувчиси ўз мутахассислигига оид билимлар билан бирга, педагогик ва психологик билимларни ҳамда турли фан йўналишлари бўйича махсус билимларга эга бўлган, касбий тайёргарлик, юксак ахлоқий фазилатларни эгаллаган, таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахсдир.

**Адабиётлар рўйхати**

1. Мардонов Ш.Қ., Ходжаев Б.Х. Ўқитувчилар малакасини оширишнинг инновацион-қадриятли йўналишлари.

2. Маъмуров Б.Б. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув билув жараёнини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитлари. – Т.: «Ниҳол», 2014.

## СПЕЦИАЛИСТ АГЕНТСТВА РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Хакимова Лола Фуркатовна**
Магистр образовательной программы филиала
МГУ им. М.В. Ломоносова в городе Ташкент и НУУЗ
Практикующий психолог

**Аннотация:** в данной статье приведены итоги научно исследовательской работы на основе психодиагностики руководителей с помощью метода арт терапии. Так же в данной статье описано то как арт-терапевтическая методика влияет на сознательные и бессознательные процессы управленцев и какие процессы формирует.

**Ключевые слова:** арт-терапия, психотерапия, психодиагностика, психокоррекция, экзистенциальные кризисы, бессознательный процесс, психоэмоциональная разгрузка, стрессоустойчивость.

## РИСУНОЧНАЯ МЕТОДИКА АРТ-ТЕРАПИИ КАК ОБЪЕКТИВНЫЙ МЕТОД ВЫЯЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ МОЛОДЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

*Познав истину, мы можем многое изменить*

В настоящее время арт-терапия получает все большее распространение как самостоятельное направление в психотерапии. Однако методы и техники арт-терапии могут быть использованы в контексте как метод психодиагностики и в консультирование руководителей и военных, а также лидеров. В качестве особого вида профессиональной деятельности арт-терапия начала развиваться в Великобритании после Второй Мировой войны в тесной связи с психотерапией. Терапия осознанным самораскрытием в творчестве вышла из психоанализа З. Фрейда, аналитической психологии К. Юнга, из психодрамы Дж. Морено и из динамической теории терапевтической помощи графическим самовыражением американского педагога М. Наумбурга.

По мнению А. Копытина, арт-терапия является междисциплинарной областью знания. В ходе арт-терапевтических занятий клиенты вовлекаются в изобразительную деятельность не подозревая как подсознание отвечает на поставленные вопросы психолога. Арт-терапевтические техники дают возможность относительно безболезненного доступа к глубинному психологическому материалу, стимулируют проработку бессознательных переживаний, обеспечивая дополнительную защищенность и снижая сопротивление изменениям.

Спектр проблем, при решении которых могут быть использованы техники арттерапии, достаточно широк: внутренние и межличностные конфликты, кризисные состояния, в том числе экзистенциальные и возрастные кризисы, травмы, потери, невротические и психосоматические расстройства. Арттерапия открывает простор для психолога (любые виды психокоррекции, расширение диагностического метода, развитие личности, семейные и детско-родительские отношения, жизненные, возрастные и экзистенциальные кризисы, психологические травмы, психические заболевания, пограничные состояния, многие органические поражения и расстройства, посттравматическая психотерапия, умственная отсталость и т.д.).

Сотрудниками (психологами) института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров при академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан было проведено исследование молодых руководителей (в количестве 98 человек) в целях изучения различных пластов бессознательных процессов, которые способствовали становлению лидером и управленцем. Для исследования был использован метод арт-терапии «Дом-дерево-человек», автором которого является Дж. Бак с последующей психологической беседой.

Диагностические и оценочные процедуры в арт-терапии основаны на признании бессознательного и того, что образы являются его естественным «языком». Определенная

информация может быть усвоена сознанием лишь благодаря ее передаче посредством образов, и эта информация не может быть передана словами. В процессе формирования и создания визуальных образов происходит оживление воспоминаний и фантазий, испытуемый не осознает, какое психологическое содержание раскрываются в образах.

В тех случаях, когда переживания нельзя выразить словами из-за их связи с тем периодом развития, когда речь еще не была сформирована, либо из-за перенесенной психической травмы, изобразительные средства обеспечивают доступ к этим переживаниям. Образы позволяют выражать чувства; они также вызывают разнообразные эмоциональные реакции и служат психологическим изменениям; образы затрагивают как сознательный, так и бессознательный уровень психической деятельности, обеспечивают доступ к довербальным формам психического опыта; помогают в раскрытии проблемного психологического состояния и помогает в преодолении защитной реакции испытуемого; образы затрагивают прошлый и текущий опыт, а также позволяют выражать представления о будущем; новые ситуации и модели поведения могут быть смоделированы и проиграны в образной форме, прежде, чем они найдут свое выражение в реальном поведении и будут осмыслены; в то же время они могут осуществляться на разных уровнях психической деятельности; иногда переработка визуальной информации может затруднять или нарушать восприятие.

Поэтому содержащаяся в образах информация не подвергается цензуре, изменению за счет социальной желательности, которая часто имеет место быть при использовании стандартизированных опросников, т.к. руководители, имеют развитые интеллектуальные способности, без труда вычисляют на что направлен тот или иной вопрос, и в целом тест. Исходя из этого, использование именно проективной методики, дает возможность получить насыщенную, объективную информацию о человеке, который не сопротивляясь выдает ее на анализ психологу.

Наше исследование показало, что испытуемым интересно работать с рисуночной методикой, т.к. они подходят к этому с энтузиазмом и последующей вовлеченностью; воспринимается как некий самоанализ в игровой форме. Также нужно отметить, что для большинства руководителей данная методика имеет релакс-терапевтический характер, который способствует психоэмоциональной разгрузки (о чем отмечали сами респонденты). По нашему мнению, это является достаточно важным и потребностным для руководителей, т.к. они занимают ответственные позиции, которые требуют от них высокий уровень концентрированности на поставленных задачах, при этом они должны быть многофункциональны, стрессоустойчивы, решительны, оперативны в различных ситуациях, что способствует большим внутренним, энергетическим затрататам.

Известным фактом является то, что у человека всегда есть желание узнать что-то новое, «неизведанное» о себе, о своем внутреннем состоянии. Также и в случае наших респондентов, которые с любопытством «заглядывали» в свое прошлое, внимательно слушали анализ рисунка, производимый психологом об их психологических особенностях, часть из которых является неведанной им. Это в свою очередь, помогает понять последним: откуда исходят, вытекают их личностные проблемы, за счет чего они акцентируют на это внимание, производя корректировку либо становятся более сильными и стойкими, в результате спокойного отношения к каким-либо своим особенностям, поведению различного характера (самокритичность, сильное угрызение совести, постоянное долженствование и т.д.), которое исходит из детского отрицательного опыта. Произведенная диагностика становится для респондента толчком к переосознанию, переоценки ситуации, которые дают им возможность контролировать контекст и себя.

Важно отметить что данные люди имеют психологическую готовность к принятию информации, осознанию, ее проработке. Этому, по нашему мнению, способствует то, что они открыты опыту, изучают свою психологию, направлены на самосовершенствование, саморазвитие и становление гармоничной личностью.

Исходя из всего выше проанализированного, можно резюмировать основную нашу идею, которая заключается в следующем: наиболее важным в работе психолога является правильная диагностика общего психоэмоционального состояния человека, которая достигается за счет корректно выбранного инструментария для изучения человека. Выбор инструмента психологом осуществляется исходя из того, кем является его респондент. В нашем случае, это руководители, занимающие ответственные должности, от которых требуется быть

многофункциональными, сосредоточенными, стрессоустойчивыми, они являются высоко интеллектуальными, критичными и педантичными, что требует особого подхода. Мы считаем верным, подход рисуночной методики арт-терапии, который не просто помогает достаточно точно и объективно произвести психодиагностику, способствуя раскрытию процессов различных уровней осознанности и выявлению имеющихся внутренних ресурсов, но и способствует релаксации за счет абстрагирования от ежедневной жизненной суеты.

# БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАЗИЛАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Ҳамроева Раъно Ражабовна**
Навоий шаҳридаги АФЧЎИМ
16-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси

**Аннотация:** Ҳозирги кунда бошланғич мактабларнинг биринчи синфдан бошлаб «Иқтисод алифбоси» фани ўқитилади. Бу фанни ўқитишдан асосий мақсад кичик ёшдан бошлаб ўқувчиларга дастлабки иқтисодий тушунчаларни сингдириш, тадбиркорлик фазилатини шакллантиришдан иборатдир . Мазкур мақолада тадбиркорликнинг амал қилиш белгилари, тадбиркорнинг вазифаси ҳақидаги бошланғич синфларга хос билимлар очиб берилади.

**Калит сўзлар:** Тадбиркорлик, маҳсулот, иқтисодий ресурслар, иқтисод, соҳибкор, уддабурон, бозор, товар.

Тадбиркорлик назариясининг шаклланиши ва ривожланишига таниқли австриялик иқтисодчи олим Й.Шумпетер катта ҳисса қўшган. Унинг назариясига кўра, «Тадбиркорлик – яратувчанлик, янгиликни излаш демакдир».[1] У тадбиркорликнинг вазифаси янги ишлаб чиқариш жараёнини такомиллаштириш орқали янги маҳсулотларни ишлаб чиқариш, янги хом–ашё турларини ўзлаштириш ва янги бозорларни топиб, товарларни сотишдан иборат, дея изоҳлайди.

Бунда асосан тадбиркорликнинг амал қилиш белгилари, тадбиркорнинг вазифаси турли бозорларда мувозанатли ҳолатни таъминлашдан иборат, деб ҳисобланган.

Мамлакатимизнинг иқтисодчи олимларидан А. Ўлмасов ва Н. Тўхлиевлар муаллифлигидаги «Бозор иқтисодиёти: қисқа луғат – маълумотнома»да **тадбиркор** – бу соҳибкор, уддабурон киши, корхона эгаси каби хислатлар билан таърифланади .

Шу билан бирга тадбиркор қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши лозим:

1. Тадбиркор иқтисодий ресурсларни – ер, капитал (сармоя) ва меҳнатни бир жойга тўплаб ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнини бошқариш қобилиятига эга бўлиши керак;
2. Тадбиркор бир ишни бошлашга ташаббус кўрсатиш, сўнг ишни тезлаштирувчи катализатор бўлиши билан бирга, ишлаб чиқаришни ҳаракатга келтиришни, бир-бирига боғлиқ бўлмаган кўпчилик ресурсларни боғловчи кўприк бўлиши ва шу меҳнатдан фойда чиқишини таъминловчи бўлиши лозим;
3. Тадбиркор жуда кўп номаълум ҳолатларни таҳлил қилиш ва қарор қабул қилиш идрокига эга бўлиши ва ўз олдига аниқ мақсад қўйиб, унга етишиш учун курашда ташкилотчилик қобилиятини мукаммал эгаллаган бўлиши зарур;
4. Тадбиркор янгиликка интилувчан, тажриба асосида янги товарлар ишлаб чиқариш ёки янги хизмат турини яратиш йўлларини биладиган, хар қандай воқеа-ҳодисани иқтисодий тафаккур орқали таҳлил қилиб, фойда зарарни фарқлай оладиган бўлиши шарт;
5. Тадбиркор хавф-хатарга, таваккалчиликка мойил одам бўлади. У нимаики иш қилмасин, фойда олиш учун қилади, аммо фойда олишим 100 фоиз аниқ деб ҳеч қачон айта олмайди. Унинг хавф-хатарга тўла меҳнати ўта юқори фойда ўрнига зарар келтириши ҳам мумкин.

**Тадбиркор** - бу таваккалчиликни бўйнига олиб, ғояни, ишлаб чиқаришни ва хизмат кўрсатиш турларини амалга оширадиган хамда халқга, жамиятга наф, яъни фойда келтириш шу билан бирга ўзига даромад келтирувчи шахсдир.

Тадбиркор юқоридагидан ташқари ўзига хос бўлган хусусиятлар - харакатчанлик ва жўшқинлиликни ўзида мужассамлаштиради. Тадбиркор ўзининг фикри бўйича муваффақиятга олиб келувчи янги харакат усулларини, маҳсулот турини ва технологияни, истеьмолчилар доирасини, маҳсулоти ва кўрсатадиган хизматининг сифатини яхшилаш йўлларини тинимсиз ахтаради. У шундай инсонки, тадбиркор пул маблағлари, материаллар ва ишчи кучини жамлаштириб, янги маҳсулот, янги бизнес, янги ишлаб чиқариш жараёнини

[1] Шумпетер Й. Теория экономическога развития. - М.: 1982. – С. 48.

ташқил этади ёки ишни ташкил этишнинг такомиллашганроқ усулини яратади.

"Тадбиркорлик фазилати" тушунчасининг моҳиятини ёритишда меҳнат таълими ва тарбияси жараёнида акс этувчи "Меҳнат дарслари", "Синфдан ташқари ишлар", "Мактабдан ташқари ишлар мазмунини ёритишга хизмат қилишини англаш муҳим аҳамиятга эга.

Бошланғич таълимда тадбиркорлик фазилати ҳақида бошланғич билим, кўникма ва малакарни ҳосил қилишда фанлараро алоқадорлик ҳамда изчиллик тамойилига таянган ҳолда иқтисодий таълим-тарбиявий жараённи ташкил этувчи шароитни юзага келтиришни тақозо қилади.

Ҳозирги кунда бошланғич мактабларнинг биринчи синфдан бошлаб «Иқтисод алифбоси» фани ўқитилади. Бу фанни ўқитишдан асосий мақсад кичик ёшдан бошлаб ўқувчиларга дастлабки иқтисодий тушунчаларни сингдириш, тадбиркорлик фазилатини шакллантириш, мустақил Республикамизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳатларни, тадбиркорлик фаолиятини содда мисоллар ёрдамида тушунтиришдан иборатдир.

«Иқтисод алифбоси» ҳақида таълим бериш барча фанларни ўқитишда, айниқса иқтисодга, тадбиркорликка тааллуқли билимларни, тушунчаларни, фазилатларни шакллантириш ўқитувчи зиммасига маъсулиятли вазифаларни юклайди.

Шунинг учун ҳам бошланғич синфда дарс бераётган ҳар бир ўқитувчи тадбиркорлик ва тадбиркорлик фазилатларии ҳақида мукаммал билим ва маҳоратга эга бўлмоғи лозим.

Шунга кўра, бошланғич синф ўқувчиларга тадбиркорлик фаолияти ҳақида билим бериш, ақлий ва жисмоний меҳнат хақида, тадбиркор, ишбилармон кишилар ҳақида, ўз-ўзини бошқариш, пул, пулни муомалада ишлатиш, сотувчи ва харидор, савдо-сотиқ, бозор, ишлаб чиқариш, нарх-наво, ҳамкорларни жалб қилиш каби дастлабки тушунчаларни шакллантириш керак.

Ҳозирги шароитда озиқ-овқат, истеъмол буюмлари ва бошқа товарларнинг нархлари тез-тез ўзгариб турмоқда, барқарор нархда сотиладиган товарлар камдан – кам. Шу сабабли нарх-наво ва пулга оид материаллар ҳақида бохабар бўлишлари керак.

Бозордаги нарх-навони бевосита билиб олиш фойдали, бу эса оила бюджетини тежашда ҳам болага маълум даражада фойдаси тегади. Меҳнат дарсларида ўқувчиларни кундалик учун зарур буюмларни тайёрлашга, ўқувчининг зарурий нарсаларга бўлган эҳтиёжини қондириш, меҳнат унумдорлигини ошириш йўлларини, ўқувчилар меҳнатини тўғри ташкил этиш, уларга зарур бўлган шарт-шароитларни яратиб бериш ҳамда ўқувчиларга соддароқ тилда тушунтириб бериш ўқитувчининг муҳим вазифаларидан бири эканлигини доимо эсда тутиш лозим. Бундай жиддий ишни ҳал этиш кўп жиҳатдан ўқувчиларга тадбиркорлик фаолиятига оид масалаларни тўғри ва ҳаётий мазмунда, қизиқарли тарзда етказиб беришга боғлиқдир.

Хулоса сифатида айтиш жоизки,ҳозирги шароитда ишлатиладиган иқтисодиётга доир жуда кўп тушунчаларни, фазилатларни ўқувчиларда шакллантиришга эришиш ҳам ғоятда зарурдир.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шербоев М. Ўзбек халқ донишмандлари ёшлар тарбияси тўғрисида, - Тошкент: Ўзбекистон, 1989.
2. Ўзбекисон Миллий Энцеклопедияси 8 том.-Т.: Ўзбекистон миллий энцеклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2004 й.
3. Рўзиев Ж. АҚШ да тадбиркорлик: ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқи масалалар. – Тошкент, Фан, 1991.
4. Рўзиназаров Ш.Н., Синдаров К.О., Тадбиркорликнинг ҳуқуқий асослари, 5-6.- Т.: 2002 й.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHISIDA BADIIY ADABIYOTNI OBRAZLI IDROK ETISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Shokirova Mohichehra Inatullaevna**
Navoiy shahar AFCHO‘IM 16-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotasiya:** Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limga bo‘lgan e’tibor kun sayin ortib borishi bilan bir qatorda talab ham shunga qarab bormoqda.Mazkur maqolada ushbu jarayonlarning faqat o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi shaxsiga ko‘proq bog‘liqligi ham muhim omillardan ekanligining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Binar, element, binar munosabatlar,tengdoshli, parallellik, geometrik shakllar, simmetrik munosabat, antirefleksiv, asimmetrik.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘quv-biluv faoliyatining takomillashuvida xotira ham muhim o‘rin egallaydi. Maktab hayotining dastlabki bosqichida turgan bolaning xotira bo‘yicha tabiiy imkoniyatlari nihoyatda katta bo‘ladi: uning miyasi o‘ta egiluvchan bo‘lib, so‘zma-so‘z yodlash bilan bog‘liq topshiriqlarni osongina bajara oladi. Masalan, 15 gapdan maktabgacha yoshdagi bola 3-5 tasini eslab qolsa, kichik maktab yoshidagi bola 6-8 tagacha gapni eslab qola oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi xotirasi, asosan, ko‘rsatmali-obrazli xarakterda bo‘ladi. Qiziqarli, aniq va yorqin ma’lumotlarni xatosiz eslab qola oladi. Ammo bu yoshda o‘quvchilar o‘z xotirasini boshqarish va uni o‘quv topshiriqlariga bo‘ysundirishni bilmaydilar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda o‘quv materialini yod olish jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tekshirish hamda o‘quv faoliyatini samarali tashkil eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishga katta ahamiyat berishi talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxs sifatida shakllanish jarayoni kattalar (o‘qituvchi) va tengdoshlari (sinfdoshlar) bilan bo‘ladigan yangicha munosabatlar, faoliyatning (o‘qish faoliyati) hamda muloqotning yangicha turi yaxlit jamoalar tizimi safiga qo‘shilish jarayoni bilan birgalikda kechadi. Unda ijtimoiy tuyg‘u elementlari, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari (jamoadoshlik, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam) shakllana boshlaydi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda axloqiy sifatlar va shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantarish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ta’sirchanligi, ishonuvchanligi, taqlidchanlikka moyilligi, o‘qituvchi shaxsining u uchun katta obro‘ga ega ekanligi unda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Axloqiy xulq-atvor meyorlarining asosi aynan boshlang‘ich ta’lim sharoitida vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuvida boshlang‘ich ta’limning ahamiyati nihoyatda katta.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ongli tashkil etiladigan, ularning imkoniyati darajasida bo‘lgan ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish ularda ijtimoiy sifatlarning shakllanishi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar bajaradigan mehnat o‘z-o‘ziga xizmat, kattalarga ko‘maklashish xarakterida bo‘ladi. Ayniqsa, mehnatning tashabbuskorlik, mustaqillik, ijobiy ma’nodagi o‘zaro raqobat muhitida olib boriladigan o‘yin bilan hamohang tashkil etilishi samarali natijalarga olib keladi. Ongli, foyda va cheksiz zavq-shavq keltiradigan o‘yinlarni tashkil etish orqali o‘qituvchi bolalarning ajoyib mo‘jizalarga boy dunyoni bilishga qiziqish, harakat faolligini qondirishga intilish xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash kerak bo‘ladi. Shundagina bolalarda mehnatsevarlik, faoliyat madaniyati, jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratilgan bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularning yoshiga, tushuncha, qiziqishlariga mos keladigan asarlar bilan tanishtirib borish talab etiladi. Bolalarda ertak, ermak, hikoya, she’rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ko‘nikmalarini hosil qilishga e’tibor qaratiladi. Asar mazmuni bo‘yicha beriladigan savollarga javob berish, harakatlar bilan bajariladigan ermaklarni, qisqa she’rlarni ertak va hikoyalarning mazmunini buzmay (tarbiyachi bilan birga, keyinchalik mustaqil) takrorlash kabi ko‘nikmalarni o‘stirish, bolalarda asarlar bo‘yicha ishlangan rasmlarga nisbatan qiziqishni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy adabiyotni obrazli idrok etish ko‘nikmalarining ham maqsadli ravishda shakllanishiga yordam beradi.

Badiiy adabiyot ham olamni bilishning vositasi ekan, uni fan bilan qorishtirmaslik kerak. Fan

olamni bilishning ilmiy yoʻllarini koʻrsatadi. Badiiy adabiyot esa olamni bilishning maxsus, oʻziga xos usulidir. Fan, odatda, kategoriyalar, tushunchalar bilan ish koʻradi, badiiy adabiyotda esa ularning vazifasini mutlaqo boshqa hodisalar ado etadi. Toʻgʻri, fan ham, adabiyot ham insonga maʼrifiy bilimlarni bera oladi. Ammo badiiy adabiyot vositasida maʼrifiy bilimlarni oʻzlashtirish mutlaqo oʻziga xosdir. Bu erda bilishdan koʻra koʻproq his etish ustuvorlik qiladi.

